

ЖАВЛОН ЖҮРАЕВ

ЎЗЛИК САРИ
ЕТТИ ҚАДАМ

4

ЯХШИ ВА ёМОН

Epigraf

- *Yomonlik, sen nega bunchalik yomonsan?*
- *Bu qanaqa bema'ni savol, Yaxshilik – men sen yaxshi bo'lganining uchun yomonman.*
- *Men yaxshi bo'lmasam, sen ham yomon bo'lmas edingmi?*
- *Albatta! Unda mening yomon bo'lismagda hojat qolmas edi...*

Diqqat

Kitobda bildirilgan dingga va e'tiqodga doir mulohazalar muallifning shaxsiy fikri bo'lib, ular hech bir dinning rasmiy haqiqati sifatida aytilmagan. Muallifning din nomidan gapirishga diniy savodi yetarli emas va bu fikrlar faqatgina falsafiy nuqtayi nazarni o'quvchiga yetkazish uchun misol tariqasida keltirilgan.

Mundarija

Muallifdan.....	4
Boshladik.....	5
Shaxsiyat.....	7
<i>Buyuk yolg'on tarixi.....</i>	7
<i>Yomonlikdan omonlik.....</i>	10
<i>Shaxsiy ojizlik</i>	14
<i>Mazmunli jonzot</i>	17
Muhimlik	21
<i>Daraxtdagi maymunlar</i>	21
<i>Tiltegmas muhimliklar.....</i>	24
<i>Qani endi yer yutsa.....</i>	28
<i>Kasb tanlash.....</i>	31
Kemtiklar	35
<i>Bosdi-bosdi qilinganlar</i>	35
<i>Nomparastlik.....</i>	38
<i>Tubsiz quduqlar.....</i>	42
<i>Singan ko'ngillar</i>	45
Qo'rquvlar.....	49
<i>Diqqat, ochilmasin!.....</i>	49
<i>Ijtimoiy bosim.....</i>	52
<i>Yomondan qo'rqish.....</i>	56
Rishtalar	59
<i>Haqiqiy mas'uliyat</i>	59
<i>Mehrning uch yo'nalishi.....</i>	62
<i>Oling, quda – faqat oling.....</i>	66
Bunyodkor kuch	70
<i>Azaliy muvozanat.....</i>	70
<i>Qudratning to't pog'onasi.....</i>	75
<i>Ilm chirog'i</i>	79
<i>Yana bir yolg'on.....</i>	82
Baxt.....	86
Muallif haqida	87

Muallifdan

Aziz Kitobxon,

Hali joningizga tegmadimmi? Bu uchta kitob yozib ham, aytadigani tugamabdi deb jahlingiz chiqmayaptimi?

Sizni zeriktirmagan bo'lsam, navbatdagi suhbatimizga xush kelibsiz. Tan olishim kerak, siz bilan suhbatlashishni juda sog'inganman. Bu ojizligimni kechirasiz degan umiddaman.

Avvalgi uch kitob sizga ham, menga ham ko'p narsani o'rgatdi. Payqagan bo'lsangiz, kitoblar juda oddiy, kamtar, jiddiylikdan holi ohangda yozilgan. Bu bizga yaqin do'st bo'lib olishimiz uchun zarur edi.

Endi bir-birimizni yaxshi bilamiz – bir oz dadilroq gaplashsak ham bo'ladi, menimcha. Bu galgi suhbatimiz bir-biriga ishonadigan, bir-birining fikrini hurmat qiladigan odamlargina muhokama qiladigan mavzularga bag'ishlanadi. Ularning ba'zilari jiddiy – ammo ko'nglimizga tayanib ish tutsak, bir-birimizni albatta tushuna olamiz.

Bizni yaxshi va yomon haqidagi ajoyib suhbat kutmoqda. An'anani saqlagan holda, kitob siz bilan yangi sirlarni o'rtoqlashadi. Va, albatta, sizdan ham ochiq ko'ngillilikni va ochiq fikrlilikni kutadi.

Suhbatimizga endi kelib qo'shilganlarga avval turkumdagи birinchi uch kitobni o'qib chiqish tavsiya etiladi. Chunki suhbatda ishlatiladigan ko'p tushuncha va atamalar oldin ta'riflab o'tilgan va muhokama qilingan. Bu suhbatdan to'liq maroq olishingiz uchun, asosiy tushunchalar bilan tanish bo'lganingiz ma'qul.

Menimcha, hamma aytadiganimni aytdim. Ha, esimdan chiqay debdi: ushbu kitob yaralishida menga o'z maktublari bilan yordam bergan barcha do'stlarimizga samimi minnatdorchiligidagi bildirmoqchiman. Bu kitobni bir men emas – hammamiz bir bo'lib yozdik. O'zimizni ozgina maqtab qo'ysak zarar qilmaydi.

O'zligimiz sari navbatdagi safarni mana endi boshlasak bo'ladi.

Boshladik

“Yolg'on, hammasi yolg'on,
Dunyoda o'llimdan boshqasi yolg'on...”
(Yulduz Usmonova qo'shig'idan)

Men yolg'onchiman desam, nima degan bo'lardingiz? Bunga ishonsangiz ham, ishonmasangiz ham men yolg'onchi bo'lib chiqaman. Siz yolg'onchisiz desam-chi?

Aslida, hammamiz yolg'onchimiz. Chunki bolalikdan bizni ko'p aldashgan. Yolg'onlar ichida katta bo'lgan odamda rostgo'ylik bo'lishi ham yolg'on.

Yolg'onlar bizga yashashga, qiyinchiliklarni yengishga, kuchli bo'lishga imkon beradi. “Hammasi yaxshi bo'ladi” deb aldaymiz o'zimiz va atrofdagilarni. “Men seni sevaman” deb aldaymiz. “Men buni o'zim uchun qilmayapman” deb aldaymiz. “Men baxtliman” deb aldaymiz.

Xo'sh, nega bunchalik yolg'onlarga ko'p tayanamiz? Nahotki, faqat rostdan iborat hayot qurib bo'lmasa? Nahotki, shaxsiy erkinligimiz yolg'onlarga bog'liq bo'lsa?

Inson o'z taraqqiyotida yolg'ONNI chetlab o'tishi imkonsiz bo'lgan. Aql o'sgani sari, ko'ngil bilan aql ziddiyati kuchaygan. Ko'ngil samimiy va sodda bo'lgani uchun, aql unga nisbatan ta'sir quroli sifatida aynan aldrovlarni o'ylab topgan. Va asta-sekin yolg'ONNI san'at darajasiga olib chiqqan.

Yolg'on bizga shaxsiyatimizdagi muvozanatni tutib turish uchun kerak. Aynan yolg'on qalb va aql ziddiyatlarini hal qilishda beminnat xizmat ko'rsatadi, aql zulmidan tana va qalb tamoman jabr ko'rishining oldini oladi. Agar bu moslama ishlamay qolsa, inson ruhiy salomatligi buziladi. Ruhiy kasalliklarning ko'pchiligi ana shunday kelib chiqadi – odam qalbi aqli aytgan yolg'onlarga ishonmay qo'yadi va qo'zg'olon ko'taradi.

Demak, yolg'on bizning sog'ligimiz uchun zarur ekan-da? Bir jihatdan, ha. Ammo yolg'on soyasida yashashni tanlagan odamda shaxsiy erkinlik bo'lmaydi va u aql hokimiyatini tan olib yashaydi. Ko'ngil bir umr yolg'onlar bilan sug'oriladi va o'z istaklariga erisha olmaydi. Yolg'on dorisini ichib yashagan odam sog'lom – biroq baxtsiz bo'ladi.

Xo'sh, yolg'onlarsiz yashab, mustahkam salomatlikka erishish uchun nima qilish kerak?

Buning uchun aqlni nazoratchilikdan holi qilib, uni ko'ngil bilan do'stlashtirish kerak. Ana shunda aql qalbni o'ziga dushman bilmaydi va unga qarshi yolg'ondek xavfli qurol ishlatmaydi.

Aql bilan qalbni do'stlashtirish bir masala – biz birinchi suhbatimizdan beri shu haqida gaplashamiz. Boshqa masala – aql ishlatajigan yolg'onlarni taniy bilish. Bu galgi suhbatimiz ana shunga bag'ishlanadi. Unda qanchalik samaraga erishganimizga suhbat oxirida baho beramiz.

Suhbat davomida biz hayotimizga va shaxsiy o'sishimizga katta ta'sir o'tkazadigan yolg'onlar haqida bilib olamiz. Yolg'onlar ta'sirida qanday muhimliklarga berilishimiz, qanday kemtiklar orttirishimiz muhokama qilinadi. Qaysi yolg'onlardan qo'rqishimiz va yolg'onlar soyasida ahd kuchimiz qanday isrof bo'lishi haqida suhbatlashamiz.

Keling, suhbatni tarixdagi eng katta yolg'on bilan tanishishdan boshlaymiz.

DUSHANBA

Shaxsiyat

Buyuk yolg'on tarixi

Yaralish avvalida Yer yuzi jannat bo'lgan. Unda hamma jonzotlar o'zaro muvozanatda yashaganlar. Ular orasida bir jonzot bo'lganki, u o'z qiziqishi bilan boshqa mavjudotlardan keskin ajralib turgan.

Qiziqish uni yomg'ir nimaligini bilishga, daraxt tepasiga chiqishga, boshqa hayvonlar uyasiga kirib ko'rishga undagan. Qiziqish uni turli mevalarni yeb ko'rishga, chaqmoq urib yonib ketgan daraxt tanasidan qolgan cho'g'ni ushlab ko'rishga chorlagan.

Aynan qiziqish orqali odamzodda aql rivojlangan. Biz aynan qiziquvchanligimiz sabab man qilingan mevadan yeb ko'rganmiz va bizga aql bitgan. Ilm-fan ham, din ham bir haqiqatlar haqida so'zlaydi – faqat ikkisi buni o'z usulida, o'z vositalaridan foydalanib qiladi.

Aql – insonda qiziquvchanlik ortidan shakllangan. Qiziquvchanlik sabab achchiq mevani yeb qo'ygan odamzod ongida buni qaytib qilmaslik kerakligi haqidagi xulosa shakllangan. Cho'g'ni ushlasa qo'l kuyishi, ayni bir o'tni chaynasa sarxush bo'lishi, daraxtga chiqsa atrof yaxshiroq ko'rinishi ana shunday xulosalar shaklida odam ongidan joy ola boshlagan. Aql ana shunday shakllangan.

Faqat aql bunda bir muammoga duch kelgan: shirin mevani yeb ko'rgandagi rohatni achchiq meva yegandagi azobga solishtirish va ularni bir-biridan farqlash uchun shartli belgilar kerak bo'lган. Shunda aql unga yoqqan hamma narsani "yaxshi" – unga yoqmaganlarini esa "yomon" yorlig'i bilan belgilay boshlagan.

Biz ulug'laydigan "yaxshi" va "yomon" sifatlari ana shunday paydo bo'lgan. Bu ikkisi shuchaki shartli belgi – ular odam xulosalarini tasniflash uchun kerak bo'lgan, xolos. Ammo ta'mi achchiq bo'lgan meva aslida tanaga shifo ekanini aql bilmagan. Cho'g' to'g'ri ishlatsa, sovuqda taft, zulmatda nur berishi mumkinligini ham aql bilmagan. U bu narsalarni bilmay turib achchiq meva va cho'g'ga "yomon" yorlig'ini osgan.

Aql atrofdagi narsa, jonzot va hodisalarga yaxshi va yomon sifatini berishga shu darajada kirishib ketganki, tez orada u butun dunyoni ikki xil turga ajratib tashlagan. Ammo vaqt o'tib, u avval yaxshi degan narsalar aslida zararli, u avval yomon deb atagan narsalar aslida foydali ekanini bilib qolgan. U katta qiyinchiliklar bilan bu narsalarga bergan bahosini o'zgartirishga majbur bo'lgan.

Yaxshi va yomon – tarixdagi eng katta yolg'on. Dunyoda yaxshi va yomon narsalar, jonzotlar, odamlar yo'q. Hayotda yaxshi yoki yomon hodisalar sodir bo'lmaydi. Aqlimiz u yoki bu narsa yaxshi yoki yomon ekaniga bizni aldab ishontiradi. U buni bizning qarorlarimiz ustidan ega chiqish uchun – bizning shaxsiyatimizni qamalda saqlash uchun qiladi.

Bu dunyoda yaxshi yoki yomon narsa yo'q – bu dunyoda oddiy narsalar bor. Bu dunyoda yaxshi-yomon jonzot yo'q – tabiatda har bir jonzotning o'z o'rni bor. Bu dunyoda yaxshi-yomon odam yo'q – bu dunyoda siz va men kabi oddiy odamlar bor.

Xo'sh, bu buyuk yolg'onga qanday ishonganmiz? Aqlning yaxshi va yomon haqidagi nayrangiga qanday uchganmiz?

Buni anglab yetish uchun biz avvalgi kitoblarda muhokama qilingan tabiiy va orttirilgan (ijtimoiy) bilim tushunchalariga murojaat qilishimiz lozim.

Hayvonning bolasi atrofidagi xavf-xatardan boxabar tug'iladi. U nimadan qochish, kimga talpinish, qanday tirik qolishni biladi. Bu bilimlarni unga tabiat bergen. Bu bilimlar unga ota-onasidan qon bilan – jon bilan o'tgan. Bu bilimlar uning genida yozilgan.

Odamzod bolasi ham xuddi shunday tabiiy bilimlar bilan yaraladi. Biz ham ota-onamizdan tirik qolish, yashash va rivojlanish uchun zarur hamma bilimlarni olib dunyoga kelamiz. Bu bilimlar (haqiqatlar) bizga yaralish paytida berilgan.

Nega biz yaxshi va yomon nima ekanini bilib tug'ilmaymiz? Chunki "yaxshi" va "yomon" tushunchalar faqat jamiyatga tegishli. Chunki bu tabiiy bilim emas. Chunki "yaxshi" va "yomon" degan haqiqatlar yo'q aslida. Bu – odamlar dunyoni boricha qabul qila olmaganidan kelib chiqqan sarob. Ular bu yolg'oni o'zlariga qarshi o'ylab topishgan. Bu

yolg'onni aql odamzod ustidan bo'linmas hukmga ega bo'lish uchun o'ylab topgan. Biz o'z aqlimiz yolg'oni tashlagan qopqonda yashaymiz.

Bu ta'kid kimdadir norozilik uyg'otishi mumkin. Bizga esimizni taniganimizdan bir gap uqtiriladi: yaxshi-yomonni bilmagan yashay olmaydi, baxtli bo'lmaydi. Bu gap ham yolg'on – bizga yashab qolish va baxtli bo'lish uchun bu dunyo, uning tarkibiy qismlarini, boshqa jonzot va odamlarni yaxshi va yomonga ajratish shart emas. Aniqrog'i – bunday qilish bizga yashashga – baxtli yashashga xalal beradi.

Juda ko'p hollarda yaxshi va yomon sifatlari shunchaki andazaga tayanib aytildi. "O'g'lim, bu ishni qilib bo'lmaydi – Nega? – Yomon bo'ladi" kabi tarbiya bolada zararli yaxshi-yomon tushunchasini shakllantiradi. Tarbiya paytida u yoki bu ishni yaxshi yoki yomon emas – foydali yoki zararli, bunyodkor yoki vayronkor, kerakli va keraksiz kabi ta'rif orqali yetkazgan ma'qul. Bunda aynan shu ish nega ijobjiy yoki salbiy jihatga ega ekaniga yetarlicha asos berish lozim.

"O'g'lim, ana bu bolalarga qo'shilmagin. – Nega? – Chunki ular yomon bolalar – Nega? – Chunki ular seni yomon odatlarga o'rgatadi..." Bolaga "yaxshi" tarbiya berish vaji bilan birovning bolasini yomon deyishning o'zi to'g'rimikan? Bunday ta'kid bolada bu dunyoda hamma teng emasligi – kimlardir do'stlashishga va ishonishga loyiq, kimlardir bunga munosib emasligi haqidagi asossiz xulosani shakllantiradi. Ya'ni yaxshi-yomon tushunchalari farzandingizni hayotdagi asl qadriyatlardan chalg'itadi.

"O'g'lim, har kim bilan do'st bo'lish yaxshi. Faqat u yoki bu ishni qilishdan avval bu senga chindan kerakmi-yo'qmi – o'ylab ko'rgin. – Nega? – Chunki odamlar qiladigan hamma ish ham foydali bo'lavermaydi. – Foydasiz ishni qilsam, kimga zarar? – Eng avvalo o'zingga, keyin boshqalarga..."

Bu ta'kidda, sodda til bilan aytganda, "odam ajratish" yo'q. Bolada odamlar va ularning xatti-harakatlarini yaxshi-yomonga ajratish ilinji paydo bo'lmaydi. Har kimning shaxsiyatini teng hurmat qilish va o'z tanlovlari uchun mas'uliyatni sezish shakllanadi. Bolani buzg'unchi ishlardan "yomon" odamlardan nari yurishi emas – o'z qarorlari uchun javobgarlikni bilishi tejab qoladi.

Yaxshi va yomon haqidagi yolg'on shu qadar qadimgi va ulkanki – uning aslida yolg'on ekanini ko'pchilik unutgan. Aqlimiz shu buyuk yolg'on asosida ko'plab boshqa "yolg'onchalar"ni o'ylab topib, hayotimizga kiritgan. Bu yolg'onchalar ba'zida bir-biriga zid fikrlarni ta'kidlaydi: biri bu dunyoda har doim yaxshilik g'alaba qozonib, yomonlik jazoga mahkum ekanini aytsa – boshqasi "yaxshiga kun yo'q, yomonga - o'lim" deydi.

Bu ichki ziddiyatlarni biz odatda sezmaymiz – chunki aql har bir yolg'onchani o'z joyida ishlatadi: yaxshilik ustunligini o'tkazish kerak bo'lganda birinchi yolg'oncha kor keladi,adolatsizlikka urg'u berish kerak bo'lganda ikkinchi yolg'oncha ishga tushadi. Ammo sergak turib, hamma yolg'onchalarni bir safga qo'ysa – ularning ko'pchiligi bir-biriga zid ekani oshkor bo'ladi.

Yaxshilik va yomonlik haqidagi buyuk yolg'on qo'l ostidagi kichik yolg'onchalardan kuch olib yashaydi. Yolg'onchalar fosh bo'lsa – ularning bobosi buyuk yolg'on ham oshkor bo'ladi. Har xil narsaga bo'lgan munosabatingizni astoydil o'rganib chiqsangiz – bunaqa yolg'onchalar siz umuman kutmagan joylarga yashiringanini bilib olasiz.

Keling, biz ana shu yolg'onchalarni fosh qilishga urinib ko'ramiz.

Yomonlikdan omonlik

Sizga, har doimgidek, bir ajoyib savolim bor: Siz yaxshi insonmisiz?

Javob berish qiyin-a? Balki, osongina javob bergandirsiz. Nima bo'lganda ham, shu savolni o'qib, xayolingizdan o'tgan fikrlarni eslab qoling – biz ularga hali yana qaytamiz.

Bizning dunyo – qarama-qarshiliklar dunyosi. Unda hamma narsaning aksi – zidi bor. Yorug'likka qarshi zulmat, issiqlqa qarshi sovuq, mehrga qarshi qahr. Tabiat ham mukammal ziddiyatlardan tashkil topgan – borliqni tashkil qilgan zarralarda ham qancha manfiy quvvat bo'lsa, unga qarshi shuncha musbat quvvat bor. Ba'zi olimlar bugun hatto moddaning ham zidi – antimodda (antimateriya) mavjudligini ta'kidlashmoqda.

Biz bu bir-biriga zid keskinliklarni bir-biri bilan taqqoslab o'rganamiz. Oq nima ekanini faqatgina uni qoraga solishtirib aytishimiz mumkin. Aqlimiz

hamma narsani taqqaoslab, hamma narsaga nomlar, sifatlar berib chiqqan. Biz dunyoni ana shu sifatlar asosida ko'rib, qadrlab yashaymiz.

Bu yo'ladi eng katta yutug'imiz – “yaxshi” va “yomon” sifatlarini o'ylab topganimiz bo'lgan. Bu ikki so'zning asl qudratini biz har doim ham bilavermaymiz – ammo bu ikki so'z bizning hayotimizga juda kuchli ta'sir qiladi.

Birgina “yaxshi” yoki “yomon” sifatiga ergashib, biz qarorlar qabul qilamiz. “Yaxshi” yorlig'i ilingan odamlar, buyumlar va g'oyalarga ergashamiz – “yomon”larini o'zimizdan nari tutishga urinamiz. “Yaxshi” deb bilgan ishlarimizni qilamiz, “yomon”laridan tiyilamiz. Bularning barini biz o'zimiz “yaxshi” bo'lish uchun – o'zimizga “yaxshi” bo'lishi uchun qilamiz.

Nima deb o'ylaysiz: qo'lingizdagи kitob yaxshimi? U sizni yaxshi inson bo'lishga chorlayaptimi? Yaxshilik qilishga undayaptimi? Uni o'qib, o'zingizni yaxshi his qilyapsizmi?

Bu savollar ichida chalkashib qolmay turib, sizga avval aytgan gapni eslatay: **yaxshi va yomon tushunchalari – odamzodning baxtli bo'lishiga qarshilik qiladigan eng katta yolg'ondir**. Ha – dunyoda yaxshi va yomon odamlar, narsalar va hodisalar yo'q.

Tarbiya bilan ongingizga singdirilgan qoidalar hozir talvasaga tushgan bo'lsa kerak. Lekin bunga ishonish qanchalik qiyin bo'lmasin – yaxshilik va yomonlik bor-yo'g'i *nisbiy haqiqatlar*. Ularni odamzod o'z-o'zini baxtdan ayirish uchun bilmasdan o'ylab topgan.

Yaxshilik va yomonlik – ijtimoiy tushunchalar. Tabiatda bunday tushunchalar mavjud emas. Tabiat bunday sun'iy tushunchalarni tan olmaydi, ularga qarab yashamaydi. Qo'rkoq va oqko'ngil quyonlar-u, kuchli va yovuz bo'rilar faqat ertaklarda bo'ladi. Tabiatda esa quyonlar ham, bo'rilar ham *bir xil* o'ringa ega.

Aytaylik, chiyabo'ri kiyiklar to'dasidan aynan nimjon kiyik bolasini tanlab, hujum qildi va o'ljasiga erishdi. Xo'sh, chiyabo'ri yomon ish qildimi? Uning to'dadoshi qari va kasalvand, hech narsaga yaramay qolgan kiyikni o'ldirdi. Xo'sh, bunisi-chi?

Ikkala chiyabo'ri yaxshi ham, yomon ham emas – ular oddiy. Ular yaxshi ish ham, yomon ish ham qilmadilar – ular tabiiy ish qildi. Ikkisi ham ortiqcha kuch sarflamay, o'ljaga oson erishish yo'lidan bordi. Chunki bugun kuchini tejasa, ertaga ham kuchuklarini boqishga quvvati yetadi.

Bu voqeani chetdan kuzatib turgan odamzod esa darrov “yaxshi-yomon” o'yinini boshlab yuboradi. U darrov ojiz kiyikchaga hamla qilgan chiyabo'rini qoralashga tushadi. Bolasini qarovsiz qoldirgan ona kiyikni ham ayblab qo'yadi orada.

Yaxshi va yomon sifatlari bizga aslida bizniki bo'limgan “qozilik” huquqiga da'vo qilishga asos bo'ladi. Biz nafaqat tabiatdagi jarayonlarni – balki bir-birimizni ham ana shu elakdan o'tkazamiz. Birovni yaxshi, birovni yomon, bir ishni yaxshi, boshqasini yomon deyishdan oldin chuqurroq o'ylab ko'rmaymiz.

Biz hatto o'z tanamizni yaxshi va yomon nimtalarga ajratamiz. O'ng qo'l – yaxshi, chap qo'l – yomon. O'ng qo'l bilan qilingan ish – yaxshilik, chap qo'l bilan qilingani – qing'ir. Bunday yaxshi-yomon yorliqlari maqol va udumlarimizgacha singib ketgan. Farzandlarimizni yoshlikdan o'ng qo'lda ovqatlanishga, yozishga, chizishga o'rgatamiz.

Ammo sof tabiiy jihatdan bu juda zararli. Odam tanasining o'ng yarmini miyaning chap yarmi boshqaradi. Miyaning chap yarmi esa mantiqiy va tanqidiy fikrlashga javobgar. Tanamizning o'ng yarmiga ko'proq e'tibor berib, uni ko'proq mashq qildirsak – miyamizning ham faqat chap yarmi rivojlanadi. Ya'ni, bolangizga “yaxshi” bo'lgan o'ng tomonni ko'proq tarbiyalashni aytib, siz uning faqat bir yoqlama rivojlanishiga turtki berasiz.

Miyaning o'ng yarmi – mavhum fikrlash va ijodiy faoliyatga javobgar. Mona Liza va Shashmaqomlarni buyuk daholarning aynan o'ng miya qismi yaratgan. Insoniyat barpo qilgan barcha go'zal narsalar – miya o'ng yarmi mahsuloti.

Ko'pchilik iqtidorli odamlarning chapaqay bo'lGANI bizga ma'lum. Ammo bunda ular iqtidorli bo'lGANLARI uchun chapaqay bo'lib qolmaganlar – aksincha, ular bolalikdan chap qo'llarini ham tarbiya qilganlari uchun, ularning o'ng miyasi yaxshi rivojlanib, ular iste'dodli bo'lib yetishganlar.

Shunday ekan, farzandingiz chap qo'lida qoshiq yoki qalam tutsa – uni koyishga shoshilmang. Kim bilsin – u kelajakda buyuk ijodkor bo'lib, insoniyatga zavq beruvchi asarlar yaratar. San'at yo'lidan bormagan taqdirda ham, u to'laqonli kamol topgan – miyasining ikki yarmini ham teng rivojlantirgan kuchli shaxs bo'lib yetishadi.

Bola miyasining ikki yarmi mutanosib o'sishi uchun, uning tanasini ham chap, ham o'ng tomondan tarbiyalash lozim. Misol uchun, unga chap qo'lida surat solib, o'ng qo'lida yozishni o'rgatish mumkin. Qoshiqni har ikki qo'lida tutishni o'rgatsa ham bo'ladi – ishoning, chapaqay bo'lsa "yomon" bo'lmaydi.

Kimdir bolasiga yomon bolalardan nariroq yurishni tayinlaganini eshitsam – hayron bo'laman. Yomon bola qanaqa bo'lar ekan? Nahotki, bolaning ham yomoni bo'lsa? Balki, ular bu bilan yomon tarbiyali bolani nazarda tutar? Unda "yomon tarbiya" qanaqa bo'ladi? Kim bolasiga "yomon bola bo'lgin, quloqsiz, odobsiz, qaysar bo'lgin" deb tarbiya beradi axir?

Aytaylik, bitta "yomon" bolaga ikkita "yaxshi" bola qo'shilib qoldi. "Yaxshi" bolalarning biri "yomon" bola ta'siriga tushdi – ikkinchisi o'zgarmadi? Shunday bo'lishi mumkin-ku. Demak, gap aslida "yomon" bolaning "yomon" tarbiyasida emas ekan-da?..

Bolalar bir-birlarini yaxshi-yomonga ajratmaydilar. Bunga sabab yosh bola yaxshi-yomonning farqiga bormasligi emas – bolalar aslida dunyoda yaxshi yoki yomon odam bo'lmashagini, har qanday bola do'stlashib, birga o'ynashga munosib ekanini biladilar. Odamlarni yaxshi-yomonga ajratishni esa ularga biz – kattalar o'rgatamiz.

Yaxshi va yomon sifatlari bizga yashashga xalal berishiga misollar juda ko'p. O'z shaxsiyatimiz, boshqa odamlar va hayotiy vaziyatlarga yaxshi va yomon sifatini berib yashash bilan biz o'zimizni ko'p narsadan cheklaymiz. Bu bilan biz o'zimizni shaxsiy o'sishdan – shaxsiy kuch to'plashdan cheklaymiz. Mana shu chindan ham yomon.

Shaxsiy ojizlik

Bu qanaqasi – demak, hayotda yomon insonlar bo'lmas ekan-da? U holda hayotda sodir bo'ladigan shuncha buzg'unchi ishlarga nima sabab?

Avvalgi bobdagi ta'kidlar bilan men sizga odamlar hech qachon xato qilmaydi, ularning ishlari hech kimga zarar yetkazmaydi – hech kim buzg'unchi ish qilmaydi demoqchimasman. Albatta, hayotda tuban va yovuz ishlar sodir bo'ladi. Men sizga ana shu ishlarga yomonlik alomati deb qaramaslikni tavsiya qilyapman, xolos.

Nima deb o'ylaysiz – odamlar nega yolg'on gapiradi? Nega firibgarlik qiladi? Nega birovning haqiga yoki mulkiga tajovuz qiladi? Nega og'ir jinoyatlar sodir etadi? Yomon odam bo'lgani uchunmi?

Yo'q. Odamlar **ojizligi** sabab buzg'unchi ishlar qiladi. Men sizga odamlarning xatti-harakatlarini yaxshi-yomonga emas – bunyodkor va buzg'unchi ishlar toifasiga bo'lib baholashni tavsiya qilaman. Faqat bunda bunyodkor ishni yoki shu ishni qilgan odamni ulug'lash (ilohiylashtirish) va buzg'unchi ishni yoki shu ishni qilgan odamni qoralash (gunohkor sanash) ilinjidan qutilish zarur. Odamlar va ularning xatti-harakatlarini baholashda muhimlik ishtiroy etmasligi lozim.

Shunday qilib, odamlar o'z ojizliklari sabab buzg'unchi ishlarga qo'l urishadi. Men ojizlik deganda jismoniy yoki ijtimoiy ojizlikni nazarda tutmayapman. Buzg'unchi ishlar qilish uchun katta jismoniy kuch yoki ijtimoiy ta'sirdan qisilgan bo'lism shart emas. Va aksincha – jismoniy yoki ijtimoiy kuchga ega odamlarning hammasi ham bunyodkor shaxslar emas.

Hamma gap shaxsiy (ma'naviy) kuchda. Hayotiy quvvati kam bo'lgan odam o'z maqsadlariga intilishda har doim buzg'unchi yo'ldan boradi. Bunga hayotiy misollar keltirsak, tushunarliroq bo'ladi.

Masalan, bir jamoada ikki sportchi bor: biri ikkinchisidan ancha tajribali va jismonan chiniqqan. Ammo tajribasi kam sportchi muhimlikdan holi va u katta shaxsiy kuchga ega. Deylik, shu ikkisidan biri jamoa sardori etib tayinlanishi kutilmoqda. Katta jismoniy kuchiga qaramay, shaxsiy kuchi kam bo'lgan sportchi shu mavqega erishish uchun buzg'unchi ishlar

qiladi: raqibi obro'sini tushirish uchun yolg'on gapiradi, kerak bo'lsa o'z maqsadi uchun jismoniy kuchini zo'ravonlik yo'lida ishlatadi.

Bir qarashda bu sportchining harakati mantiqsiz tuyiladi – u shundoq ham kuchliroq va tajribaliroq, sardorlik unga nasib etishi ehtimoli katta. Nega u shunda ham kurashni qo'ymayapti? Javob juda oddiy: unda o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonch kam. Unda sardorlik uniki ekanini aytib turgan xotirjamlik yo'q. Uning o'ziga ishonchini va xotirjamlikni ta'minlaydigan shaxsiy kuchi yo'q. Bor-yo'g'i shu.

Odam katta mavqe va davlatga erishib ham, shaxsiy ojizligini yo'qotmasligi – natijada buzg'unchi ishlar qilishda davom etishi mumkin. Shuning uchun qo'lida katta boyligi va qudrati bo'lgan odamlar har doim ham buniyodkor ish qilavermaydilar.

Keling, shu yerda ikki xil kuch haqida eslab olaylik. Odamzodga (xuddi boshqa har qanday jonzot singari) ikki xil kuch berilgan: moddiy va ma'naviy. Moddiy kuch – atrof dunyoga to'g'ridan-to'g'ri moddiy ta'sir qiladigan kuchdir. Bizning jismoniy kuchimiz – moddiy kuch. Boyligimiz va ijtimoiy ta'sirimiz – moddiy kuch. Mantiqiy fikrlash qobiliyatimiz – moddiy kuch.

Ma'naviy kuch esa – bizdagi hayotiy quvvat darajasi bilan belgilanadi. Og'ir qaltis vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik – ma'naviy kuch. Qo'rquvlardan holi yashash – ma'naviy kuch. Har qanday holatda ham xotirjamlikni va sergaklikni saqlay bilish – ma'naviy kuch. Odamlarga ma'naviy zavq va ozuqa beradigan ijod namunalarini yaratuvchi ilhom – ma'naviy kuch.

Bu ikki kuch bir odamda jam bo'lgan holati juda kam uchraydi. Ham moddiy, ham shaxsiy kuchi katta odamlar tarixda ham kam bo'lgan. Bunga antik davr buyuk sarkardasi Gannibal misol bo'la oladi. U Afrika shimolidagi Karfagen shahrida Rim imperiyasi tazyig'i ostida yashagan. U bu tazyiqqa barham berish uchun askarlarini Gibraltar orqali olib o'tib, Rimga shimoldan – Alp tog'lari osha hujum qilgan. Bu sarkarda ham jismonan, ham shaxsan kuchli odam bo'lgan. U rimliklar ona shahrini egallaganda ham o'zligini yo'qotmagan va sergak turib ish qilgan.

Gannibalning mantiqiy fikrlashi va bilimlari ham kuchli bo'lgan. Alpdan lashkarlarini olib o'tishda katta qoya uning yo'lini to'sadi. Shunda u

askarlar o'zi bilan olib ketayotgan suv va may to'ldirilgan meshlarni qorga qo'yib, sovitishni buyuradi. Qoya atrofida esa alanga yoqib, uni qizdirishni tayinlaydi. Qoyatosh yetarlicha qiziganda, yaxdek suv va mayni uning ustiga sepishadi. Qizib turgan tosh keskin sovitish tufayli ichki quvvati ostida yorilib, mayda bo'laklarga bo'linib ketadi. Lashkar uchun yo'l ochiladi.

Inson o'z intilishi bilan katta shaxsiy kuch egasi bo'lishi mumkin. Avval aytilgandek, shaxsiy kuch yetishmasligi bizni turli buzg'unchi ishlarga boshlaydi. Bu esa odamlar orasida yaxshi va yomon haqidagi yolg'on ommalashishiga hissa qo'shadi.

O'z maqsadiga to'g'ri yo'ldan bora bilmaslik – shaxsiy ojizlik alomati. Masalan, nega odamlar o'z niyatiga erishish uchun, kimgadir pora beradi. Poraxo'rlik avj olishida pora beruvchining hissasi ko'proq bo'ladi. Chunki u o'z shaxsiy ojizligi sabab, maqsadiga to'g'ri yo'ldan bora olishiga ko'zi yetmaydi, o'z imkoniyatlariga – o'ziga ishonmaydi.

Bunday odamning jazosi o'zi bilan. U har qancha maqsadiga erishib ham, o'zini baxtli va xotirjam his qilmaydi. Va u o'z shaxsiy ojizligi sabab ko'p narsa yo'qotadi. Aytaylik, bir yigit pora berib, oliyohoga shartnomaga asosida o'qishga kirdi. Shaxsiy ojizlik sabab, u endi oliyohda o'qiy ham olmaydi va pora berib, fanlardan baho oladi. Natijada u ham poraga, ham shartnomaga pul sarflaydi – va oliyohni hech qanday bilim olmasdan bitiradi. Bunday holatni men "yirik hisobda yutqazish" deb atayman.

Yuqoridagi kabi insonlarni yomon deb bo'lmaydi. Ular, shunchaki, ojiz odamlar. Ularni qoralash ham, ayblash ham – ularga achinish ham kerak emas. Ularga nisbatan bizda hech qanday salbiy munosabat bo'lmasligi kerak. Chunki biz ham oddiy odammiz – bizning ham ko'plab nuqsonlarimiz bor. Biz ham kamchiliklardan holi emasmiz. Undan keyin – kuchli shaxs hech qachon boshqa shaxslarni ojizligi uchun qoramaydi.

Odamlarni yaxshi-yomonga ajratish – muhimlik belgisi. O'ylaymanki, shaxsiyattingizni siz muhimlik kasalidan davolab ulgurgansiz. Yaxshi inson bo'lish haqida qayg'urish kerak emas – chunki "yaxshi odam" degan tushunchaning o'zi mavhum. O'z shaxsiyattingizni jamiyat chizib bergen "yaxshi odam" qolipiga solishga urinmang. Chunki jamiyatning

“yaxshi” va “yomon” qoliplari tinimsiz o’zgarib turadi. O’zingiz bilan uzoq kurashdan so’ng, yaxshi odam qolipiga kirganingizda – jamiyat yangi qolipni o’ylab topgan bo’ladi. Bu ham “yirik hisobda yutqazish” bo’ladi.

Bunyodkor odam bo’lib, bunyodkor ishlar qilish haqida qayg’urgan afzal. Buning uchun esa sizga birgina narsa – shaxsiy kuch kerak. To’g’ri – moddiy kuch ham zarar qilmaydi: tanangizni chiniqtirsangiz, obro’ va boylik orttirish uchun harakat qilsangiz, bilim oviga chiqsangiz – buning hech bir zarari yo’q. Lekin shaxsiy kuch sizning eng muhim o’ljangiz bo’lishi lozim. Moddiy kuch to’plash yo’lida xotirjam va baxtli yashash uchun sizga aynan shaxsiy kuch kerak bo’ladi.

Asosiysi, moddiy kuch ortidan quvish uchun, shaxsiy kuchdan voz kechib, oxir oqibat yirik hisobda yutqazmaslik. Shaxsiy ojizlik – bizni “yomon” odamlar sirasiga qo’shamiz. Shaxsiy ojizlik bilan biz buyuk yolg’onning bir qismi – buzg’unchi bir qismiga aylanamiz. Shaxsiy ojizlikning yomonligi ana shunda.

Mazmunli jonzot

Yaxshi-yomon haqidagi yolg’onga ergashib, bizda bir zararli odat avj oladi: biz o’z borligimizga asos qidiramiz. Odamzod o’z mavjudligini ahamiyatsiz, oddiy holat deb qabul qila olmasligiga sabab – mazmunsiz hayot yomon, mazmunli hayot yaxshi deb bilishidir.

Ammo biz o’z borligimizga muhimlik tusini berishga qancha harakat qilmaylik, tabiatda bir sir o’zgarmas qoladi – **dunyoda hech narsa mazmunga ega emas**. Inson mazmunli yoki mazmunsiz hayot yashab o’tmaydi – inson oddiy hayot yashab o’tadi.

Umrдан mazmun izlash – muhimlik belgisi. Jamiyat yoki shaxsiy komplekslar ta’sirida aql hayotga mazmun berishga urinishi insonning insoniylik mag’rurligidan kelib chiqadi. Biz o’zimizni boshqa jonzotlardan muhimroq deb bilganimiz uchun, bu dunyodagi tutgan o’rnimizga ortiqcha ahamiyat beramiz.

Tabiatni xolis kuzatsangiz, unda mazmunga ega hech narsa topa olmaysiz. Yirtqichning o’ljasini tutib yeyishida hech bir chuqr ma’no yo’q. Trillionlab jonzotlar tug’iladi, yashaydi va bu dunyoni tark etadi.

Ularning bu hayotida alohida bir ahamiyat yoki mazmun yo'q: ular yaxshi yoki yomon hayot yashamaydi. Ular, shunchaki, yashaydi.

Odam ham xuddi shunday: bizning borligimizdan ham qandaydir bir yashirin ilohiy maqsad yoki mazmun mavjud emas. Yashashning yashashdan boshqa ma'nosi yo'q.

Menga mazmunli hayotni ta'riflab bera olasizmi? Ilm cho'qqilarini egallab, olamshumul kashfiyotlar qilib yashash mazmunli hayotmi? Balki, xudoni tanishga intilib, avliyonamo hayot tarzini yuritish mazmunliroqdir? O'zidan moddiy yoki ma'naviy meros qoldirmagan odam hayotini chindan ham mazmunsiz deyish mumkinmi? Bunday odam yomon hayot yashadi deya olamizmi?

Odam yaxshi yoki yomon yashamaydi. Odam kuchi yetgan, o'zi uddalagan usulda yashaydi. Odam shaxsiy kuchi imkon bergen darajada baxtli yashaydi. Bunda kuchi ko'plar muhimlikka berilmasdan, xotirjam yashashni tanlaydilar; bunda ojizlar kompleks va yolg'onlar ta'sirida kurashish va bir umr o'z hayotlarini mazmunli qilishga intilishni tanlaydilar. Bu tanlovda ham hech bir ma'no yo'q – bu, shunchaki, bir tanlov.

Bu gaplarim sizda norozilik uyg'otayotgan bo'lса – demak, siz hali ham muhimlik ta'siridasiz. Hayotingizga sun'iy muhimlik berib, dunyoga shunchaki kelmaganingizni ta'kidlashga sizni nima majbur qilayotganini yaxshilab tahlil qilib ko'ring.

Yaxshi-yomon o'yini biz – odamlarga o'zimizni boshqa jonzotlarga taqqoslashga, bu qiyoslashda o'zimizni yuqori hisoblashga imkon beradi. Odamlar hayvonlarni "yomon" deb bilgani uchun, bir-birini haqorat qilish uchun shu hayvon nomlaridan foydalandi.

Ammo endi siz bu dunyoda ustun-quyi, yaxshi-yomon mavjudot yo'qligini bildingiz. Endi sizda insoniy g'ururga berilish, o'z borligingizni olamshumul bir hodisa ekanini aytib, olamga jar solish ilinji yo'q.

Agar odamzod shunchalik muhim mavjudot bo'lganda – uni Xudo birinchi bo'lib yaratmas edimi? Yetti iqlimdagi borki tirik jon paydo bo'lgandan keyingina odamzod vujudga kelgan – bu ham bizga kamtar bo'lishga, o'z borligimizga ortiqcha baho bermaslikka bir ishoradir, balki?

Odamlar o'zlarini aldashni bunchalik yaxshi ko'rishlariga sabab nimada ekan? Biz nimaga o'zimizga o'zimiz, atrof dunyo, butun borliq haqida tinimsiz yolg'on gapiramiz? Buyuk yolg'on ta'sirida uzoq muddat yashab, shunday odad chiqarganmizmi, deyman.

Men o'zim uzoq muddat o'zimni aldab yashaganman. Shaxsiyatim, uni hayotda tutgan o'rni, borligim mazmuni haqida o'ylashni, jiddiy savollar berishni erta boshlaganman. Balog'at yoshimgacha hayotimdan mazmun topishga – topa olmasam, uni o'zim yolg'onдан yaratishga uringanman. Va bu muhimlik uchun baxtsiz hayot kechirganman.

Bunday tajriba har kimda bor. Men bu borada hammadan boshqacha emasman – har kim umrining boshida "hayot mazmuni" qopqoniga bir marta tushadi va azoblanadi. Bu ham yaxshilikka – biz shu bahona o'zimizga jiddiy savollar beramiz va javob izlaymiz. Ammo, afsuski, javob topishga kuchimiz yoki ahdimiz yetmasa – o'zimizga yolg'on javoblar o'ylab topamiz.

Mana endi "hayot mazmuni" mavzusidagi izlanishlaringizdan "yaxshiyomon" omilini chiqarib tashlang. Hammasi ancha soddalashadi va oydinlashadi. Siz aslida oddiy bo'lgan go'zal hayotga majburlab mazmun pardozini berishga uringaningizni anglab yetasiz.

Hayotda mazmun yo'q degan ta'kidimni kimdir maqsadsiz hayotdek tushunishi mumkin. Yashashdan maqsad bor – bu baxtli yashash. Bizning hayotimiz mazmunli bo'lishi kerak emas – baxtli bo'lishi kerak. Aslida ahamiyati nolga teng hayotga mazmun bag'ishlashga intilish muhimlikdan kelib chiqadi va bizni ko'ngil xotirjamligidan ayiradi.

Hech e'tibor bergenmisiz: "mazmunli" hayot tarzini yuritganlarning har doim dushmani bo'ladi. Bunga sabab nima deb o'ylaysiz? Nega mazmunli hayot yashashdek oliy yo'ldan borayotganlarga qarshi chiquvchilar ko'p bo'ladi? Hasadgo'ylar ko'pmikan dunyoda shunchalik?

Gap hasadda emas. Gap "mazmunli" hayot egasining muhimligida. U to'g'ri yashash tadbiriga qancha katta ahamiyat bersa, atrof muvozanatni shuncha buzaveradi. Muvozanat buzilishiga esa atrofdagilar, tabiiyki, qarshilik bilan javob qaytaradi.

Men yuqoridagi ta'kidlarim bilan odam ilm izlashdan qaytishi kerak demoqchimasman. Ilm bizning shaxsiy o'sishimizga xizmat qiladi. Faqat bunda mazmun topishga urinmaslik kerak.

Qaytanga, qancha ko'p narsani bilsak, bu dunyoda tutgan o'rnimizni shuncha yaxshi anglab boramiz. Bu esa bizga atrof dunyo bilan kelishib yashashga, hayotni mazmun uchun kurashga aylantirmaslikka imkon beradi.

Atrof-dunyoni o'rganing, yovvoyi tabiatdagi hayotga qiziqing. O'z tanangiz, ongingiz va qalbingizdagi jarayonlarni tushunishga, ularga to'g'ri baho berishga intiling. Bu intilishlaringizga muhimlikni aralashtirmang – toki u har narsadan mazmun izlab, ishning beliga tepmasin.

Dunyodagi har qanday jonzot hayotini hurmat qiling, tabiatni sevishni o'rganing. Tabiat – har qancha mehrga arziydigan go'zallikka ega. Uning aqlni shoshiradigan mo'jizalari juda ko'p. Dunyoga "insoniylik g'ururi" degan shohsupa ustida turib nazar tashlaganlar tabiatning har qanday go'zalligidan mahrumdirlar.

Insoniy manmanlik – yaxshi-yomon haqidagi yolg'ondan kuch oladi. Endi siz bu yolg'ondan – buning yolg'on ekanidan boxabarsiz. Shunday ekan, g'urur va manmanlik shaxsiyattingizni ojiz qilishiga, ko'nglingizdagi tinchlikka raxna solishiga, sizni mazmunli – lekin baxtsiz mavjudotga aylantirishiga imkon bermang.

SESHANBA

Muhimlik

Daraxtdagi maymunlar

*"To'qayga o't ketsa,
ho'l-u quruq teng yonadi"*

(O'zbek maqoli)

An'anani buzmagan holda, sizga ertak aytib beraman.

Ulkan va go'zal chakalakzorda ajoyib ziyrak maymunchalar yashar ekan. Ularning o'rmonida turfa xil daraxtlar o'sar ekan. Avvaliga maymunchalar yerda yashashga odatlangan ekan. Ular ulkan daraxtlarga qo'rquv bilan qarab, ularga tirmashishga hadiksirar ekanlar.

Ammo vaqt o'tib, maymunlar o'z qo'rquvini yengib chiqib, astasekin daraxtlarga tirmasha boshlabdi. Ulardan ba'zilari qo'ng'ir po'stloqli bir tekis o'sgan daraxtlarga chiqsa, boshqalari sariq po'stloqli shohlarini har tomonga tarqatib o'sadigan daraxtlarga chiqib ko'ribdi. Maymunlar daraxtlarda qorin to'yg'azish mumkin bo'lgan turli-tuman mevalarni topishibdi. Bora-bora maymunlar daraxtlarni o'z uylariga aylantirib, yerga deyarli tushmaydigan bo'libdilar.

Sariq daraxtlarni makon qilgan maymunlar qo'ng'ir daraxtdagi maymunlar bilan hech chiqishmas ekan. "Bizning daraxtlar keng va sermeva. Ularning shohlari ko'p va barglari keng – hammaga joy yetadi. Sizning daraxtingizda esa deyarli shoxlar yo'q – unda yashash juda qiyin. Sizlar noto'g'ri daraxtda yashayapsiz" deyishar ekan ular. Bunga qo'ng'ir daraxtlarni maskan qilgan maymunlar "To'g'ri, bizning daraxtimiz yashashga noqulay. Lekin u mustahkam va baland. Uning ustida biz uzoq-uzoqlarni ko'ra olamiz. Ustiga-ustak, bunday balandlik bizni ko'p yirtqichlardan omon saqlaydi" deb javob berishar ekan. Bora-bora bu ziddiyat ochiqchasiga adovatga aylanibdi.

Ammo bir kun o'rmonga chaqmoq urib, yong'in chiqibdi. Bu yong'inda qo'ng'ir daraxtlar ham, sariq daraxtlar ham omon qolmabdi. Talvasaga tushgan maymunlar daraxtlaridan tushib, o'rmondan qochish bilan o'z jonlarini saqlab qolishibdi. Va ular aslida hamma daraxt yerda o'sishini, qachonlardir ular ana shu yerdan panoh topib yashashganini eslabdilar. Ular o'rtasidagi bo'linish va adovat sun'iy ekani fosh bo'lib, ular yana ahil-inoq yashay boshlashibdi...

Biz bu dunyoga u haqida ko'p narsani bilmay kelamiz. Hayot bizga aynan bu dunyoning sirlarini o'rganish uchun beriladi. Kimdir bu dunyoga kengroq nazar tashlash uchun ilm-fan daraxtiga tirmashsa, kimdir bunda o'ziga din daraxtini tanlaydi.

Bunda noto'g'ri tanlov bo'lmaydi. Har qanday daraxt insonni buyuk yuksakliklarga olib chiqishi mumkin. Ilm-fan ham, din ham odamni bu dunyoni yaxshiroq anglashiga, o'zining bu dunyoda tutgan o'rniga odilroq baho berishiga yordam bera oladi. Har qanday daraxtni tanlagan odam ham adashmaydi.

Lekin ko'pchilikning o'z tanloviga bo'lgan munosabati muhimlik sabab noto'g'ri tomonga og'ib ketadi. Ular o'z tanlovlari ahamiytaini oshirib yuborishadi. Natijada ularda o'zları tanlagan daraxtni boshqa daraxtlardan ustun qo'yish istagi alangananadi. Muhimlik sabab, ular hayotlari boshida yerda yurgan maymuncha bo'lganini unutishadi (odamni maymunga tenglashtirganim qaysidir daraxtga chiqib olib, o'z haqligi haqida olamga jar solayotgan odamlar shaxsiyatiga tegishi mumkin – ammo ular o'zlarini bu dunyodagi boshqa mavjudotlardan yuqori hisoblab, maymunga tenglashtirilishdan hazar qilsa, bu ularning muhimligidan darak).

Biz o'zimiz tanlagan daraxtga ba'zan shu qadar berilib ketamizki, boshqa daraxtlar haqida unutib qo'yishimiz mumkin. Ba'zan dinga mukkasidan ketib qolgan odam din daraxti barglari orasidan turib, tashqi dunyoni ko'ra olmay qoladi. Ular bu so'qirlikda shu darajaga borib yetishadiki, ilm-fanni tamoman inkor qilishga o'tishadi. Aynan ilm-fan yaratgan chiroqlar yorug'ida diniy kitoblarini o'qishayotgani, ilm-fan yaratgan darmonlar xastalik qiynaganda jonlariga oro kirishi yodlaridan chiqadi.

Ilm-fan daraxti vakillari orasida ham aqlning ustuvorligini ta'kidlab, o'z ilmiy farazlari orasida tashqi dunyodan uzilib qolganlari ko'p uchraydi. Ashaddiy fanparastlar dinni tamoman rad etishadi. Lekin ular ham chorasiz vaziyatlarda e'tiqoddan taskin topishadi.

Har qanday daraxtda boshqa daraxt vakillarini qoralovchilar va ulardan nafratlanuvchilar bor. Ilm-fan daraxtida e'tiqod sof psixologik jarayon ekanini ta'kidlab, ko'r-ko'rona ilohiy kuch mavjudligiga ishongan din daraxti vakillarini ahmoqlikda ayblaydiganlar bor. Din daraxtida Darwin ta'lomoti bo'yicha o'zini maymun avlodi va evolyutsiya natijasi deb biladigan ilm-fan tarafdarlarini o'zbilarmon dahriy deb qoralaydiganlar bor. Bunday holat shaxsiy muhimlik sabab kelib chiqadi.

U yoki bu daraxt vakillari jamiyatda ko'proq qudratga ega bo'lib qolsa, darhol boshqa daraxt vakillariga bosim o'tkaza boshlaydi. Tarix bunga juda ko'p isbot keltirgan. O'rta asr Yevropasida ilm-fan daraxti vakillari Vatikan tomonidan quvg'in qilinib, o'zlari va asarlari olovda yondirilgan. Sobiq ittifoq davrida esa kommunizm qurish vaji bilan ilm-fan daraxti vakillari din daraxtini tag-tomiri bilan yo'q qilishga uringan. Muhimlikka berilgan ilm-fan yoki din vakillariga qudrat berilsa, odamzod boshiga ana shunday ofatlar keladi.

Ilm-fan va din daraxtlari o'rtasida yana bir daraxt bor. Uning vakillari uncha ko'p emas – chunki bu daraxt din yoki ilm-fanchalik katta daraxt emas. Bu daraxt ilm-fan va din daraxti urug'lari birlashishidan unib chiqqan. Bu – falsafa daraxti.

Falsafa ham shunchaki bir daraxt – uning boshqa daraxtlardan hech bir ustunligi yo'q. Uni tanlagan va muhimlikka berilmagan insonni u ham yuksaklarga olib chiqadi. Muhimlikka berilgan odamni esa, u ham nafratga o'ch kurashchiga aylantiradi.

Falsafa daraxti ilm-fan yoki din daraxtichalik baland emas. Uning vakillari yerga yaqin yashashadi. Ular moddiy boylik va qudrat ortidan quvmaydi, birovlar bilan bellashmaydi. Shuning uchun ularning ko'pchiligi insoniyat tirmashib olgan daraxtlar hammasi bir yerda o'sishini, ularning asosi bitta – inson tafakkuri ekanini yaxshi bilishadi.

U yoki bu daraxt vakili bo'lish – tobeklidir. Ilm-fan yoki dinni o'z hayoti mazmuniga aylantirgan odamlar qanchalik o'z daraxtlariga qaram

bo'lishlarini tasdiqlovchi misollarni har kim keltira oladi. Eng katta tobelik shundaki, har qanday daraxt odamga dunyo haqidagi bilimlarni yaxshiyomon, to'g'ri-noto'g'rige ajratib o'rgatadi. Odamda nima bunyodkor kuchga ega-yu, nima vayronkor ekanini o'zi mustaqil hal qilish imkoni bo'lmaydi. U o'z daraxti belgilab qo'ygan haqiqatlar asosida yashashga majbur.

Kuchli shaxs bo'lish – erkinlikni talab qiladi. Ammo u yoki bu daraxtga mahkam o'rnashib olgan odamni erkin deb bo'lmaydi. Erkin odam istagan payt o'z daraxtidan tushib, boshqa daraxtlarni ham ko'ra oladi. U hech qachon o'z shaxsiyatini faqat bitta daraxtga bog'lab qo'ymaydi. Erkin odam yerda yashashni ham biladi.

Bir kun kelib, hamma ulkan daraxtlar qulasa, biz hammamiz bir xil ekanimiz, bir-birimizni qoralash va ayblashga – bir-birimizdan nafratlanishga hech qanday asos yo'qligi oshkor bo'ladi. Hammamiz yana yerda yashashga o'rganamiz. Hozir esa tanlagan daraxtimiz shoxlari orasida o'tirib, uning mevasini yeb, mevadan qolgan danaklarni qo'shni daraxtdagi turdoshlarimizga otishdan o'zimizni tiya olsak – tafakkurimizni o'zaro farqlarni topib, ularga asoslanib bir-birimizni yomon ko'rishga emas, umumiyligi jihatlarimizga e'tibor berib, bir-birimizni hurmat qilishga qaratsak – bunyodkor ish bo'ladi. Bu bilan insonlar ham, qancha adashmasin, bunyodkorlikda boshqa mavjudotlardan kam emasligini amalda ko'rsatgan bo'lamiz.

Tiltegmas muhimliklar

Yaxshi-yomon o'yiniga odam qanchalik mukkasidan ketishi uning ichki va tashqi muhimligiga bog'liq. Muhimlik bizga yaxshini yomondan "tezroq" va "yaqqolroq" farqlashni o'rgatadi. Muhimlikning gapiga kirib biz kimnidir ulug'laymiz, kimnidir kansitamiz.

Ilohiylashtirish – har zamonda katta ofat bo'lgan. Aslida qadri teng bo'lgan dunyoning tarkibiy qismlariga haddan ziyod ortiqcha ahamiyat berishdan kelib chiqadi bu holat. Har kimda bunga moyillik bor – chunki har birimizda aql bor. Aql hissiyotlar junbishga kelganda zavq oladi.

Shu o'rinda hissiyot (emotsiya) va tuyg'ular o'rtasidagi farqni aniqlab olsak. Hissiyot – asab tizimining ishi tashqi yoki ichki ta'sir natijasida junbishga kelgan holat. Bunda tanadagi tabiiy jarayonlar buziladi, turli hissiyotda turlicha moddalar ishlab chiqariladi va asab tolalarini "qitiqlaydi". Bunda tana katta quvvat sarflaydi – buni kuchaygan terlash, titroq yoki sovuq ter sifatida bilish mumkin. Emotsiyalar qisqa muddatli holatdir – chunki tana uzoq muddat bunday holatga chiday olmaydi va bu holatdan o'zini olib chiqishga intiladi. Tabiiy holatda hissiyot hech qachon yuzaga kelmaydi – uni faqat aql paydo qilishi mumkin. Agar tana hissiyotni o'z vaqtida bostira olmasa, immunitet odamni hushsizlantirib, quvvat sarfini to'xtatishga majbur bo'ladi.

Hissiyot o'z kelib chiqishi va kechishiga ko'ra aqliy-jismoniy jarayon. Tuyg'u esa ko'proq ruhiy-jismoniy holat. Tuyg'u doimiy yoki, kamida, uzoq muddatli bo'ladi. Tuyg'ular tabiiy asosga ega bo'lib, odamga tirik qolishga va nasl qoldirishga imkon beradi.

Sevinch, g'azab, hayajon, achinish – muhimlikdan kelib chiqadi. Ularni aql paydo qiladi. Ochlik, to'qlik, qo'rquv, qoniqish, xotirjamlik, mehr, baxt – tuyg'ular. Ular aql nazoratidan tashqarida. Aql insonda hadik uyg'otishi mumkin – lekin qo'rqita olmaydi. Aql insonni sevinchdan mast qilishi mumkin – lekin baxtli yoki xotirjam qila olmaydi. Aql insonga ilohiyashtirishni o'rgatishi mumkin – lekin mehribon bo'lismeni o'rgatmaydi.

Ilohiylashtirish obyekti turlicha bo'lishi mumkin. Kimdir pulni va, umuman, moddiy manfaatni ilohiyashtiradi. Kimdir boshqa insonga ilohiyashtirish darajasida ortqicha ahamiyat beradi. Ma'naviy narsalarni – masalan ilmni ilohiyashtiradiganlar ham bor.

Moddiy narsani ilohiyashtirish natijasi hammamizga ravshan. Bunda odam moddiy boylik yoki moddiy qudrat uchun o'z tinchidan voz kechadi. Bunday odamlarga ularning ilohlari bo'l mish boylikka intilmagan, uni hurmat qilmaganlarga g'azab bilan qarash odat bo'lgan. Ular boylikka ega bo'l maganlarga achinish yoki kamsitish bilan qarashga o'rganishgan. Bunday odamlarni "pul hamma narsani hal qiladi", "puling bo'lmasa, hech kim emassan", "nochor bo'lsang, bunga o'zing aybdorsan" kabi ta'kidlar orqali tanib olish mumkin.

Shaxsni ilohiylashtirish ham qanday ofatli holat ekanini tarix ko'p marta isbotlagan. Qadimgi Misrda fir'avnlarni xudo deb bilingani-yu, o'z davrida Leninni dahoyi olam deyilgani bunga yaqqol misol.

Ilohiylashtirishning eng yaqqol belgisi – uning hech qanday tanqidga chiday olmasligidir. Odamga u ilohiylashtirgan narsa yoki shaxs haqida tanqidiy fikr bildirib ko'ring – uning eng katta dushmaniga aylanasziz. Chunki ilohiy narsa – tanqiddan yuqori turadi. Har qalay, ilohiylashtirishga moyil odam shunday deb o'laydi.

Ilohiylashtirish bugun ham keng tarqalgan ofat. Avliyolar, turli obidalar, ming yillik daraxtlar, terisida arabcha yozuvga o'xshagan dog'lar bilan tug'ilgan chaqaloqlar – yoki shunga o'xshashlarni ilohiylashtirish, afsuski, ko'p uchraydi. Bunday holatga, ba'zilar ta'kidlagandek ilmsizlik sabab emas. Ijtimoiy ahvoli juda joyida bo'lgan ma'lumoti oliy odamlar ham bunday muhimlikka berilishadi. Bu ilohiylashtirish odamning qanchalik muhimlikka beriluvchan ekaniga bog'liq ekanini – ilmlilik buni yenga olmasligini ko'rsatadi.

Avval aytganimdek, ilmning o'zini ham ilohiylashtiradiganlar bor. Ular ilmsizlikdan va ilmsizlardan hazar qilib yashashadi. Bilimni ilohiylashtirish ortidan farzandlarini pora berib bo'lsa ham o'qishga joylayotganlar yoki bilimli bo'lish uchun ko'p insoniy jihatlarni qurbon qilayotganlar bunga misol. Ular aslida bilimni emas – u keltirishi mumkin bo'lgan moddiy qudratni ilohiylashtiradilar ammo buni o'zları bilmaydi yoki bilib turib tan olmaydi.

Navbatdagi ta'kid ilohparastlarda menga nisbatan kamida norozilik uyg'otadi. **Bu dunyoda hech narsa ilohiy emas.** Buni tushunish uchun muhimlikdan qutilish, dunyoga sergak nazar solish zarur.

Bu haqiqat biz ko'p marta takrorlaydigan so'zlarda aytib o'tilgan. Har safar kalimai shahodatni aytganimizda biz nafaqat bu dunyoda – mavjud hamma dunyolarda yaratuvchidan boshqa iloh yo'qligini ta'kidlaymiz. Biz ba'zida e'tiborsiz aytadigan ana shu jumlada buyuk – va juda ham oddiy haqiqat aytilgan: bu dunyoda hech narsa ilohiylashtirilish darajasida muhim emas.

Ilm-fanni ilohiylashtiradigan do'stlarimizga alohida ta'kid: fan hamma narsaga qodir emas. Bir vaqtlar ilojsiz narsalar bugun fan tufayli amalga

oshganini bahona qilib, ilm-fanni ilohiylashtirmang – chunki u ilohiy bo'lganda hamma narsani birdaniga kashf qilgan bo'lardi.

Dinni ilohiylashtiradigan do'stlarimizga ham alohida eslatma: din – ilohiy emas, uni bizga yo'riqnomalar qilib bergan yaratuvchi qudrat ilohiy. Hech bir odam – xoh u shayx bo'lzin, xoh avliyo – ilohiy emas, barchamizni oddiy odam qilib yaratgan qudrat ilohiy.

Muqaddas kitoblar bitilgan oliy sifat qog'oz va hayvon terilari ilohiy emas – ular bizga aytayotgan haqiqatlar ilohiy. Chunki ofat kelsa, u kitoblar yonadi, ammo ular aytgan haqiqatlar hech qachon yo'qolmaydi. Shu jumladan bu dunyoda hech narsa ilohiy emasligi haqidagi haqiqat ham. Bu haqiqatlarni qog'ozga ko'chirib, g'ilofga solib, bizga sotilayotgan tumorlar ilohiy emaski, bizni omon saqlab, murodimizga yetkazsa - u haqiqatlarni anglab yetib, qalbimizga ko'chirsakkina, ular o'z ilohiy kuchini ko'rsatadi.

Tog'-u toshlar orasida yashaydigan avliyo sizga baxtga yoki sog'likka erishish uchun bir duoni kuniga yuz marta qaytaring desa-yu, hammasini qilib ham, siz o'zingizni baxtli his qilmasangiz – yangi topgan avliyongizni yoki o'zingizni ayblamang. U yoki bu duo so'zlari ilohiy emas – ularning ma'nosi, sizga yetkazmoqchi bo'lgan fikri ilohiy. Ana shu ma'noda sizga baxtli bo'lish siri aytib qo'yilgan. Nafshi tiyilsa, ozoda yurilsa, muhimlik va ayirmachilikka berilib, odamlarga zulm qilinmasa – ana shunda odam betashvish va dardsiz yashashi haqida aytilgan ana shu yuz marta qaytarayotgan duolaringizda. Moddiy vositalar emas, yaratuvchi kuchga iloh deb qarash, undan madad kutish, uning mehrini bilib yashash baxtga eng to'la hayot ekani ochiq-oydin aytib qo'yilgan siz o'pib, kuzlaringizga to'tiyo qilayotgan ana shu yozuvlarda.

Hammamiz oddiy odammiz, hamma narsa oddiy narsa, har qanday voqeа oddiy hodisa. Muhimlik bizni aslida oddiy bo'lgan narsalarni ilohiy deb bilishga majbur qiladi. Agar uning bu nayrangiga uchsak, aslida ilohiy bo'lgan haqiqatlardan uzoqlashamiz. Asl haqiqatlardan uzoqlashgan odam esa o'zligidan va o'z yaratuvchisidan uzoqlashadi. Haqiqatga erishish yo'lingizni, bunda sizga yo'l ko'rsatgan shaxslar va vosita bo'lgan narsalarni ilohiylashtirsangiz – haqiqatdan yiroqlashasiz. Bu har kimning o'z tanlovi.

Qani endi yer yutsa

Ilohiylashtirish va uning oqibatlari bilan tanishib oldik. Keling, endi uning aksi bilan tanishamiz.

Muhimlik eng junbishga kelgan holatlardan biri – nafratdir. Bu his hammamizga tanish. Har birimiz kamida bir marta bo'lsa ham kimdandir yoki nimadandir nafratlanganmiz.

Xuddi mehrga tayinli ta'rif berib bo'limganidek, nafratga ham aniq bir izoh berish qiyin. Bir so'z bilan aytganda, nafrat – dunyoda bizga yoqmagan narsani o'zgartirishga bo'lgan kuchli buzg'unchi xohishni ifodalovchi hissiyot.

Nafratning ortida ham ko'rinas boshqaruvchi bo'lib yaxshi-yomon o'yini turadi. Biz aynan yomon deb bilgan narsalardan nafratlanamiz, yomon deb bilgan odamlarni qahrimizga duchor qilamiz.

Ammo nafrat muhimlik ishtirokisiz paydo bo'lmaydi. Aytaylik, men juda ko'p narsalarni yomon ko'raman. Lekin ularning hammasidan nafratlanmayman. Nega? Chunki ularning hammasi har xil ahamiyatga ega. Uncha muhim bo'limganiga men shunchaki g'ashlik bilan munosabat bildirsam, o'ta muhim bo'lgani menda ashaddiy nafrat uyg'otadi.

Siz nimalardan yoki kimlardan nafratlanasiz? Ulardan nima uchun nafratlanasiz? Balki, siz ana shu nafratlanayotgan narsa yoki shaxslarga o'ta katta ahamiyat berib yuborgandirsiz? Bu yuzaki savollar emas – ular ustida bir oz o'ylab ko'ring.

Odam har doimiy uning muhimligiga tegadigan narsalardan nafratlanadi. Mening g'ururimga, nafsoniyatimga, obro'yimga yoki hurmatimga tegadigan gaplarni gapirgan odam nafratimga ega chiqadi. Biz har doim shaxsiy muhimlik tuyg'uyimizga tegadigan odamlardan nafratlanamiz.

O'z nochorligidan muhimligi ezilib yurgan kambag'al unga ana shu nochorligi haqida eslatgan boydan nafratlanadi. Boy unga mutlaqo hech narsa qilmagan bo'lsa ham – u o'z to'kin hayoti bilan bechoraning shaxsiy muhimligiga zarba beradi.

Psixologiyaning oltin qoidasi bor: har kim o'z ojizliklari haqida eslatgan odamlarni yomon ko'radi. Bu qoidani batafsil tushuntirishimdan oldin ogohlantiray – u sizga yoqmasligi mumkin. Chunki uning o'zi ham sizga ojizliklaringiz haqida eslatadi.

Masalan, ich-ichida o'zi qo'rqaq bo'lgan odam boshqa qo'rqaq odamlardan nafratlanadi. Ularni ko'rganda astoydil unutishga harakat qilgan kamchiligi esiga tushadi va kompleksi bir qo'zg'alib qo'yadi. Kompleks to'poloni esa hech kimga yoqmaydi.

Ilmi past odam ilmsizlardan nafratlanadi. E'tiqodi zaif odam dinsiz yoki g'ayridinlardan nafratlanadi. O'z xatolaridan qochib yurgan odam o'zgalar xatosidan va xato qilganlardan nafratlanadi. O'z kamchiligidan nafratlangan odam boshqalar kamchiligidan nafratlanadi. **O'zidan nafratlangan odam boshqalardan nafratlanadi.**

Nafrat – buzg'unchi tuyg'u. Nafrat ustida qilingan ish hech qachon bunyodkorlikka olib kelmaydi. Nafrat birinchi o'rinda o'z egasiga zarar yetkazadi. Nafratlangan odamning oshqozoni ko'p va kuchli kislota ishlab chiqaradi – natijada ovqat hazm qilish jarayoni izdan chiqadi, qon sifati buziladi. Shu bois nafratga moyil odamlarning yuzlari sovuq tus oladi. Bundan tashqari, nafrat, har qanday kuchli hissiyat singari, asab tizimiga katta bosim o'tkazadi va uni charchatadi.

Nafratning ko'zi ko'r bo'ladi. Biz nafratlangan odamimizni odilona baholay olmaymiz. Bizning nafratimizni qo'zg'agan uning bir jihatni boshqa ijobiy xislatlarini bizdan to'sib qo'yadi. Vaholanki, biz nafratlangan bezori aslida juda e'tiborli va mehribon bo'lishi mumkin. Siz nafratlangan g'ayridin ham ko'ngli toza shaxs bo'lishi mumkin. Siz nafratlangan ilmsiz aslida beg'araz inson bo'lishi mumkin.

Nafratning yana bir zarari bor: nafrat nafratni keltirib chiqaradi. Biz juda ko'p hollarda nafratimizga nafrat shaklida javob olamiz. Nailoj, muhimlik hammaning yelkasiga mahkam minib olgan – kim ham unga nafrat bildirgan odamni osongina kechirib, unga mehr ko'rsatmasa ham, javob nafrat qaytarishdan tiyila olardi.

Kim bo'lardi – sergak odam shunday qiladi. Sergak odam kimningdir nafrati unga zarar yetkazmasligini biladi. Sergak odam nafrat ko'rsatayotgan odam bu ishi bilan o'z ojizligini tan olayotganini anglab

turadi. Nafrat egasi o'z-o'zini ado qilayotganini tushunadi va uning shu "bunyodkor" ishiga xalal bermaslik uchun jimgina o'girilib ketaveradi.

Nafratdan holi odam – erkin odamdir. Agar men nafratlanishga moyil bo'lsam – meni boshqalar o'z izmiga oson soladi. Boshqalar o'z maqsadlarini mening nafratim qog'oziga o'rab ko'rsatsa bas – men shu maqsad yo'lida jonimdan kechishga tayyor bo'laman.

Tarixda bir xalqni boshqa xalq ustiga bostirib borishga ko'ndirishda podsholar ba'zida nafratdan foydalangan. Juda ko'p hollarda nafrat katta harbiy guruhlarni jipslashtirib turadigan kuch bo'lган. Masalan, qadimgi Rimda qo'zg'olon boshlagan qul Spartak cho'rilarining o'z xo'jayinlariga bo'lган nafratlari orqali ulkan armiya tuzgan. Butun Rimni junbishga keltirgan bu qo'zg'olon eng boshida juda katta yutuqlarga erishgan. Chunki qo'zg'olon boshlanganda qullardagi nafrat darajasi juda yuqori bo'lган va ular Spartakning ortidan yurib, jon olib jon berishgan.

Ammo vaqt o'tib, erkin hayotga ko'nikkandan so'ng, ular xo'jayinlaridan ko'rgan zulmlarini asta unuta boshlashgan va ulardagi nafrat zaiflashgan. Shu bilan birga armiyaning harbiy kuchi ham susaygan. Natijada to'da ikkiga bo'lingan. Bu paytga kelib, qo'zg'olonchi qullar dastidan ancha aziyat chekkan zodagonlar ham yagona nafrat ostida birlashgan. Ana shu nafrat kuchiga tayangan Rim armiyasi ikkiga ajragan qo'zg'olonchilarni birma-ketin yo'q qilgan.

Bu nafrat alangalari ichida qullar orasidan ham, oddiy rimliklar orasidan ham mutlaqo nafratsiz yashaydigan minglab begunoh odamlar yonib ketgan. Spartakning nafratga tayangan "erkinlik" uchun jangi ana shunday oqibatlarga olib kelgan.

Yuqoridagi kabi misollarda nafrat asoslidek tuyiladi. Uni qul qilib ishlatgan, unga zulm qilgan odamlardan Spartak nega nafratlanmasligi kerak? Demak, ba'zi hollarda nafrat o'zini oqlar ekan-da?

Hech qanday nafrat o'zini oqlay olmaydi. Har qanday vaziyatda odamda tanlash imkonи bo'ladi: nafrat hech qachon yagona tanlov emas. Sovuqqonlik bilan o'ylab ko'rilsa, Spartak ham o'z vaziyatini nafratsiz ham o'zgartirish yo'llarini topsa bo'ladi. Ammo u aynan nafratni tanladi – va bu tanlovi uchun joni bilan javob berdi. Unga qo'shilganlar ham nafratni tanladi va ular ham bu tanlovlari uchun jonlari bilan tovon

to'ladilar. Bularning boshida esa zodagonlarning qullarga bo'lgan nafrati turgan – rimliklar o'z xizmatkorlariga kamroq nafrat ko'rsatishni tanlashganda, bu balolar yuzaga kelmas edimi...

Shaxsiy hayotimizda ham har birimiz qaysidir vaziyatlarda nafratni tanlab, shu tanlovimiz uchun katta haq to'lab yashaymiz. Nafrat badalini sog'ligimiz, ko'nglimiz va uyimiz tinchligi bilan, yaqinlarimiz farovonligi bilan to'laymiz. Bu tanlov qimmatga tushmayaptimikan?

Keyingi gal “qani edi shularni yer yutsa” deyishdan oldin o'ylab ko'ring: shularni chindan ham yer yutsa, dardingiz ariydimi? Yo'q. Chunki dard siz yerga tiqayotgan ana shularda emas – sizning o'zingizda. U nafrat nomi bilan aqlingizning bir chetida o'tiribdi. Butun dunyoni yer yutsa ham, u o'ziga yangi o'lja topib olaveradi. Chunki uning kasbi shu. Maxluqni tinch tutish uchun unga qurbonlar berib turish yaramaydi – maxluqning o'zini yo'q qilish kerak.

Kasb tanlash

Menga murojaat qiladigan yoshlarning aksari bir muammoga duch kelganini aytadi: ular o'zlariga mos kasbni tanlay olmay qiynaladilar. Shu bois men kasblar va ularning mohiyati haqida alohida bob yozishga qaror qildim. Bu bob muhimlik haqidagi bo'lim ostidan joy olganiga hayron bo'l mang – bugun ko'pchilik aynan muhimlik ortidan ergashib kasb-kor tanlaydi.

Avvalo, mutaxassislik va kasb o'rtasidagi farqni aniqlab olaylik. Mutaxassislik – bu ilmiy yoki amaliy sohani har tomonlama o'rganishdan olingan bilimlar majmuyi. Kasb – mutaxassislik bilimlarini ishlatis, u yoki bu jarayonda ishtirok etish uchun odamga tayinlangan vazifalar to'plami.

Masalan, tilshunoslik – bu mutaxassislik. Bu soha vakili til, uning qoidalari, rivojlanish qonuniyatları kabi keng bilimlarga ega bo'ladi. Mana shu mutaxassis endi turli xil kasb egasi bo'lishi mumkin. U o'qituvchi, jurnalist, suxandon, yozuvchi, tahrirchi, tarjimon bo'lib ishlashi mumkin.

Bugun ko'pchilik mutaxassislik va kasbni ajrata olmaganidan noto'g'ri qarorlar qabul qiladi, noto'g'ri xulosalarga keladi. Natijada yoshlar mutaxassislikni mo'ljalga olyaptilar-u, kasbni hisobga olishmayapti.

Bugungi yoshlar iqtisodchiga biologiyani bilish kerak emas deganga o'xshash xato tushunchalar bilan ulg'aymoqda. Iqtisod sohasi mutaxassisbiologiyadan uzoq yuradi – bu to'g'ri. Lekin uning kasbi biologiyaga aloqador bo'lsa-chi? Masalan, iqtisodchiga dori-darmon ishlab chiqaradigan korxona ish taklif qilsa-yu, iqtisodchi kimyo va biologiyadan umuman bexabar bo'lsa – u bu tashkilotga bir tiyin ham foyda keltirmaydi, kasbiy rivojlanmaydi va tez orada uning bahridan o'tishadi.

Siz kelajakdagi kasbingiz qanday bo'lishini hisobga olib ish tuting. Odam qaysi mutaxassislik egasi bo'lsa ham, kasb-kor talabi bilan mutlaqo boshqa sohadan bilimlar olishga majbur bo'ladi. Shuning uchun mактабдаги барча фани яхши о'злаштириш керак.

Yoshlar u yoki bu kasb egasi aynan nima ish qilishini bilmaganliklaridan, kasb tanlashda qiynaladilar. Men sizga kasblarni mohiyatiga ko'ra guruhlarga ajratib ko'rsataman – qanday ish bilan kelajakda o'zingizni ta'minlashni esa siz tanlaysiz.

Birinchi guruh – bu **yaratuvchi** kasblar. Bu kasblar shajarasingning boshida turadigan mashg'ulot turlari. Bu kasblar tinch zamonda har doim kerak bo'ladi. Bu guruh kasblari o'z ta'rifiga monand mahsulotlar yaratadi. Oshpaz, quruvchi, muhandis, dehqon, haykaltarosh, kosib, chevar, dasturchi – yaratuvchi kasblarga misollar. Dunyoda minglab yaratuvchi kasblar bor va siz ro'yxatni o'zingiz davom ettirishingiz mumkin.

Yaratuvchi kasb egalari har yerda va har zamonda kerak odamlar. Biz iste'mol qiladigan, kiyadigan, ishlatadigan, ko'rib zavqlanadigan hamma narsalarni shunday kasb egalari yaratadi. Ularning orasida oziq ovqat sohasida yaratuvchanlik qiladigan (dehqonlar, bog'bonlar, chorvachilar) eng katta o'ringa ega. Sayyoramiz zaxiralari tugab, aholi oshib borgani sari, shu ko'payib borayotgan aholini boqadigan kasb egalarining qadri oshib boraveradi.

Ikkinci guruh – **xizmat ko'rsatuvchi** kasblar. Bu kasb egalari hayotimiz farovon bo'lishi uchun zarur xizmatlarni ko'rsatadilar. Shifokorlar, o'qituvchilar, savdogarlar, sartaroshlar, dizaynerlar, aloqa operatorlari, haydovchilar – bular xizmat ko'rsatuvchi kasbga misollar. Bu guruhda

ham minglab kasblar bo'lib, odam o'z qiziqishi va dunyoqarashiga mosini tanlab olishi mumkin.

Bugungi yoshlarda davlat tashkilotlarida ishlash manfaatliroq degan tushuncha bor. Davlat tashkilotlaridagi ko'pchilik mansablar xizmat ko'rsatuvchi kasb hisoblanadi, chunki bu tashkilotlar xalqqa xizmat ko'rsatish uchun joriy qilinadi. Agar odamlarga xizmat ko'rsatishga tayyor bo'lmasangiz – bunday tashkilotda ishlashni ko'zlamaganingiz ma'qul.

Uchinchi guruh – **boshqaruvchi** kasblar. Bu guruhga jamiyatda tartibni saqlab turish uchun ishlaydigan kasblar kiradi. Prezident, vazir, hokim, rais, prokuror, sudya, tergovchi, inspektor – boshqaruvchi kasblarga misollar. Bu guruh kasblari katta ruhiy va jismoniy zo'riqish, muddatsiz ishlash, boshqalar uchun javobgarlikni olishni talab etadi. Agar ana shu qurbanliklarga tayyor bo'lsangiz, shu turkum kasb egasi bo'lismeni ko'zlashningiz mumkin.

To'rtinchi guruh – **ijodkor** kasblar. Bunday kasb egalari nomoddiy (ma'naviy) boylik yaratish bilan shug'ullanishadi. Odam o'z xohshi bilan bu kabi kasb egasi bo'la olmaydi – ijodkor kasb egasi bo'lismeni uchun, odamda ma'lum iste'dodlar rivojlangan bo'lishi kerak. Yozuvchilar, shoirlar, musavvirlar, raqqoslar, bastakorlar – ijodkor kasb vakillari. Bunday kasb egalari aholining ma'naviy sog'lom, ruhan tetik bo'lishi uchun, madaniy va estetik muhitni boyitish uchun ishlaydilar.

Bunda bir narsani farqlash lozim: qo'shiqchi va sozandalar (san'atkorlarimiz og'izlarini to'ldirib "ijod qilyapmiz" deyishlariga qaramay) – ijodkor kasblar emas, balki xizmat ko'rsatuvchi kasblardir. Ijodni shoir va bastakorlar qiladi – xonanda esa shu ma'naviy mahsulotni xalqqa sotadi, xolos. Albatta, buning uchun ham iste'dod kerak. Buning uchun iste'dod bo'lishi shart.

Yana bir gap – jurnalistlar ham o'zlarini ijodkor kasb egalari deb bilishadi. Lekin jurnalistika o'z mohiyatiga ko'ra ijoddan holi, badiiy to'qima aralashmagan, odil va haqqoniy ma'lumot yetkazish sohasidir. Jurnalist – bu shoirtabiat, ta'sirchan nozikta'b ijodkor emas, jurnalist – bu sovuqqon, zehnli, hissiyotlarni aralashtirmay bor gapni boricha yoza oladigan odam.

Yana bir guruh kasblar bor – **zararkunanda** kasblar. Bunday kasb egalari jamiyatga foydadan ko'p zarar keltiradi. O'rtakashlar, dallollar, chayqovchilar (olib-sotarlar), reklamachilar (odamlarga kerak narsa reklamaga muhtoj emas) – bu kasb egalari boshqa kasb egalari yaratgan moddiy va nomoddiy boylikdan ulush olish hisobiga kun ko'radi. Bugun ularning orasida eng obro'si balandi – reklamachilar. Bu soha vakillari o'zlarini kim deb atamasinlar, ularning ishi bozorda sun'iy talab yaratish. Mahsulot odamlarga chindan kerakli bo'lsa, ishlab chiqaruvchi uni bozorga olib chiqsa bas – odamlar o'zi bilib olaveradi. Juda ko'p hollarda bizga kerak emas dori-darmon, buyumlar, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlarini aynan reklamachilar nayrangiga uchib sotib olamiz.

Yuqorida guruholangan kasblarning har biri o'z ornida jamiyatga kerak. Qaysi kasbni tanlasangiz ham, qiladigan ishingiz odamlarga amaliy foya keltirishini biling. Ana shunda daromadingiz ham halol va barqaror bo'ladi.

Kasb tanlashda uning yaxshi-yomonligiga qaramang – dunyoda yomon kasb yo'q. Zararkunanda kasblar ham boshqa ish qo'lidan kelmaydigan aholi qismini boqib turgani kerak. Ammo kuchli shaxs boshqalar hisobidan yashamaydi.

Kasbingizda yaratuvchanlik, xizmat ko'rsatish, boshqaruvchilik qobiliyati va ozgina ijodiy yondashuvni uyg'unlashtira olsangiz – ana shundan ishingiz siz uchun zavqqa aylanadi. Kasb-kor, albatta, moddiy ta'minot uchun zarur. Lekin muhimlikdan holi kuchli shaxs egasi o'z kasbini ham sevadi va undan maroqlanib yashaydi. Bunday odamlar ishga bayramga borgandek xursand ketadilar. Chunki ular o'z vaqtida to'g'ri narsalarni hisobga olib, o'zlariga (jamiyatga, oilasiga, mutaxassisligiga emas – aynan o'zlariga) eng mos kasbni tanlagan.

CHORSHANBA

Kemtiklar

Bosdi-bosdi qilinganlar

Muhimlik va qo'rquvlar ta'sirida bizning shaxsiyatimizda turli xil kemtiklar yuzaga keladi. Bu jarayon shunchalik "parda ortida" kechadiki, biz uni ko'pincha umuman payqamaymiz.

Ong xuddi ulkan fabrikadek ishlaydi. O'z-o'zicha uning faoliyati bir tekis kechadi – u o'zi qilishi kerak bo'lgan ishlarni xotirjam qilaveradi. Ammo ba'zida ana shu fabrika faoliyati muhimlik yoki qo'rquv bosimi ostida izdan chiqariladi. Bunda fabrika sifatli mahsulot o'rniga, juda ko'p zararli chiqit chiqaradi. Normal faoliyati buzilgan ong chiqargan ana shunday "chiqindi"lar bizning shaxsiyatimizni bulg'aydi.

Ong fabrikasining normal faoliyati uchun shunchaki odam xotirjam bo'lishi kerak. Xotirjam odamning ongi bir maromda, ortiqcha zo'riqishsiz, keskin o'zgarishsiz ishlaydi. Ong tananing boshqaruva markazi bo'lgani sababli, uning mo'tadil ishlashi butun organizm salomatligini ta'minlaydi.

Muhimlik yoki qo'rquv ta'sirida odam xotirjamidan ayrlisa, uning ongi asosiy vazifalari qolib, muhimlik keltirib chiqargan hissiyotlarni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Bu hissiyotlar muhimlik kuchiga qarab yengil yoki juda og'ir bo'lishi mumkin.

Aytaylik, mana siz xotirjam o'tiribsiz. Tanangiz bo'shashgan, ko'nglingiz keng. Shu payt kimdir keldi-da, sizga bir gap aytdi. Muhimlik bu gapni sizga juda yomon qilib ko'rsatdi va bundan sizning g'ashingiz keldi. Tana muskullaringiz darhol taranglashdi, ongingiz faoliyati g'ashlik hisidan keskin buzildi.

Bu holatda ong oldida yangi vazifa paydo bo'ladi: u ana shu g'ashlik hisini "bir yoqlik" qilishi kerak. Chunki hissiyotlar o'z vaqtida so'ndirilmasa, ular tana sog'ligiga zarar yetkazadi (tasavvur qiling, bir marta g'ashingiz kelib, ana shu hisdan qutila olmasangiz, doim g'ashlikda yursangiz – bu naqd do'zaxning o'zi bo'lardi).

Muhimlik keltirib chiqargan har qanday hissiyot – notabiyy, va ong undan imkoni boricha tezroq qutilishga urinadi. Bular jumlasiga ijobiy hislar ham kiradi – tanamiz hayajon, sevinch, eyforiya kabi hissiyotlardan ham tezda xalos bo'lismishga intiladi. Chunki ular ham o'z kelib chiqishiga ko'ra notabiyy va zararli.

Ong uchun hissiyotlardan qutilishning juda oddiy va mantiqiy usuli bor: u shunchaki hissiyot oxirigacha ifoda etilishiga imkon beradi. Masalan, yuqoridaq misoldagi g'ashlik hisidan siz o'z norozililingizni aytib xalos bo'lasiz. Bu emotsiyadan qutilishning eng oson va tabiiy usuli.

Turli emotsiyalar odam tanasida turlicha reaksiya uyg'otadi. Ammo ularning umumiyligi qonuniyati shunday: har qanday emotsiya tanada ortiqcha quvvat sarfini yuzaga keltiradi. Bu quvvat har qanday holatda jismoniy faollik bilan yuzaga chiqariladi. Shuning uchun biz sevinsak – sakragimiz, qo'rqsak – qichqirgimiz yoki qochgimiz, g'azablansak – bir nimalarni urib sindirgimiz keladi.

Ammo hissiyotlarni “qayta ishlash” jarayoniga ong fabrikasiga o'zini o'zi rais qilib saylab olgan aql aralashsa – jarayon izdan chiqadi. Masalan, menga kimdir yoqimsiz gap aytsa va muhimligim oshib, bu gapdan g'ashlansam, menda zararli hissiyot paydo bo'ladi. Tabiiy tartibga ko'ra men bu hissiyotdan o'z g'ashligimni so'z bilan ifodalab, xalos bo'lismish kerak. Ammo aqlim menga “odobli” bo'lismeni bahona qilib, ana shu harakatdan tiyib qoladi va emotsiyani “bosdi-bosdi” qilib yuborishga urinadi.

Biz juda ko'p hollarda o'z hissiyotlarimizni erkin ifoda etmaymiz. Bunga ham muhimlik sabab bo'ladi. Atrofdagilarni deb hissiyotlarimizga tabiiy usulda javob bermaymiz. Jahlimiz chiqsa ham, sevinsak ham, qo'rqsak ham – jim turaveramiz.

Xo'sh, buning nimasini yomon? Bu odam yaxshi tarbiya ko'rgan degani emasmi? Madaniyatli odam shunday qilmaydimi, axir? Bilmadim. Menimcha bu ta'kidlardagi “tarbiya” va “madaniyat” so'zlariga haddan ziyod muhimlik ortilgan va ularda tabiiylikdan asar ham yo'q.

Gap shundaki, oxirigacha ifodalanmagan hissiyotlar ikkilamchi ongga siqib chiqariladi. Ikkilamchi ong – ong fabrikasining orqa hovlisi, ombori. Aql asosiy ong bilan ovora bo'lib, u yerga kamdan-kam nazar soladi.

Natijada ikkilamchi ong qarovsiz qolgan ombordek ifloslanib ketadi. “Bosdi-bosdi” qilingan hissiyotlar ana shu omborni bulg’ab – zaharlab yotadi.

Ikkilamchi ong – ongning kattaroq va kuchliroq qismi. U o’zi mustaqil ravishda tananing juda muhim hayotiy jarayonlarini boshqaradi. Masalan, uqlab yotganimizda birlamchi ong o’chgan bo’ladi, ammo biz tonggacha bir necha marta tanamiz holatini o’zgartiramiz. Bu harakatlarni ikkilamchi ong boshqaradi – agar tun bo’yi bir holatda qolib ketsak, bosib yotgan tomonimizga qon yaxshi bormasligi tufayli u yerdagi to’qimalar zararlanishi mumkin. Ikkilamchi ong buyrug’i bilan uyquda u yoqdan bu yoqqa o’girilishimiz sababi ana shu.

Hissiyotlarga kelganda ongning dasturi tayin – shu hissiyotni xattiharakat tarzida ifoda etish. Agar hissiyot ifodalanishiga xalal berilmasa, asosiy ong ana shu dasturni bir marta amalga oshiradi va hissiyot yukidan tanani ozod qiladi.

Ammo tabiiy usulda ifoda etilmasdan, ikkilamchi ongga surib chiqarilgan hissiyot ana shu yerda doimiy qoladi. Ikkilamchi ong shu hissiyotga nisbatan belgilangan dasturni qayta-qayta bajaraveradi. Chunki ikkilamchi ong u yoki bu hissiyotni ifoda etganini nazorat qilmaydi. U faqat tegishli dasturni amalga oshirishni biladi, xolos.

Masalan, bir odamning jahli chiqdi. U bu emotsiyani ochiq ifoda etmadi, uni bostirdi. Hissiyot uning ikkilamchi ongiga siqib chiqarildi. Odam jahli chiqsa nima qiladi? Eng birinchi panja muskullari taranglashib, qo’l mushtga tugiladi. Ya’ni ongning jahl hisiga nisbatan dasturi – qo’lni musht qilish harakati. Ikkilamchi ongga surib chiqarilgan jahl hisi ana shu dasturni qayta-qayta (yoki doimiy) amalga oshiradi. Natijada, odam o’zi bilmagan holda qo’lini musht qilaveradi. Mudom jahli chiqib, g’azabini tiyib yuradigan odamlarning qo’llari doim mushtga tugilgan bo’ladi.

Tanangizdagagi juda ko’p og’riq va xastaliklar – ifloslangan ikkilamchi ong natijasi. Ongingiz omborida “bosdi-bosdi” qilingan minglab hissiyotlar bor. Ularning ba’zilari muskullaringiz faoliyatini buzib, qon to’g’ri aylanishiga xalal bersa, boshqalari tanadagi turli bezlar faoliyatini buzadi va modda almashinuvini izdan chiqaradi (masalan, ikkilamchi ongga siqib chiqarilgan hissiyotlar ta’sirida oshqozon-osti bezi ishi buziladi va odam qand kasalligi bilan og’riy boshlaydi).

Agar uyqungiz notinch, tushlaringiz qo'rqinchli yoki hayajonli bo'lса – demak, ikkilamchi ongingizda judа ko'p hissiyat to'planib qolgan. Uyqu – asosiy ong (va uning o'zboshimcha raisi – aql) o'chadigan payt. Bunda tana to'lig'icha ikkilamchi ong izmida bo'ladi. Agar odamning ikkilamchi ongi bostirilgan hissiyotlarga to'la bo'lса, ular uyquda yuzaga chiqadi va Qodiriy ta'riflagan "jinlar bazmi" boshlanadi.

Baxtimizga, ikkilamchi ongni tozalash mumkin. Ong omboridagi keraksiz hissiyotlarni chiqarib tashlash darkor. Biz ko'pincha kun bo'yи omborimizga tiqib kelgan hissiyotlarimizni oilamiz davrasiga kelganda yuzaga chiqaramiz. Kunduzi bo'lган narsalar haqida hayajon yoki g'azab bilan gapirib beramiz. Yoki ishda "obro'li odam"ga nisbatan qila olmagan janjalni uyda qilamiz. Shu bilan ikkilamchi ongga qamalgan hissiyat yukidan qutilamiz. Bunda begonalar oldida hissiyotlarni "odob" vaji bilan bostirgan aql yaqinlarimiz oldida ularga erk beradi (ya'ni begonalarni hissiyotlarimiz zararidan ehtiyyot qilib, yaqinlarimizni shu yukni o'zlariga olishga majbur qilamiz).

Lekin o'zimiz va yaqinlarimizning kayfiyatini buzmasdan ham bu muammoni hal qilish mumkin. Buning uchun hissiyotlar kelganda, ularni hech kimga zarari tegmaydigan qilib ifoda etish kerak. Jahlingiz chiqsa – o'tin yoring, lekin hech kimga qo'l ko'tarmang. Bunda, albatta, hissiyotdan qutilasiz – ammo katta hayotiy quvvat yo'qtasiz ham.

Quvvat sarflamaslik uchun, shunchaki, ana shu ortiqcha hissiyotlarni orttirmaslik kerak. Muhimlikka berilmasa, odamda zararli emotsiyalar paydo bo'lmaydi, asosiy ong faoliyati ham buzilmaydi, ikkilamchi ong ham chiqindi hislarga to'lib ketmaydi. Juda oddiy va samarali yechim.

Nomparastlik

Ushbu bo'limdagi bayonlar asta-sekin shaxsiy komplekslardan ijtimoiy muammolar mavzusiga o'tib borayotganini sezgan bo'lsangiz kerak. Bu bejiz emas. Ijtimoiy muammolarning ko'pchiligi asosida jamiyatni tashkil etgan alohida shaxslarning komplekslari yotadi. Shunday ekan, kemtiklar haqidagi bo'lim o'z mantiqiy davomi sifatida ijtimoiy muammolarni muhokama qiladi.

O'tgan galgi suhbatda ham biz bir ikki ijtimoiy muammolarga to'xtalib o'tgan edik. Bugun biz siz bilan zamonimizning yana bir dolzarb kemtigi – nomparastlik haqida gaplashamiz. Uning ta'rifi taxminan quyidagicha:

Nomparastlik – shaxsiy va tashqi muhimlik oqibatida alohida shaxslar yoki bir guruh odamlarning nom chiqarish yoki mavjud bo'lgan nomni saqlab qolish uchun u yoki bu ishni qilishlaridir.

Boshqacha qilib aytganda, boshqalarda kerakli tasavvur uyg'otish uchun moddiy va, afsuski, ba'zan ma'naviy qurbanliklar keltirish holati – nomparastlik. Nomparastlik ba'zida xalq maqollarida ham uchrab turadi: "pul ketsa ketsin – obro' ketmasin". Uning shakllanishida birdaniga bir nechta omillar (komplekslar) ishtirot etadi.

Nomparastlik avj olishiga birinchi navbatda ijtimoiy andazalar sabab bo'lmoqda. Bugun yaxshi uy-joy, so'ngi rusumdag'i avtomashinaga ega oila – farovon oila timsoli deb qabul qilingan. Ana shu kabi andazalarga mos kelishga intilib, odamlar o'z farovonliklariga zid ish qilmoqdalar (juda ajoyib holat – "farovon oila" andazasiga tushish uchun, asl farovonlikdan kechish).

Nima deb o'ylaysiz – so'ngi paytda nega mashina sotib olish avj oldi? Nahotki, odamlarning avtotransportga bo'lgan talabi shunchalar oshayotgan bo'lsa? So'ngi yillarda aholi egalik qilayotgan avtomashinalar soni qanchaga oshdi-yu, aholi soni qanchaga oshdi?

Men odamlarga o'z pullarini nimaga sarflashni o'rgatmoqchi emasman. Shubhasiz, o'z daromadini qanday taqsimlash – har kimning shaxsiy ishi. Men faqat jamiyatdagi umumiylar jarayonni ko'rsatib o'tmoqchiman – bu jarayonning qancha qismi haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqyapti-yu, qanchasi nomparastlik sabab qilinyapti – o'zingiz chamalab olarsiz.

Keling, yuqoridagi misolga sof iqtisodiy jihatdan yondashib ko'ramiz. Har qanday xarid – o'z-o'zicha bir sarmoya. Masalan, biz oziq ovqatga qanchadir pul sarflaymiz, chunki keyinchalik shu oziq-ovqatdan olingan quvvat bilan biz yana-da ko'proq mablag' topishimiz mumkin. Yana masalan, biz mavsumga mos kiyimlarga ma'lum mablag' sarflaymiz, chunki kiyimlar bizni issiq va sovuqdan asraydi, kasalliklar va ular talab etadigan xarajatlarni tejab qoladi. Bu kabi sarmoyalarni kiritishda biz shu sarflangan puldan qaytadigan "daromad"ni hisobga olamiz.

Mashina sotib olish yoki yangi uy qurish ham o'ziga xos sarmoya. Sarmoya bo'lib ham, kattagina sarmoya. Xo'sh, shu sarmoyani har doim ham sergak hisob-kitob bilan qilamizmi? Daromadi oshib, yangi mashina sotib olishdan oldin bir varaq qog'ozni olib, uning o'tasidan chiziq tortib, bir yog'iga mashina olsa necha pul sarflashi va qancha tejashi-yu, olmasa boshqa maqsadlarga qancha mablag' qolishi va nimalar yo'qotishini yozib, xotirjam hisob-kitob qilgan odamlarni ko'p ko'rjanmisiz?

Men mashina sotib olishni bekorga misol qilib olmadim. Zamonni qarangki, bugun o'zimizda juda bejirim mashinalar ishlab chiqarilmoqda. Odamlar oylab-yillab navbatda turib, pulni oldindan to'lab qo'yib olishyapti shu mashinalarni. Men ana shuni sira tushunmayapman: odamlarni shunchalik mashina egasi bo'lishni istashga nima turkilayapti? Bu, har holda, ana shu avtotransportga bo'lgan haqiqiy zarurat emas – chunki bugun ko'chalarimizda transport xizmatlarini ko'rsatishga tayyor yengil va yuk mashinalari juda ko'p.

Hech o'ylab ko'rjanmisiz: nega o'zimizdan chiqayotgan mashinalarni olish juda qiyin? Nega davlat ularning narxini juda yuqori qilib qo'ygan? Chunki davlat bu mashinalarni eksport qilib, milliy iqtisodga iloji boricha ko'proq daromad keltirmoqchi. Davlat odamlar nomparastlikka ergashib, ehtiyoji bo'lmasa ham, shu mashinalarni olavermasdan, daromadini boshqa maqsadlarga sarflashini istaydi, menimcha.

O'zingiz o'ylab ko'ring: bitta avtomashina puliga farzandlaringizga qancha kitob olib bersa bo'ladi. Shu pulni oilangiz uchun sog'lom turmush tarzini yaratish, foydali oziqlanish, yashash sharoitini yaxshilashga sarflansa – yaxshiroq emasmi? Agar oilangizning boshqa barcha ehtiyojlardan ortgan daromadingiz bo'lsa – mashina olganingiz bo'lsin. Lekin yeb-ichishi, kiyim-kechagi va yashash sharoitidan tejab qolib yoki birovlardan qarz-qavola qilib mashina olganlarning asl maqsadini tushunish osonmi?

Ammo davlat mashina narxini oshirgani sayin, odamlar bunga kutilganga zid munosabat bildirmoqda. Mashina narxi qancha oshsa, nomparastlik shuncha kuchliroq turkilayapti mashina sotib olishga. Muhimlik odamlarni o'zi va atrofdagilar manfaatiga zid ish qilishga majbur qilyapti.

Nomparastlik ildiz otishiga hissa qo'shayotgan yana bir illat – bu to'da instinktidir. Mahallada bittasi uyining tomini sopol bilan yopsa, imkon topgan qo'shnilar ham shunday qiladi. Bu o'ziga xos ijtimoiy telbalik. Ba'zi "kattaroq"lar nomparastlikda shu darajaga boradiki, qo'shnisining uyi uning "nomi"ga mos bo'lmasa, uyiga keladigan mehmonlari oldida "nomi"ni saqlash uchun, qo'shnisiga uyini ta'mirlashni aytib tazyiq o'tkazadi. Mening shaxsiy lug'atimda bunaqa holatdagi muhimlikka ta'rif beradigan so'zning o'zi yo'q.

Odam nomparastlikka chalinishiga uning shaxsiyatidagi kemtiklar ham anchagini hissa qo'shadi. Bu dardga avvalo nuqsonlilik kompleksi egalari moyil. Ular nomparastlikni o'z nuqsonlarini yashirish yoki o'mnini to'ldirish uchun qurol qilib ishlatishadi.

Kurashchi kompleksi qurbanlari ham o'z nomlarini mustahkamlash uchun ko'p narsadan kechishga tayyor bo'ladilar. Bunday odamlarning asosiy shiorlaridan biri "hammaga kim ekanini ko'rsatib qo'yish". Shunday ekan, "kim ekanini ko'rsatish" yo'lida kurashchilar nomparastlik etagidan tutib boradilar.

Himoyachi kompleksi egalarida ham nomparastlik ancha rivojlangan bo'ladi. Ular o'z nomlari, obro'lari, mavqelari, darajalari, sha'nлari va yana nimalarinidir muttasil himoya qilish ilinji bilan yashaydilar va bu yo'lda ko'p qurbanliklar keltirishadi.

Nomparastlik odamga ma'lum manfaatlar keltirishi mumkin. Ammo juda ko'p hollarda u katta ziyon hisobidan natija beradi. Nomparastlik keltirgan shuhrat juda zaif va nisbiy bo'ladi – sizdan nomdorrog'i chiqqanda odamlar siz haqingizda darrov unutadi. Shunday ekan, unga atalgan vaqt, kuch va pulingizni foydaliroq va bunyodkorroq maqsadlarga yo'naltirsangiz – yutaverasiz.

Faqat bunyodkor va nafi katta ishlar qilgan insonlar nomigina odamlar yodida va tilida doimiy qoladi. Bunday odamlar o'z davrida nomparastlikka berilmasdan, kuchlarini asl ishlarga sarflagani uchun, hali-hanuz odamlar e'zozidalar. Ulug' nomga erishishning eng qisqa yo'lli – nomparastlikdan nari yurishdir.

Qabul qilayotgan qarorlaringiz ortida nomparastlik turganini aniqlash endi qiyin bo'lmasa kerak. Nomparastlik sizga o'zini yaxshilikka intilish

(go'zallikka talpinish, chiroqli kiyinish, chiroqli yashash, odamlarda yaxshi taassurot uyg'otish kabi) niqobi ostida ko'rsatishi mumkin. Ammo sergaklik sizni bu qopqonga tushishdan tiyib qoladi. Xalq ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun emas – xalq ko'ziga ko'rindigan yaxshiliklar qilish uchun yashash zavqlidir.

Tubsiz quduqlar

"Quldarlik – birovlar hisobidan yashash va buni oddiy hol deb qabul qilish odati"

(shaxsiy izohli lug'atimdan)

Bugun molparastlik va nomparastlik ortidan odamlarda (ayniqsa, yoshlarda) juda qadimgi bir odat yangidan paydo bo'lmoqda. Zamonamiz yoshlari imkonimiz boricha birovlar hisobidan yashashga intilmoqda. Bu odat har zamonda har xil atalgan – lekin uning asl nomi quldorlik.

Buning eng asosiy sabablaridan biri – oiladagi quldorlik. Bugungi ota-onasi – farzandining har qanday injiqligini ko'tarishga tayyor qullardir. Ular farzandlarini kiyim-kechak, uyali telefon, mashina, uy-joy, mebel va yana allanimalar bilan ta'minlash uchun mehnat qiladilar. Eng qizig'i – shunday qilmagan qullar boshqa qullar tomonidan "yomon ota-onasi" sifatida qoralanadi.

Namunali qullar farzandlarini pul sarflab, o'qishga joylaydilar – ularning kelajagini ta'minlashga o'zlarini javobgar sezadilar. Zamonaviy quldorlar ota-onalari ularning oliygohda shartnoma pullarini to'lashdan tashqari, o'qish paytida yashashlarini ham ta'minlashlarini oddiy holat deb biladilar. Zamonaviy quldorlar ota-onalari topgan pulni poraga sarflab bo'lsa ham o'z maqsadlariga erishadilar.

Namunali qullar bugun farzandlariga restoranlarda to'y qilib beradi – aks holda quldor o'zini boshqalardan kam hisoblab qoladi. Namunali qullar farzandlariga hashamatli to'y qilishda bellashadilar – aks holda boshqa qullardan kam bo'lib qoladilar va qadrlari pasayib ketadi. Zamonaviy quldorlar qullari ularga "dahshat" to'y qilib bermasa, o'zlarini kamsitilgan

his qiladilar. Bir kunlik to'yga ko'p oyga yetadigan mablag'ni sarflashmasa – ahmoqlik qilgandek his qiladilar o'zlarini.

Namunali qullar bugun voyaga yetkazib qo'yan "hoja"larini "oyoqqa turib olgunicha" ham qo'llab turadilar. Quldlarning farzandlari tug'ilib, ularning o'zi qulga aylanganda ham, bobo-qul va momo-qul endi nabiralari uchun jon kuydirishni boshlaydi.

Bu gaplarni men faqat injiq va xudbin farzandlar haqida aytmayapman. Har birimiz ozmi-ko'pmi maqsadlarimizga erishishni ota-onalarimizga yuklaymiz. Bu maqsad – sizniki, unga erishish – sizga kerak. Lekin nimagadir uni ota-onasi ta'minlashi kerak. Agar sizning butun shaxs bo'lib yetishishingizga ota-onangizni mas'ul deb bilsangiz – siz zamonaviy quldorsiz.

Bugungi kundagi quldorlik misli ko'rilmagan miqyoslarga borib yetmoqda. Ota-onalarning farzandlarini ta'minlash uchun asossiz sarflayotgan pullarini hisoblasa – aqlga sig'maydi. Ota-onasining mehnatini qul mehnati kabi ko'rgan, bunga ko'nikkan farzandlar keyingi hayotda ham quldorlik mavqelarini saqlab qolishga intiladilar. Shu sabab ular oz mehnat qilib, ko'p pul topadigan ishlarning ortidan quvadilar. Ular katta hayotda ham boshqalar hisobidan yashashni istaydilar. Eng achinarlisi – ular shunday yashashni to'g'ri va baxtli deb hisoblaydilar.

Siz kuchli shaxs bo'lmoqchisiz – shunday ekan, siz bilan ayab muloyim gaplashish ortiqcha. Mening kitoblarimdagи fikrlar ochiq, achchiq va shafqatsiz bo'lib borayotgani sababi shu – men sizni ayamasdan, aqlingizga zarbalar berib gapirishni tanlayapman. Ana shunda siz shaxsiy o'sishdan to'xtamaysiz.

Boy bo'lish – quldorlik. Buni "halol mehnat qilib boy bo'lish" kabi chiroli gaplar bilan oqlashga ming urinsangiz ham – bu quldorlik. Buning sababi juda oddiy.

Bitta odam baxtli yashashi uchun juda oz narsa kerak. Boshpana, oziq-ovqat, xavfsizlik. Tamom – qolgani ijtimoiy ehtiyojlar. Hayotda "kimdir" bo'lishga intilishdan kelib chiqqan ehtiyojlar qolganlari. Lekin odam mehnat qilib, hamma istaklariga ham erisha olmaydi. Bir o'zi mehnat qilib, boy bo'lish esa – umuman imkonsiz.

Demak, boy bo'lish uchun, boshqalar mehnatidan daromad qilish kerak. Bu esa – quldorlik. Bu – boshqalar hisobidan yashash degani. Hamma shunday qilyapti-yu demang – biz siz haqingizda gaplashyapmiz. Sizning shaxsiy rivojlanishingiz, sizning baxtli bo'lisingiz haqida gapiryapmiz. Xo'sh, siz quldor bo'lismisiz?

Siz muhimlikka ergashib, xarid qilgan har bir buyum, sarflagan har bir so'm qaysidir quldorni boyroq qilishga, uning qullari safini kengaytirishga hissa qo'shadi. Davlatning hisobidan yashash ham – quldorlik, chunki davlatning sizga sarflayotgan pullari – kimlarningdir mehnatidan kelgan. Davlat uchun ishlab, odamlarga nafingiz tegmasa – siz tekinko'r quldorga aylanasziz. Agar siz birovlar hisobidan yashash, boyish – kimlardir qilgan mehnatdan kelgan pulga smartfon, mashina, kvartira olishga rozi bo'lsangiz va buni "hayot qonuni" deb bilsangiz – bu kitobni tashlab yuboring.

Quldarlik ancha asr oldin bekor bo'lganiga qaramay, bugun bizda ixtiyoriy quldorlik gullab-yashnayapti. Bunga qullar emas – quldorlar aybdor. Bu holatni barham toptirishda quldorlar hal qiladigan so'zni aytadi. Ota-onasidan mustaqil bo'lismi tanlash – ularni keraksiz tashvishlardan holi qilishni tanlash farzandning qo'lida.

Ota-onsa – sizga mehr berishi kerak, xolos. Ularning sizning oldingizda boshqa hech qanday majburiyatları yo'q. Ular buni bilmasa ham – siz biling. Kamtarroq to'y qilishni, kamroq sarpo olishni, mebel olishda bellashmaslikni aynan siz taklif qilishingiz, bunda qat'iy turishingiz kerak. To'y – bir kunlik bayram, yosh oilani uzoq yillar baxtli hayot kutmoqda. Bir kunlik bayramning ahamiyatini ko'p yillik turmushdan ustun qo'yish – quldorlik. Qullar ham tirik jon, ular ham abadiy emas.

O'z kuchingiz bilan maqsadlaringizga erishishga qo'yib berishlarini – sizga xatolar qilib, ulardan ibrat olishga imkon berishlarini siz istashingiz kerak. Maqsadlaringizga erishishda pora berib, pora olish – quldorlik. Bu bilan tubsiz quduqni to'ldirishga intilasiz, xolos. Boshingizni changallab, maqsadingiz tomon yugurishdan to'xtasangiz – bu quduq tubsiz ekanini, u hech qachon to'lmasligini anglaysiz.

Tubsiz quduq – bizning ehtiyojlarimiz. Ular hech qachon ado bo'lmaydi. Ado bo'lmas ehtiyojlarini qondirish uchun boylik ortidan quvish – quldorlik. Qo'lingizga kelguncha sizni har ko'ya solgan boylik, sizniki

bo'lgandan keyin ham sizga tinchlik bermaydi. Chiroyli kiyinib, chiroyli yeb-ichib, hashamatli uylarda yashasangiz ham, tashvishlanishdan, yig'lashdan, qo'rqishdan to'xtamaysiz. Ko'nglingiz Dubayning osmono'par mehmonxonalarida ham, tropik sohillarda ham taskin topmaydi. Chunki bularning bariga boshqalar mehnati natijasida erishasiz – bu esa quldorlik. Ota-onasi, yaqinlari, keyinchalik boshqa odamlar hisobidan yashaydigan tobe odamlar hech qachon baxtli bo'la olmaydilar. Bu juda oddiy mantiq.

Quildorlikni bekor qiling. O'z maqsadlaringiz – o'z hayotingiz uchun javobgarlikni o'z bo'yningizga oling. Ota-onadan mehrdan boshqa narsa kutishni, ular sizga qullik qilmasa – ularni qoralashni to'xtating. Sizning kelajagingizni ta'minlash uchun ota-onan sizdan ko'proq jon kuydirishi oddiy hol ekanini tan olishni bas qiling – sizning hayotingiz uchun faqat va faqat siz javobgarsiz.

"Yaxshi hayot" qurishga intilish tubsiz quduqni to'ldirishga intilishdek gap. Siz "mana ertaga quduq to'ladi, ana shunda baxtli bo'laman" deb bugun qo'lingizdagagi bir chelak suvni quduqqa to'kyapsiz. Ammo "yaxshi hayot" qudug'i to'lmaydi – undan ko'ra, ana shu bir chelak suvni bugungi baxtingiz uchun ishlating.

Singan ko'ngillar

Ushbu bo'lim har shaxsning hayotida muammoga aylanishi mumkin bo'lgan juda nozik masalaga bag'ishlanadi. Hayotimizning ushbu jihatiga biz shu qadar katta ahamiyat beramizki, uning atrofida komplekslardan naqd gulzor yaraladi.

Ijtimoiy bosim ta'sirida aqlning yaxshi-yomon o'yiniga berilishidan odamda intim hayot bilan bog'liq ko'plab zararli komplekslar rivojlanadi. O'z jinsiy hayotiga doir kompleksi bo'limgan odamni topish qiyin. Bu ofat shunchalar keng tarqalganki, bunda nima norma-yu, nima normadan og'ish ekanini ajratib bo'lmay qolgan.

Jinsiy hayot haqida juda ko'p kitoblar yozilgan – lekin birortasida jinsiy kompleksga chalinmaslik haqida biror nima aytilmagan. Nimagadir, bu

mavzu yoki e'tiborsiz qoldiriladi – yoki, umuman, inkor etiladi. O'quvchida jinsiy kompleksni rivojlantirib qo'yadigan kitoblar ham bor.

Jinsiy hayot – bu tana ko'ngil istagiga to'liq bo'ysunib harakat qiladigan jarayon. Bunda qo'llanmalar, ko'rsatmalar yoki andazalar bo'lishi – yovvoyilik. Tabiat yozib bergen dastur o'zi juda yaxshi biladi nima qilishni va qanday qilishni. Sizga jinsiy hayot haqida "saboq" beradigan kitoblarni o'qib, siz o'zingizda keraksiz kompleksni avj oldirasiz.

Jinsiy kompleks (ko'pchiligidan unga chalinganimizni aslo tan olmasak ham) hayotimiz farovonligiga jiddiy raxna soladigan holat. Barchamizda (ayniqsa, erkaklarda) jinsiy masalalarda hech bir muammosiz ish tutishimizga ishonch bor. Lekin o'zimizga ochiq savol berib, unga ochiq javob bersak – jinsiy hayotdan qoniqmaslik bizga ko'p ruhiy azob berayotgani oshkor bo'ladi.

Jinsiy ehtiyoj – har qanday tirik jonning asosiy tabiiy ehtiyojlaridan biridir. Bu eng kuchli ehtiyoj desak ham bo'ladi. Shu bois jinsiy ehtiyojning ko'ngil (tana) istagandek qondirilmasligi juda ko'p jismoniy va ruhiy xastaliklarga sabab bo'ladi. Bu xastaliklar o'z navbatida insonning o'z hayotidan mammunlik darajasini tushiradi va uning boshqa odamlar bilan munosabatlarini izdan chiqaradi.

Oilalar buzilib ketishiga eng asosiy sabab – jinsiy hayotdan qoniqmaslikdir. Bunda jinsiy kompleks juftlik o'rtafiga ko'ngilsizlik soladi. Qoniqarsiz jinsiy hayotdan alamzadalik inson tanasi va ongini zaharlab boradi va bir kun kelib bu yuzaga chiqadi.

O'z intim hayotingiz haqidagi tasavvurlaringizni qayta ko'rib chiqish uchun sizga birinchi tamoyil: insonning intim hayotida norma bo'lmaydi. Jinsiy faollikning "to'g'ri" "hamma qabul qilgan" yoki "tasdiqlangan" qoidalari yo'q. Agar o'z tabiiy jinsiy istaklaringizga xotirjam qarab, ularni oddiy qabul qila olmayotgan bo'lsangiz – demak, sizda kompleks bor.

Jinsiy yaqinlik – aql ishtirok etmasligi kerak bo'lgan jarayon. Bunda aql mutlaqo o'chgan, tana nazorati to'lig'icha ko'ngilga topshirilgan bo'lishi nazarda utilgan. Ko'ngil – mehr sulton. U eng zo'r uddalaydigan ish – mehr berish. Jinsiy yaqinlik – mehr sulton o'z san'atini to'liq namoyon qiladigan vaziyat. Bunda unga aql yuvuqsiz qoshiqdek xalal berib tursa – marosim buziladi va o'z tabiiy go'zalligini yo'qotadi.

Jinsiy yaqinlikda baholash va shubhalar (“to'g'ri harakat qilyapmanmikan?”, “unga yoqyaptimikan?”) kallada aylanib tursa – bu aql ishga ruxsatsiz qo'shilyapti degani. Umuman, har qanday xayol, chamalash, baho berish, rol o'ynash ilinji bo'lsa – bu soxta marosim. Bu aql unga atalmagan bazmda o'ynab qolmoqchi degani.

Bu juda ham ayanchli holat. Chunki jinsiy yaqinlik – ko'ngilning bazmi. Aql shunda ham unga erkinlik bermasa – ko'ngil sinadi. Singan ko'ngil esa qayta tiklanishi juda mushkul.

To'shakda o'zini u yoki bu qilib ko'rsatishga urinadigan mahbublar bu soxtaliklari bilan ham o'zlarining, ham juftlarining ko'nglini sindiradilar. Rol o'ynashga uringan odam bilan jinsiy yaqinlik har qanday odamni sovitadi va juftiga nisbatan bezdiradi.

To'shakda muhimligi yuqori yoki quyi odam bo'lmaydi. Katta-kichik, kuchli-ojiz, ega-qul munosabatlari to'shakdan tashqarida qolishi kerak. Jinsiy yaqinlikda hamma teng, hamma ahamiyatsiz, har kimning qadri bir xil. Bunda hech kim burchli yoki majbur emas, hech kim hech kimga egilmaydi, hech kim hech kimni egmaydi.

Agar jarayonga aqlni yaqin keltirmasangiz – hech qanday muammo bo'lmaydi. Jinsiy yaqinlikda xatolar bo'lmaydi – bunda hech kim hech kimga gina saqlamaydi. Ehtirosda ikki juft bir-biriga beradigan jismoniy azob ham yoqimli bo'ladi va minnatdorlik bilan qabul qilinadi. Jinsiy yaqinlikda odam yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan yagona xato – bunda ko'ngli qolib, aqli bilan ishtirok etishidir.

Bizda jinsiy hayot bilan bog'liq muammolar nega bunchalik ko'p bo'ladi? Bunga ikki sabab bor. Birinchidan, biz bu masalalarga o'ta katta ahamiyat beramiz. “To'g'ri” mahbub bo'lish, “yaxshi” mahbub bo'lishga haddan ziyod kuchli harakat qilamiz. Natijada, aql yo'q yerdan muammolar orttirib, jinsiy kompleksimizni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, biz jinsiy masalalardagi muammolarimizni “ko'mib” tashlashga, ularni o'zimizdan berkitishga, ularni unutishga urinamiz. Bu haqida ishongan yaqinlarimiz bilan gaplashish, buni muhokama qilish “yomon” ekaniga ishonamiz. Umuman, jinsiy muammolarga ega bo'lishning o'zi “yomon” ekaniga qattiq ishonamiz. Natijada, kompleks

ongimizning chuqur qatlamlariga surib chiqariladi va o'sha yerda gullayveradi.

Jinsiy yaqinlik nasl qoldirish bilan bog'liq bo'lGANI uchun, tabiat odam ongiga aqlni bu jarayondan nari tutadigan maxsus dastur yozgan. Agar shunday bo'limganda, aql vaziyat ustidan to'liq nazoratga erishib, ishning beliga tepgan bo'lardi. Ammo aql ham bo'sh kelishni istamaydi va kurashni kuchaytiradi. Natijada ko'ngil bazmi bo'lishi kerak bo'lgan jarayon aql va ko'ngil kurashiga aylanadi va o'z jozibasini yo'qotadi.

Sevgan insoningizga mehr berishni istadingizmi – boshqa hamma xayollarni miyangizdan chiqaring. Nima qilayotganingiz va qanday qilayotganingizni baholashdan voz keching. Sizni ehtiros dengizi to'lqinlaridan olib o'tishni to'lig'icha ko'ngilga topshiring. Hammasi tugagach, aqlingiz yana jonlanib, nima bo'lganini anglay olmay qoladi. Lekin tana baxtdan yayraydi – jinsiy yaqinlikdan keyin alanglab qolgan aql va yayrayotgan tana qolsagina tabiat g'olib. Ana shunda ko'ngillar butun qoladi. Ana shunda hech bir ko'ngil sinmaydi.

Jinsiy kompleks sizning baxtingizga soya solishiga imkon bermang. Siz mahbubingizni qanday sevishingizni faqat ko'nglingiz hal qiladi. Bunda sizga qo'llanma ham, qoidalari ham, namunalar ham kerak emas.

O'z o'rnila, salomatligingiz qadriga ham yeting. Kezi kelganda kontraseptiv (homiladorlikning oldini oladigan) vositalardan foydalanishning hech bir "yomon" joyi yo'q. Bu bilan siz jinsiy hayotingiz yoqimliligi, ruhingiz tetikligi va tanangiz sog'lomligini ta'minlagan bo'lasiz.

Jinsiy masalalarda o'zingizga me'yorlar qo'y mang. Jinsiy yaqinlik qancha bo'lishi va qachon bo'lishi jadvalga solib qo'yilmagan. Ko'nglingiz istagan payt – mehr berish uchun eng yaxshi payt. To'g'ri, aqlning nafsi ham buni tilab qolishi mumkin. Ammo aql istagidan kelib chiqqan ehtirosni tanib olish juda oson – bu hissiz ehtirosdir.

Siz va sevgan insonlaringiz ko'ngli doim bus-butun bo'lsin.

PAYSHANBA

Qo'rquvlar

Diqqat, ochilmasin!

Ushbu bo'lim, odatdagidek, bizni shaxsiy rivojlanishdan to'sib turadigan, shaxsiy kuchimiznisovuradigan qo'rquvlar haqida so'zlaydi. Ammo bu galgi suhbat hammasidan ham qo'rqinchli bo'ladi – chunki unda muhokama qilishga qo'rqaqidan mavzularimizni muhokama qilamiz. Bunga tayyor bo'limganlar uni o'qimay o'tib ketishi mumkin.

Ko'pchiligidizga tarbiya bilan singdirilgan va shaxsiy erkinligidizga to'g'onoq bo'layotgan bir qo'rquv borki, uni yengmay turib, odam kuchli shaxs bo'lishi imkonsiz. Bu qo'rquv shu darajada "to'g'ri" va "asosli" ko'rindiki, biz uni hatto savol ostiga ham qo'yamaymiz.

Nima deb o'ylaysiz – bizni nega xudodan qo'rqishga o'rgatishadi? Shunday qilish to'g'ri bo'lgani uchunmi? Gap ana shunda-da – nega bizga xudodan qo'rqish to'g'ri ish ekani o'rgatiladi?

U qudratli bo'lgani uchunmi? Kitoblarda shunday yozilgani uchunmi? Nega xudoga bo'lgan munosabatimizni tahlil qilishdan qo'rqamiz? Bu darajada bizni qo'rqoq qilish kimga kerak bo'lgan ekan?

Keling, qo'rquvlarimizni bir tahlil qilib ko'ramiz. Odamzod aqli noma'lumlikdan qo'rqedi. Shu o'rinda sizga bir ertak aytib beray:

Shaharning katta ko'chalaridan birida bir gadoy juda eski bir quti ustida o'tirib, tilanchilik qilar ekan. Kunlardan bir kun shu ko'chadan bir darvesh o'tib qolibdi. Gadoy darveshning eskirib ketgan ust-boshiga qarab, undan sadaqa so'rash-so'ramaslikni o'ylab tursa, darvesh o'zi uning yoniga kelib, unga bitta tanga uzatibdi.

- Qanchadan beri shu yerda sadaqa so'raysan? – qiziqibdi darvesh.
- Yigirma yildan beri, - javob beribdi gadoy, - Bu shaharning odamlari saxiy, hech quruq qo'yishmaydi.
- Ustida o'tirganing qanday quti? – yana so'rabi darvesh.
- Bilmadim, eski bir quti-da. Uni shu yerda topib olganman – shundan beri ustida o'tiraman, juda qulay.

- Ichida nima bor?
- Bilmayman.
- Ochib ko'rmanmagan?
- Yo'q. Uni ochishga qo'rqa man.
- Nega? Buning nimasi qo'rqa ninchli?
- Uning ustiga "Buning ichida nima borligini faqat xudo biladi" deb yozib qo'yilgan. Buning ichida oddiy banda bilishi mumkin bo'lmanan narsa bo'lsa – demak, juda yomon narsa bor. Shuning uchun uni hech qachon ochib ko'rmanman.
- Balki uning ichida juda yaxshi narsa bordir, - kulibdi darvesh, - Nahot, shuncha yildan beri qutida nima borligiga qiziqmagansan.
- Aytdim-ku, uning ichida yaxshi narsa bo'lishi mumkin emas. Xudodan boshqa hech kim bilmaydigan narsa hech zamonda yaxshi narsa bo'lmaydi.
- Men darvesh bo'lib, yurtlarni kezib, juda ko'p g'aroyibotlarni ko'rganman. U ajoyibotlar haqida ham bu shaharda hech kim bilmaydi. Dadil bo'l, qutini ochib ko'r.

Darveshning qistovi bilan gadoy qo'rqa-pisa qutini ochib qarasa – ichi to'la tilla tanga emish. Darvesh hayratdan og'zi ochilib qolgan gadoy yelkasini qoqib:

- Eh birodar, hech kim bilmagan narsani bilishdan qo'rqb, yigirma yil oltin to'la quti ustida o'tirib, tilanchilik qilibsan. Darvesh bo'lib, bunaqasini hali ko'rmanman, - degan ekan.

Biz o'zimizga noma'lum narsalardan har doim qo'rqa miz. Yosh bola nega notanish odamdan qo'rqa miz? Chunki undan nima kutishni bilmaydi. Notanish odam qahr ko'rsatishi ham mumkin. Nega odam yovvoyi hayvonlardan va hasharotlardan qo'rqa miz? Chunki ular o'zini qanday tutishini bilmaydi – kutilmaganda hamla qilishidan yoki chaqib olishidan qo'rqa miz.

Xo'sh, xudodan nega qo'rqa miz? Uning ham qudrati biz uchun noma'lum bo'lidan qo'rqa miz. Nega uning qudratini anglashga urinmaymiz? Chunki bu qudratni anglashga yordam beradigan izlanish qutisi ustiga bizning qo'rqa bo'lishimizni istaganlar "Buning ichida nima borligini faqat xudo biladi" deb yozib qo'ygan...

Xudodan qo'rqish emas – uni yaxshi ko'rish kerak. Unga nisbatan shukrona, minnatdorchilik, mehr his qilish kerak. Uni ham savol ostiga qo'yishdan qo'rqlaslik zarur – faqat shundagina uning qudratini yaqqolroq anglash, uni tanish va suyish mumkin.

Sizni o'z izmiga solmoqchi bo'lganlar xudodan qo'rqish hisini sizda kuchaytirishga urinadi. Bu bilan ular sizning shaxsiyattingiz ustidan nazoratga ega bo'ladilar. Xudoga undan qo'rqib yashaydigan qullar kerak emas – uni sevib yashaydigan erkin shaxslar kerak. Uni eslagan bandalari yuragida qo'rquvni emas – xotirjamlikni, minnatdorlikni, shukronani ko'rishni istaydi.

Nima deb o'ylaysiz – xudoga sizning undan qo'rqlashingiz kerakmi? Cheksiz qudrat egasi bo'lib turib, u nahot o'zi yaratgan bandalarining qo'rquv bilan unga bosh egishlarini istasa? Umuman, nahotki yaratuvchiga u o'zi yaratgan bandalaridan nimadir kerak deb o'ylasangiz?

Xudodan qo'rqish – bizni buzg'unchi ishlardan tiyib turadi deguvchilar ham bor. Unday bo'lsa – nega xudodan qo'rqlasigan odamlar ham xato qiladi? Nega xudodan qo'rqish hisi ba'zi ishlardan odamni tiyib qoladi-yu, boshqalariga ko'z yumadi?

Aytaylik, kimdir boshqa odamga nisbatan kuch ishlatishni istaydi. G'azabini xudodan qo'rqish hisi bilan bosadi, o'zini buzg'unchi ishdan – birovga qo'l ko'tarishdan tiyadi. Ammo uning ichidan ana shu odamga nisbatan nafrat qoladi – faqat qo'rquv ta'sirida ichga yutiladi. Yomon ish qilsa, xudoning qahriga uchrashidan qo'rqladi. U xudoning adolatidan ham qo'rqladi.

Xudoni yaxshi ko'rgan odam – xudoning bandalarini ham yaxshi ko'radi. Boshqalarga nisbatan uning ichida gina yoki nafrat uyg'onmaydi. Kimdandir ozor ko'rsa – kechiradi, chunki xudo o'zi adolat qilishini biladi. U xudoni uning tengsiz adolati uchun ham yaxshi ko'radi.

Yaratgandan qo'rqish – daraxtlar ularni ekkan bog'bondan qo'rqlashtiridek gap. Hech qaysi bog'bon bir yil meva bermagan yoki noto'g'ri o'sgan daraxtiga qahr ko'rsatmaydi. Xudo esa eng mehribon, eng marhamatli bog'bon – uning qahridan qo'rqish, undan qahr kutish faqat uni yaxshi tanimaganlar xayoliga keladi.

Izlanishdan sizni tiyib turgan qo'rquvlardan holi bo'ling. Ilm olish – hadiklardan holi yurak egalari uddalaydigan ish. Xudodan qo'rqishni bahona qilib, kerakli savollarni bermagan odam – tilla to'la quti ustida o'tirib, sadaqa so'ragan gadoy kabitdir. Dunyo qanday tuzilganini, unda siz qanday o'rinni tutishingizni bilishga intilish – o'zlikni anglashga intilishdir. O'zligini bilishdan qo'rwmagan odam esa xudoni bilishdan ham, uni yaxshi ko'rishdan ham, u bilan do'st bo'lisdan ham qo'rqlaydi.

Hammamiz uning panohidamiz. Uning mehridan bahramandmiz. Uning bergen ne'matlarida nasibamiz bor. Shunda ham undan qo'rqsak – panohiga xiyonat qilgan bo'lamic. Axir, himoyachi o'z himoyasidagilarga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Buzg'unchi ishlardan undan qo'rqqanimiz uchun emas – uni yaxshi ko'rganimiz uchun tiyilganimiz ma'qul. Mehrga qo'rquv bilan javob berilmaydi, axir.

Ijtimoiy bosim

"Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi"

(o'zbek xalq maqoli)

Ijtimoiy bosim tushunchasi juda oddiy narsa. Jamiat (biz birga yashab turgan odamlar guruhi) bizning qarorlarimiz ustidan o'ziga kerakli nazoratni o'rnatishga intilib, bizga o'tkazadigan ta'siri – ijtimoiy bosimdir. Uning eng katta quroli – albatta, qo'rquv.

Biz odamlarning bizga nisbatan yomon xayolga borishidan, ularning biz haqimizdagи fikri salbiy tomonga o'zgarishidan juda qo'rqamiz. Ana shu qo'rquv yordamida jamiat bizga bosim o'tkazadi.

Bu qo'rquvga shaxsiyati shakllanayotgan yoshlar juda moyil bo'ladilar. O'smirlik payti – odam o'zi yashayotgan jamiatda alohida o'ringa ega bo'lishga, "kimdir" bo'lishga katta ehtiyoj sezadigan davr. Bunda jamiatning qahriga uchrashdan qo'rqish ayniqsa kuchli bo'ladi.

Shuningdek, o'smirlik odam tanasida katta o'zgarishlar yuz beradigan payt. Tana balog'at yoshiga yaqinlashishi bilan, quvvat taqsimotini o'zgartiradi va jinsiy rivojlanishga urg'u bera boshlaydi. Bunda nafaqat

fiziologik (jismoniy) o'zgarishlar, balki psixologik (ruhiy) yangiliklar ham tatbiq qilinadi.

Bizning jamiyatda din va madaniyat ta'sirida jinsiy faollikka nisbatan kuchli ijtimoiy bosim shakllanib qolgan. Odamdag'i jinsiy faollik haqida gapishtirish, hatto bunga ishora qilish ham qattiq qoralanadi. Natijada, bunday mavzular o'ta sir tutiladi, juda kichik va yopiq guruhlarda muhokama qilinish bilan cheklanadi.

Bir jihatdan bu to'g'ri – jinsiy faollik odamning shaxsiy ishi bo'lishi va omma muhokamasiga qo'yilmasligi kerak. Bu madaniyatimizga ham, milliy axloq mezonlarimizga ham to'g'ri kelmaydi.

Ammo bu ijtimoiy bosimning jinsiy faollikni qoralovchi tarkibi jinsiy tushunchasi shakllanmagan yoshlarda qo'rquv hisini paydo qiladi. O'smir o'zidagi o'zgarishlardan qo'rqaqidan, ularni yashirishga, imkon bo'lسا ularni qaytarishga urinadigan bo'ladi. Jamiyat qoralagan gunohkor xayollari uchun o'zini koyiydi va o'zida juda zararli kompleksni rivojlantiradi.

Haqiqiy muammo mana shu yerda boshlanadi. O'smirlik yoshidagi o'zgarishlar – tabiiy jarayon, buni hech bir usulda orqaga qaytarib yoki bekor qilib bo'lmaydi. Mana shu tabiiy o'zgarishlar va ijtimoiy bosim o'rtasidagi ziddiyat ta'sirida o'smir psixikasida **og'ishlar** yuzaga keladi.

Balog'at yoshiga yaqinlashgan yigitda jinsiy faollik kuchayadi. U endi ana shu jinsiy faollik uchun o'ziga sherik izlay boshlaydi. Agar ijtimoiy bosim kuchli bo'lسا, yigit tabiiy usulda jinsiy ehtiyojini qondirishga qo'rqaqadi. Ammo tanadagi jinsiy faollik uchun ajratilgan quvvat unga tinchlik bermaydi. Mana shu yerda yigitning ko'ziga yaqin qarindoshlari ishonsa bo'ladijan jinsiy sherik sifatida ko'rindi. Aka singlisiga boshqacha qaraydigan bo'ladi.

Bunday narsalar haqida yozish uyat deb hisoblasangiz – demak, hali ham ijtimoiy bosim ostida ekansiz. Muammoni hal qilishing birinchi bosqichi – muammo mavjud ekanini tan ola bilish. Bu muammo mavjud va uni "uyat bo'ladi" bahonasi bilan muhokama qilmaslik noto'g'ri.

Yuqoridagi misoldan jinsiy faollikdagi og'ishlar faqat yigitlarda bo'ladi degan xato tushuncha shakllanmasin. Bunga qizlar ham, yigitlar ham

birdek moyil. Qaytanga, qizlarga jamiyatning bosimi kuchliroq bo'ladi. Demak, qizlar jinsiy faollikda og'ib ketishi ehtimoli ko'proq.

Jamiyat va tabiat o'tasidagi kurashda – har doim jamiyat mag'lub bo'ladi. Jamiyat farzandlarini "gunoh"dan tiyib qolishga qancha kuchli urinsa, farzandlari haqiqiy gunohga qo'l urishi shuncha ko'p bo'ladi. O'z tabiatidagi o'zgarishlar va atrofidagi jamiyat ziddiyatga kelsa – o'smir arosatda qoladi va qiynaladi. O'smirlar orasidagi muammolarning juda ko'pchiligi ana shunday ziddiyat ustida paydo bo'ladi. Bu kurashda ko'pincha o'rtada qolgan o'smirning o'zi qurban bo'ladi. Shuning uchun o'z joniga qasd qilish holatlari aynan o'smirlar orasida ko'p uchraydi.

Aslida yaqin qarindoshlar bilan jinsiy yaqinlik qilish inson tabiatiga zid. Tabiat bizni yaqin qarindoshlarga jinsiy moyilliksiz yaratgan. Chunki genetik jihatdan yaqin bo'lgan (qoni bir bo'lgan) ikki odamning nasli genetik nuqsonlar bilan tug'iladi, bu esa evolyutsiyaga qarshi.

Shuning uchun tabiat bizni mutlaqo boshqacha gen egalariga jinsiy moyillik bilan yaratgan. Qora ko'z qora qosh o'zbek yigit tilla sochli rus qiziga ko'proq moyillik bildiradi. Genetik kodi bir-birinikidan keskin farq qiladigan juftliklar nasli ikki tomondan ham faqat yaxshi genlarni olib, mukammalroq bo'ladi. Bu evolyutsiya qonuni.

Yigit yoki qizning o'ziga jinsiy juft qidirishiga – tabiatiga bo'ysunib, o'zidan geni uzoq bo'lganlarga talpinishiga jamiyat qarshilik qilsa, bu jarayon izdan chiqadi va jinsiy faollikda og'ishlar paydo bo'ladi.

Jinsiy mayl – yomon narsa emas. Buni yoshlar anglasin. Jinsiy xayollarga berilish – sizning yoshingizga mos. Tanangiz buni talab etyapti degani. Hech qachon kattalar bilan o'zingizda ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida gaplashishga, ulardan maslahat olishga uyalmang. Ijtimoiy bosim ta'sirida sizda jinsiy og'ish paydo bo'lsa – u bir umr sizning jinsiy hayotingizni izdan chiqaradi. Shunday ekan, jinsiy faollik atrofida sizda kompleks shakllanishiga yo'l qo'y mang. Tabiiy usulda qondirilgan jinsiy moyillik – hech kimga zarar qilmaydi. Bu bilan gunoh qilaman, yomon odamga aylanaman kabi xayollarni aqlingizdan chiqaring. Esingizda bo'lsin – yomon odamlar bo'lmaydi, ojiz odamlar bo'ladi.

Jinsiy faollik – bu yomon narsa emas. Buni ota-onalar anglasin. Farzandingiz ma'lum yoshta borganda jinsiy faollikka kirishishi – bu

tabiiy hol. Shunday bo'lsa emas – shunday bo'lmasa, tashvishga tushing. Men sizga farzandingiz hayosiz bo'lib ketishiga qo'yib bering demayapman – imkon doirasida jinsiy faollik qilishiga qarshilik qilmang demoqchiman. Jinsiy ehtiyojning katta qismi psixologik ehtiyojdir. Bolangiz kim bilandir jinsiy yaqinlik qilishi shart emas – u kim bilandir uchrashib, qo'l ushlashib, hissiyotlarini ifoda etgandayoq undagi jinsiy ehtiyojning katta qismi bosiladi. Hech qachon farzandingiz bilan jinsiy faollik haqida suhbatlashishni kanda qilmang – u bilishi kerak bo'lgan narsalarni sizdan eshitgani ma'qul. Yoshi yetib, o'zida bo'layotgan narsalarni sizga aytishdan qo'rqlas – bu yaxshilikka olib kelmaydi. Bu bilan farzandingiz shaxsiyati ijtimoiy bosim qurbaniga aylanadi.

Umuman, yoshlarda gunohdan qo'rqlish hisini shakkantirmagan ma'qul. Undan ko'ra, ularga buzg'unchi ish nima ekanini, u nimalarga olib kelishini tushuntirish kerak. Qo'rquv yordamida hech qachon jamiyatga foydasi tegadigan kuchli shaxslarni tarbiyalab bo'lmaydi – jamiyat va tabiat normalarini keskin buzadigan ojiz shaxslar aynan qo'rquv soyasida voyaga yetadi.

Jamiyat sizga ko'p narsani yomon deydi. Bunday qilishdan jamiyatning o'ziga yarasha manfaatlari bor. Ammo ijtimoiy bosim – sizning shaxsiyattingizda kemtiklar paydo bo'lishiga olib keladi. U sizni turli xil ijtimoiy qo'rquvlar yordamida "qolip"ga solishga urinadi. Buni u ba'zida sizning manfaatingizni ko'zlab, sizga yaxshi bo'lishi uchun qildi. Lekin endi siz "yaxshi-yomon" o'yinida ishtirok etmayapsiz. Nima sizning manfaatingizga xizmat qiladi-yu, nima unga qarshi ekanini siz hal qilasiz. Jamiyatning yaxshilikni ko'zlab o'tkazgan bosimi yomonliklarga ham olib kelishini endi bilasiz.

Kuchli shaxs ijtimoiy bosim ta'siridan holi yashaydi. Jamiyat – faqat kuchli shaxslardan iborat emas. Unda boshqalarni o'z izmiga solish uchun qo'rquv va aybdorlik tuyg'usidan foydalanishga intiladigan ojiz shaxslar ham bor. Shunday ekan, ijtimoiy bosim har doim mavjud bo'ladi va buzg'unchi ta'siri bilan alohida odamlar hayotini izdan chiqaraveradi. Uning ta'siriga tushish-tushmaslik esa – har kimning o'z tanlovi.

Yomondan qo'rqish

Bizda yoshlikdan o'ziga xos bir qo'rquv tarbiyalanadi: bizni aqlimizni tanigandan yomondan qo'rqishga o'rgatishadi. Bu narsa jamiyat yomon degan tushunchalarni yaxshilariga taqqoslab baho berish orqali ongimizga singdiriladi. Yomonlikning oxiri jazo bilan tugashi haqidagi ertaklar yordamida bizda jazodan qo'rqish hisi shakllantiriladi.

Jazodan qo'rqish holatiga "yaxshi-yomon" haqidagi yolg'onning bolasi bo'lgan bir yolg'oncha asosiy kuch beruvchi hisoblanadi. Biz bu dunyoda adolat bor ekaniga ishonamiz.

Ammo hayotda adolat yo'q – hayotning adolatli ekan haqidagi tushunchalarimiz ham yolg'ondan boshqa narsa emas. Adolatparastlar junbishga kelmay turib, keling adolatga xolis ta'rif berib o'taylik:

Adolat – har kimning qilgan yaxshi ishlari uchun mukofot, yomon ishlari uchun jazo olishi muqarrarligini belgilab beruvchi ko'rinnmas kuchga ega qonuniyat.

Shunday ta'rif biz bilgan adolatni yetarlicha to'g'ri ifodalaydi deb o'ylayman. Endi ana shu ta'rifga mos keladigan holatni hayotdan izlab ko'raylik.

Tabiatga adolat degan soxta tushuncha mutlaqo begona. Ona tabiatda kechadigan jarayonlarda muhimlik bolasi bo'lgan adolat ishtirok etmaydi. Yo'lbars o'ljasini adolat bilan tanlamaydi. Ona qush polaponlariga adolat bilan parvarish ko'rsatmaydi. Urg'ochi kiyik o'ziga juft tanlashda adolat yo'lidan bormaydi. Yovvoyi tabiat har qanday qaror qabul qilinishida juda oddiy bir qonunga bo'ysunadi: **tabiatda adolat vazifasini samaradorlik qonuni bajaradi.**

Bu nisbatan yangi tushuncha bo'lgani uchun, keling, unga ham qisqa ta'rif berib o'tamiz:

Samaradorlik tamoyili – ikki yoki ko'plab tanlovlardan ichidan birini tanlashda ular orasida natijasi eng katta samara beradigan tanlovnin ustun bilish qonuni.

Yo'lbars eng kam kuch sarflab tutadigan o'ljani tanlaydi va bu bilan o'zini va naslini asrab qolish uchun kerak bo'ladigan hayotiy quvvatini tejab

qoladi. Ona qush yashab ketish ehtimoli katta bo'lgan, hayotga moslashuvchan polaponlariga ko'proq mehr ko'rsatadi va bu bilan o'z turining saqlanib qolishiga erishadi. Urg'ochi kiyik o'ziga eng sog'lom va kuchli juftni tanlaydi va bu bilan nasl qoldirishda eng yuqori samaraga erishadi.

Endiadolatni odamlar orasidan izlab ko'raylik. Xo'sh, siz har bir tanlovingizda barchaga teng turasizmi? Hayotda barchaga teng imkoniyat berilganiga,adolat chindan ham o'z so'zini aytganiga guvoh bo'lganmisiz? Yomonlar jazo olib, yaxshilar mukofotlanganini ko'rganmisiz?

Men odamlar har qanday holatda o'zlari uchun eng ma'qul deb bilgan yo'lni tanlashganiga guvoh bo'lganman. Men odamlar har xil bo'la turib, ularda teng imkoniyatlarni bo'lmastigini bilaman. Men ojizlar jazo olib, kuchlilar mukofotga erishganini ko'rganman.

Yomon odam bo'lishdan qo'rqish – boringizdan qo'rqish degani. Siz shundoq ham yomon odamsiz (qovoq solishga shoshilmasangiz, nega bunday deyotganimni tushuntirib beraman). Yomon odam o'z ta'rifiga ko'ra buzg'unchi ishlar qiladi – siz ham (kamida!) bir marta bo'lsa ham shunday ish qilgansiz. Men ham yomon odamman – chunki men ham ko'plab xatolar qilganman. Biz hammamiz yomon odammiz – chunki inson sifatida ojizliklarimiz bor. Agar adolat ish bersa – jazo olishimiz muqarrar.

Lekin siz yaxshi odamsiz ham. Chunki har bir tanlovingizni (o'zingiz uchun bo'lsa ham) yaxshilikni ko'zlab qilasiz. Men ham xuddi shunday – har qanday ishni o'zimga yoki menga aziz insonlarga yaxshilikni ravo ko'rganim uchun qilaman. Biz hammamiz yaxshi odamlarmiz – chunki inson sifatida yaxshilikka intilamiz. Agar adolat ish bersa – mukofotga sazovor bo'lishimiz tayin.

Ammo hayotda bunday emas – hayot adolat yo'lidan borib, yaxshilarni siylab, yomonlarni jabrlamaydi. Chunki hayot yaxshi va yomon odamlar yo'qligini, bitta odamda yaxshi ham, yomon ham yetarlichcha ekanini biladi. Hayot samara yo'lidan borib, ojizlarni qiynab, kuchlilarni mukofotlaydi. Shaxsiy kuchi yetishmasligidan poraxo'rlik, laganbardorlik, ayyorlik, xasislik qilgan odamlar ana shu ojizliklari sabab azob chekaveradilar. O'z maqsadiga erishishda muhimlikka berilmay, qarorlari uchun

javobgarlikni o'ziga olgan kuchlilar esa o'z hayotiy quvvatlarini to'g'ri sarf qilganliklari uchun mukofot olib yashaydi.

Adolat – faqat Yaratganga xos. Faqat U asl adolat tadbirini qo'llay biladi. Adolatni hal qilish, o'rnatish va tutib turish – faqat Uning izmida. Bu biz – insonlarga berilgan huquq emas. Bizda bunga yetarli kuch ham yo'q.

Xudoningadolati – jazo emas, imkoniyatdir. U hech qachon bandalarini buzg'unchi ishlari uchun jazolamaydi – u ana shu buzg'unchi ishlardan xulosa chiqarib, ulardan nari yurishga imkon beradi. Agar Uningadolati, biz o'ylaganday, xato uchun jazo bo'lganda – biz allaqachon uning qahriga uchrab, yo'q bo'lib ketar edik. Bizga xatolarimizdan dars olib, ko'nglimizni xotirjam qiladigan ishlarni qilib yashashga har safar yana bir imkon beriladi.

Jazo olishdan kim qo'rqvadi? Ojizligi sabab buzg'unchi ish qilayotganini bilib turgan odam qo'rqvadi. Odamni o'z izmida tutib turishga intilgan aql esa bu qo'rquvni iloji boricha kuchaytiradi.

Bu bobda gap har qanday ishni oqibatiga qaramay qilaverish haqida ketmayapti. Buzg'unchi ishlarning natijasi albatta odamning o'ziga uradi. Bu yerda gap qo'rquvga tobe bo'lmaslik haqida boryapti. Aytaylik, siz bir ish qilmoqchisiz (chindan ham buzg'unchi ish), ammo uning oqibatida jazo olishdan qo'rquvapsiz va buni qilmayapsiz. Bir qarashda, shu holatda qo'rquv odamni buzg'unchi ishdan tiyib qolyapti.

Biroq men sizga undan samaraliroq yo'lni taklif qilyapman: buzg'unchi ishdan qo'rquvni deb emas – shaxsiy kuchni deb voz keching. Shaxsiy kuchi katta odam u yoki bu maqsadiga erishishning bunyodkor usullari borligini biladi. U buzg'unchi yo'l bilan erishish usuli haqida umuman o'ylamaydi ham, bunday usulni maqsadga erishish usullari ro'yxatiga qo'shmaydi ham. Kuchli shaxs jazodan qo'rquvapsiz – chunki u tashvish olib keladigan yo'llardan yurmay, o'z ahdiga erishadi. Qo'rquvdan erkin bo'lish deganda men aynan shuni nazarda tutaman.

Qo'rquvdan xalos bo'lish uchun bizga aynan shaxsiy kuch kerak. Shaxsiy kuch esa muhimlikni yo'qotish, sergak yashash, dunyonni o'rganib, ilm olish bilan to'planadi. Shaxsiy kuchingiz ko'p bo'lsa, siz yomondan qo'rquvapsiz – yomonning o'zi sizdan qo'rqvadi.

JUMA

Rishtalar

Haqiqiy mas'uliyat

Farzand tarbiyasi – inson hayotida qilishi mumkin bo'lgan eng bunyodkor ishdir. Faqat bir sharti bor – u o'z farzandini kuchli shaxs qilib, baxtli qilib katta qilishi lozim. Agar odam farzandini ojiz shaxs qilib tarbiya qilsa – baxtsizlar safini yana bittaga ko'paytirgan bo'ladi. Bunday shaxs o'ziga va boshqalarga nisbatan juda ko'p buzg'unchi ishlar qiladi.

Nima deb o'ylaysiz – nega dunyoda baxtsizlar ko'p? Nega o'z maqsadlariga erishish uchun tuban yo'llarni tanlaydiganlar bor? Ular qanday qilib shunday ojiz shaxslarga aylanib qolgan?

Ularning ota-onalari yetaricha shaxsiy kuchga ega bo'lmay turib, farzandli bo'lishga qaror qilishgan. Bu ota-onalarning farzandli bo'lishdan maqsadlari butun shaxslarni voyaga yetkazish emas – o'z muhimliklariga ergashish bo'lgan.

Bu gaplarim sizga juda beshafqat tuyilmayaptimi? Farzandli bo'lish – eng oliy baxt-ku, unga intilgan odam xato qilishi mumkinmi?

Odamlar nima uchun farzandli bo'lishni istashlarini bir kuzatib ko'ring. Shuni istayotganlar bilan gaplasting. Odamlar nima uchun farzandli bo'lmoqchi ekaniga tayinli javob bera olmaydi. Chunki odamlar hech qachon o'ziga "men nega farzandli bo'lmoqchiman?" degan savolni bermaydi.

Bir qarashda bunday savol ortiqchadek: odam o'zidan nasl qoldirishi tabiiy holat, bunda qanday maqsad bo'lishi mumkin. Ammo bunda maqsad bo'lishi kerak – **farzand ko'rishdan maqsad dunyoda yana bir kuchli shaxsni yetishtirish bo'lishi lozim.**

Shunchaki, bizdan kimdir shuni kutgani uchun, shunday qilish kerak bo'lgani uchun, odamlarning gapi uchun, o'zini ota-ona deb his qilish uchun yoki shunga o'xshash maqsadlarda farzandli bo'lish – o'ta ketgan mas'uliyatsizlik. Ota-onangizni nabirali qilish uchun, jamiyat sizdan kutgan narsani bajarish uchun, o'zingizni xursand qilish uchun hayotga yangi shaxsni olib kelish – tan oling, yengiltaklik. Bu maqsadlar uchun

bozordan sovg'a sotib olish mumkin, daraxt ekip, bog' yaratish mumkin, bino qurish mumkin – lekin farzandni dunyoga keltirish jiddiyroq asosga ega bo'lishi kerak.

Farzandingiz kim bo'ladi, qanday yashaydi, qay darajada baxtli bo'ladi – sizga bog'liq. Siz alohida bir shaxsni mehrdan kamitmay, bus-butun kuchli shaxs qilib ulg'aytirishga ko'zingiz yetsagina – ota-on a bo'lishdек katta qahramonlikka tayyorsiz.

Farzand tarbiyasi ortqicha muhimlikni ko'tarmaydigan nozik jarayon. Bu ishga kirishish uchun odam shaxsiy va tashqi muhimlikdan holi bo'lishi, shartsiz mehr berishni bilishi lozim. Farzand tarbiyasi bilan band odam o'ziga ortiqcha ahamiyat berishga haqi yo'q – agar shunday qilsa, bundan o'sib kelayotgan nasli zarar ko'radi.

Ichida g'ururi, ginasi, arazi yoki, xudo ko'rsatmasin – nafrati bor odam farzandli bo'lishi juda xavfli. U o'z farzandiga ana shu g'ururini, ginasi, arazini va, afsuski, nafratini meros qilib qoldiradi. Natijada dunyoda hayotdan xafa, odamlarga nafrat bilan qaraydigan yana bir baxtsiz paydo bo'ladi. Aroqxo'r eriga, zolim qaynonasiga, o'zidan go'zalroq dugonasiga bo'lgan nafratini ayol o'z farzandiga o'tkazadi. Bevafo do'stiga, boshqa millat yoki din vakiliga, dushmaniga bo'lgan nafratini ota bolasiga singdiradi.

Siz tayyormisiz farzandli bo'lishga? Hayotingizni shaxsiy muhimlikdan tozalab bo'lganmisiz? Sizning shaxsiyattingiz bog'ida unib-o'sadi bo'lg'usi farzandingiz – xo'sh, bu maydoncha nafrat-u ginalardan, buzg'unchi odat va g'oyalardan tozalanganmi? Shaxsiyattingiz bog'chasini zararli odatlar va ortiqcha muhimlikdan holi qilganmisiz?

Ayolingiz xatoga yo'l qo'ysa, farzandingiz ko'z oldida unga qo'il ko'tarmaslikka shaxsiy kuchingiz yetadimi? O'zingiz istamagan holda bolangizda zo'ravonlikka moyillikni paydo qilib qo'yamsizmi? Turmush o'rtog'ingizga nafrat ko'rsatib, bolangizda qahr ham o'zini oqlaydigan narsa ekaniga ishonchni shakllantirib qo'yamsizmi? Ota bo'lishga tayyormisiz?

Tanangiz yangi hayot uchun uy bo'lishga tayyormi? Undagi hech bir xastalik farzandingiz to'g'ri rivojlanishiga xalal bermaydimi? Homilador bo'lish, sog'lom naslni dunyoga keltirish azoblariga tayyormisiz? Eringiz

xatoga yo'l qo'ysa, uni yomon ko'rishingizni bolangizga bildirib qo'ymaysizmi? Birovga gina saqlash to'g'ri ish ekani haqida bolangizda xato tushunchani shakllantirib qo'ymaysizmi? Molga, pulga, obro'ga ruju qo'yib, bolangizni ham xalq ko'ziga yaxshi ko'rinish uchun o'z tinchidan kechadigan qilib qo'ymaysizmi? Ona bo'lishga tayyormisiz?

Ibn Sino o'z kitoblarida er-xotin farzandli bo'lish uchun to'shakka yotishdan oldin o'zlarini barcha g'uborlardan poklashlari haqida aytgan. Lekin bunda jismoniy poklanish yetarli emas – odam o'z shaxsiyatini ham ayirmachilik va nafratdan, muhimlik va shubhalardan, ginalardan, tamagirlik va nomparastlikdan pok etishi darkor.

Jamiyat – baxtli va baxtsizlardan iborat. Uning baxtsiz vakillari – farzandli bo'lishga tayyor bo'lmasdan farzandli bo'lgan odamlarning farzandlari. Ana shu baxtsizlar “vaqt” kelganda har kim farzandli bo'lishi kerakligi haqidagi “ommabop haqiqatni” sizga ham o'tkazishga intiladi. Siz farzandli bo'lishga moddiy va ma'naviy jihatdan tayyormisiz – faqat siz bilasiz. Buni sizdan nabira kutayotgan ota-onangiz ham, yosh oila bo'lganingiz uchun sizdan farzand kutayotgan jamiyat ham bilmaydi. Shunday ekan, farzandli bo'lish qarorini oqimga ergashib, ota-onalik bo'lish baxtiga intilish sururidan g'aflatda qolmasdan – sergak turib qilish kerak.

Orzu-havas o'z yo'liga. Butun bir odamni dunyoga keltirish – orzu-havasga tayanib qilinadigan ish emas. Bu o'ziga-o'zi jiddiy savollar berib, ularga yetarlicha asosli javoblar olgandagina qilinadigan ish. Bizga berilgan yaratuvchanlik qudratini yetti o'lchab, keyin ishga solishimiz, yangi hayot yaratish uchun mas'uliyatni chuqur anglashimiz lozim.

Yana bir masala. Har tomonlama mulohaza qilgandan so'ng farzandli bo'lishga qaror qildingiz ham deylik. Bo'lg'usi farzandingiz qiz bo'ladimi o'g'ilmi – bu sizga ahamiyatsiz bo'lsin. Agar odam ajratish odatingiz hali tug'ilmagan bolangizga ham amal qilayotgan bo'lsa – demak, siz hali ota-ona bo'lishga tayyor emassiz. Insonning qadri uning jinsi bilan belgilanmaydi – shu oddiy narsani tushunmagan odam, farzandiga qanday tarbiya berishi mumkin?

Farzand – bu, albatta, baxt. Bu eng shirin baxt. Uning yaralishi baxtli lahzalardan boshlanadi. Uning tug'ilishi hayotingizni baxtga to'ldiradi. Uning ilk so'zlari, ilk qadami, birinchi bor besh baho olishi – hammasiga

guvoh bo'lish baxt. Uning o'z umr yo'ldoshini topishi, birinchi marta sevishi, ko'zlari sevgidan porlab turishini ko'rish – baxt. Bir kun kelib, ma'naviy kuchga to'lganda u ham farzandli bo'lishi – farzandini qo'liga olib, baxtdan yayrab turganini ko'rish – baxt. Baxtli farzandlarni dunyoga keltirish va katta qilish – baxt.

Baxt yo'q yerda tug'ilgan farzand – baxt olib kelmaydi. U xuddi sovuq muhitda unib chiqqan gul kabi ana shu muhitga moslashib, shu muhit soyasida jon saqlab katta bo'ladi. Shaxsiy kuchi katta, baxtini o'z ko'nglidan topgan erkin ota-onaga farzand yana-da katta baxt olib keladi.

Bu ish uchun haqiqiy mas'uliyatni to'liq anglamay turib farzandli bo'lish – buzg'unchi ish. Bu yomon ish. Mana shu ishga nisbatan yomon degan sifatni ishlatsa bo'ladi. Alovida shaxslarni tarbiyalab, voyaga yetkazish uchun o'z ustida yetarli ishlagan odam – farzandlarini kuchli shaxs qilib ulg'aytirishiga ko'zi yetgan odamgina ota-onada bo'lismaga haqli. Shu oddiy haqiqatni anglamagan odamning jazosi – uning ojiz va baxtsiz farzandidir.

Mehrning uch yo'nalishi

Yoshlik – ajoyib davr. Umrning har bir pog'onasi o'z jozibasi va hayajonlariga ega. Ammo yoshlik – ularning orasida eng hayajonlisi.

Yoshlik – bu katta qarorlar qabul qiladigan, inson hayotida anchagina muhim o'ren tutadigan tanlovlardan qilinadigan payt. Bu izlash, topish, sinash va o'rganish payti. Qo'rqligini xatolar qilinadigan, ulardan foydali dars olinadigan, tajriba orttiriladigan davr.

Yoshlikda odam yuzma-yuz keladigan tanlovlardan eng kattasi – o'ziga umr yo'ldosh tanlashdir. Bunda kimdir o'z tasavvurlaridan kelib chiqib, "yakka-yu yagona" dilkashini izlasa, kimdir bexosdan kimgadir ishqini tushib, shu insonni o'z dunyosiga olib kirishga intiladi.

Bu tanlovnin amalga oshirishda juda ko'p omillar ishtirok etadi. Bunda hamma omil o'z so'zini aytishga, qarorimizni o'zi tomonga og'dirishga intiladi. Nisbiy haqiqatlarimiz, qo'rquv va komplekslarimiz, orzu-umidlarimiz – hammasi biz hayotda kimga hamroh bo'lismiz kerakligi haqida o'zicha tasavvur beradi.

Odam ijtimoiy mavjudot bo'lgani sabab, uning har qanday tanloviga jamiyatning ta'siri bor. Biz hayotimizga kimnidir kiritishdan avval, uni astoydil ijtimoiy andazalarga solib ko'ramiz. Uning yaxshilik va yomonlik darajasini chamalaymiz. Uni boshqalarga solishtiramiz.

Ammo ijtimoiy omillar qancha bosim o'tkazmasin, inson o'z umr yo'l doshini juda oddiy tamoyillar asosida tanlaydi. Tabiatimiz bunda bari bir ustun keladi.

Masalan, yigitlar har doim tashqi ko'rinishi yoki fe'l-atvori o'z onalariga o'xhash qizni yoqtirishga moyil bo'ladilar. Buning ilmiy isbotlari juda ko'p. Sababi esa juda oddiy: biz dunyoga yaralib, katta mehr qo'ygan birinchi inson onamiz bo'ladi. Shuning uchun ham biz keyingi hayotimizda ham bizga onamizga o'xhash ayol hamrohlik qilishini istaymiz.

Qizlarda ham xuddi shunday – ular ham ko'proq o'z otalariga o'xhash yigitlarni yaqin ko'rishadi. Chunki bolalikdan ota ular uchun g'urur va xavfsizlik ramzi bo'lib kelgan. Otalarida yoqtirgan va hurmat qilgan jihatlarni bo'lg'usi umr yo'l doshlariga ham izlaydilar.

Odam hayotini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin. Birinchisi – ota-onaga mehr davri. Bu davrda insonning bor mehr-muhabbati ota-onasiga qaratilgan bo'ladi. Bu davrda ota-onha ham, farzand ham bir-birlariga shartsiz mehr berib, baxtli yashashadi. Bolalikni bir umr qumsashimiz beziz emas – bolalikdagi kabi mehrni topish qiyin.

Ikkinci davr – umr-yo'l doshiga mehr berish davri. Balog'at yoshiga yetib, ko'ngliga mos insonni uchratganda odam asosiy mehr oqimini endi shu insonga qaratadi. Mana shu yerda bir oz ziddiyatlar kelib chiqadi. Otalar qizlari ularga berib kelayotgan mehrni kim bilandir bo'lishishni istamaydilar. Onalar ham o'g'llari ularga atab kelayotgan mehrga kimdir ega chiqishini yoqtirmaydilar.

Bu holatni na ota-onha va na farzand anglab yetadi. Aslida gap nimada ekanini hech kim bilmaydi, ammo mehr berish ota-onadan boshqa insonga ko'chganda, bunga qarshilik qilish boshlanadi. Bunda nafaqat ota-onha – balki aka-uka va opa-singillar ham "himoya"ga o'tishadi.

Aka yoki ukaning qizni boshqa yigitdan to'sishga urinishi yoki opa yoki singilning yigitni boshqa qizlardan qizg'anishi – tabiiy holat. Bunda ular olishga ko'nikkan mehrning bo'linish xavfi bor.

Qizig'i shundaki, oila a'zolarining bu xatti-harakatlari ularga qarshi ishlaydi. Ko'ngil qo'ygan insonini yaqinlari qabul qilmagan odamning o'z jigarlariga bo'lgan mehri kamayib boraveradi. Chunki balog'at yoshida mehr yo'nalishi o'zgarishi – tabiiy holat va unga qarshilik qilish hech kimga yoqmaydi.

Tasavvur qiling, siz bolalikdan olmani juda yoqtirgansiz. Ammo ulg'aygach, olma ta'mi sizga kamroq yoqa boshladi. Endi sizga qulupnay ko'proq yoqyapti. Men sizga "har doim olmani xush ko'rgansan, nega qulupnayga yopishib olding, ko'proq olma yegin" desam – bunga qanday munosabat bildirasiz?

Umr yo'ldosh tanlashda har xil odam turlicha yo'l tutadi. Kimdir bunda to'liq ota-onasining hayotiy tajribasiga suyanadi. Ya'ni ular uchun eng ma'qul hamrohni ota-onas tanlaydi. Boshqalar o'zlari mustaqil umr yo'ldosh tanlaydilar va yakuniy qarorga o'zlari keladilar.

Birinchi usul vaqt sinovidan o'tgan va o'zini ancha oqlagan. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar topgan umr yo'ldosh bilan yoshlar kelishib yashab ketish ehtimoli ko'proq. Ajrashishlar aynan o'zi topishib, turmush qurgan juftliklarda ko'p uchraydi.

Har ikki usul ham ijobjiy va salbiy xususiyatlarga ega. Ota-onas topgan turmush o'rtoq bilan yangi hayot boshlash – juda qiziqarli bo'lishi mumkin. Bu chindan ham yangi hayot bo'ladi. Ikki yosh bir-birini astasekin o'rganadi, bir-birining turli jihatlarini kashf qiladi. Bu bir-birini o'rganish jarayonida umumiyl qadriyatlar shakllanadi va yelim kabi yosh oilani jipslashtiradi.

Ammo bunda bir xavf bor: mutlaqo bir-birini bilmasdan turmush qurgan ikki yosh dunyoqarashi bir-birinikidan keskin farq qilishi mumkin. Bunda turmushning eng boshidanoq ziddiyatlar kelib chiqadi. Dunyoqarashi turlicha odamlarning qadriyatları ham har xil bo'ladi – ana shu har xil qadriyatlar o'rtasidagi to'qnashuvlar yosh oilaga darz soladi.

Buning oldini olish uchun o'z farzandlariga umr yo'ldosh tanlayotgan ota-onalar bir oz sergak bo'lishlari lozim. Kelin yoki kuyov tanlashda ularning

moliyaviy sharoiti, obro'sini chamalashga uringandan ko'ra – bo'lg'usi kelin yoki kuyovning dunyoqarashi, qiziqishlari va qadriyatları bilan qiziqsan ma'qul. Farzandingizni tushuna olmaydigan bo'lса, shaharning eng katta boyining eng o'qimishli farzandi ham unga munosib emas.

Ikkinci usul tarafdarları tabiatan erkinlikka moyil bo'ladilar: ular umr yo'ldoshlarini ham o'zlari, hech kimning yordami va aralashuviz tanlashni xohlaydilar. Bu yo'lning ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

Bunday yo'ldan borgan ikki yoshning yakuniy qarorga kelishdan avval bir-birini yaxshilab o'rganishga imkonibor bo'ladi. Ular ko'pincha mos kelgan qadriyatlar ortidan topishadilar. Shuning uchun bunday bog'liqlik bir sohada o'qib yoki ishlaydigan, hayotda bir xil yoki o'xshash maqsadga intiladigan odamlar o'tasida yuzaga keladi.

Bu usulning ham bir salbiy jihatni bor: bunday turmushlar ko'pincha uzoqqa cho'zilmaydi. Buning sababi – o'xshash qadriyatlar bo'lgani bilan, umumiyligi – birga yaratilgan qadriyatlarning yo'qligidir. Bunday oilada ikki yosh bir-birini o'zgartirishga – o'ziga moslashtirishga urinadi. Bu esa keskin ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Avval aytganimdek, bu usuldan ko'proq erksevar odamlar foydalanadi – bunday odamlar esa har qanday tazyiqni ko'tarmaydilar (hatto sevgan insonlarining tazyig'ini ham).

Oila barhayot bo'lishi uchun, ikki yosh to'ydan keyin umumiyligi qadriyatlar yaratishga intilishi lozim. Buning uchun o'zaro farqlarga kamroq e'tibor berib, o'xshash jihatlarni mahkam tutish zarur.

Oila – o'zaro hurmat va ishonch poydevorida mustahkam turadi. Bir kun kelib, siz uchinchi davrga – mehr farzandlarga qaratiladigan paytga qadam qo'yasiz. Ana shunda ota-onasi va umr yo'ldoshiga mehr berib tarbiyalangan muhabbatning eng aziz insonlaringiz – bolalaringizga ataladi.

Ketma-ket keladigan bu davrlar hayotning doimiy qonuniyati. Ular bilan bog'liq o'zgarishlarni yaxshilik yoki yomonlik alomati deb emas – tabiiy jarayon deb qabul qilishni o'rganing. Insonning kimga mehr berishi muhim emas – uning mehr berishi muhim. Hech kimga mehr bermagan odam – o'likdir.

Oling, quda – faqat oling

Ikki inson bir biriga ko'ngil qo'yib, yangi oila paydo bo'lganda, avval begona bo'lgan ikki oila bir biriga quda bo'ladi. Yangi oila ikki urug' o'rtasida bir umrlik aloqalar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Aynan oila bugungi jamiyatimizni birlashtirib turgan rishtadir.

Aynan ikki yosh turmush qurgandan keyin hech bir xalqda uchramaydigan "quda-andachilik" odatlari boshlanadi. Chindan ham, men bilgan hech bir tilda "quda" so'zini topa bilmadim. Bu o'zbek kishisi o'z kelini yoki kuyovi oilasiga nisbatan munosabatlarga qanchalik jiddiy qarashidan dalolat.

O'zbek oilalaridagi quda tomon bilan aloqalarga alohida bir kitob (yoki turkum) bag'ishlash mumkin. Ajoyib adiba, jamoat arbobi Tursunoy Sodiqova bu mavzuda juda ko'plab foydali asarlar yaratgan. Men ham bugun bu masalaga bo'lgan qarashlarimni o'rtoqlashmoqchiman. Chunki quda-andachilik atrofida juda ko'p muammolar paydo bo'ladi va insonlarni ko'ngil xotirjamligidan ayiradi.

Birinchi navbatda quyidagi haqiqatni ko'zda tutish zarur: qudangiz – sizning qarindoshingiz emas va u bir umr begonaligicha qoladi. Farzandlaringizning turmushi sizni qarindoshlik iplari bilan bog'lagandek tuyilishi mumkin – lekin amalda ikki oila bir biriga begonaligicha qoladi. Agar o'z qarindoshingiz bilan quda bo'lgan bo'sangiz – unda to'ydan keyin bu qarindoshingiz ham sizga begona.

Bunday deyishimga sabab oddiy. Biz qudalarimizni hech qachon ko'ngildan (tabiatdan) qarindosh deb tan olmaymiz. Shuning uchun ularni nomlash uchun "qarindosh" so'zidan foydalanavermasdan, alohida "quda" so'zini o'ylab topganmiz.

Qudalarning bir biriga begona ekani haqidagi birinchi tamoyilden quyidagi ikkinchi tamoyil kelib chiqadi: qudalaringizdan biror nima kutish kerak emas. Biz, nimagadir, bizga quda bo'lgan (yoki shunga intilayotgan) oiladan nimalarnidir kutamiz, nimalardandir umidvor bo'lamiz. Hamma muammo ana shundan boshlanadi. Umidlarimizning hammasi ham oqlanmaydi, kutganlarimizning hammasi ham bo'lmaydi – va bizda ginalar paydo bo'ladi.

Sizga mutlaqo begona oiladan bir nima kutish yoki talab qilish (shunaqasi ham bo'ladi) mantiqqa zid narsa. U oila farzandi sizning farzandingiz bilan oila qurgani – na ularga va na sizga qo'shimcha burch yuklaydi. Qiz bergenmisiz, o'g'il uylaganmisiz – farqi yo'q. Quda tomon sizning oldingizda hech bir burchga ega emas, siz ular oldida hech bir burchga ega emassiz.

Qudalar bilan eng yaxshi muomala usuli – xuddi aziz, lekin begona mehmondek munosabatda bo'lish. Uyingizga begona insonlar mehmonga kelganda qanday samimiy kutib olsangiz – xuddi shunday kutib oling. Begona mehmonga ichingizda gina bo'lmaydi, undan hech narsa kutmaysiz, unga faqat "oling, mehmon, faqat oling" deysiz. Hech zamonda mehmondan bir nima kutib, "bering mehmon" demaysiz. Qudalar bilan ham xuddi shunday qilgan ma'qul: "oling, quda – bering quda" degan xalq maqoliga ergashsangiz, munosabatlar sovib boraveradi va jabrini yosh oila ko'radi.

To'y-hasham tugab, changlar bosilgandan so'ng ikki quda oila yangi paydo bo'lgan oilani "baxtli" qilish uchun "bellashuv"ni boshlab yuborishadi. Bunda kimdir bezarar usullardan foydalansa, kimdir o'z ojizligi sabab buzg'unchi yo'ldan boradi. Lekin qay usul qo'llanishidan qat'iy nazar, yosh oila bundan aziyat chekadi, zaiflashadi, ba'zan bu bosimga chiday olmay buzilib ketadi.

Chindan ham farzandingiz baxtini ko'zlasangiz – yosh oilani o'z holiga qo'ying. Bu gap yosh oila bilan birga yashaydigan ota-onaga ayniqsa tegishli. O'z uyiga kelin olgan qaynona-qaynota juda sergak va sabrli bo'lishi lozim. Kundalik turmushda yosh oilaga bosim o'tkazmasdan yashash juda qiyin.

Qaynona va kelin munosabatlari haqida men faqat bir narsa aytishim mumkin. Ikkisi ham samimiy bo'lishi kerak. Soxtalik qaynona-kelin aloqalarini izdan chiqaruvchi birinchi omil. Qaynonaning yangi kelindan bir nimalar kutishi tabiiy hol. Ammo kelinga bu umidlarni oqlashga vaqt berish lozim. Undan birdaniga hamma narsani talab qilish yaramaydi. Hech qachon kelinni "kelin" deb ajratish, oilaviy masalalardan uzoq tutish, undan bir nimalarni yashirish kerak emas. O'zingiz uni "begonasan" deb tursangiz – u qanday sizga jigar bo'lsin.

Kelinlarga maslahat – moslashuvchan bo'lish. Qaynona aslida sizdan nima istayapti – shuni anglay bilsangiz, marra sizniki. Mukammal qaynona bo'lmaydi – lekin siz ham mukammal emassiz. Shunchaki, yangi oilangiz a'zolari va qadriyatlarini hurmat qiling. Shunda hammasi yaxshi bo'ladi.

Kuyovlarga maslahat – betaraf bo'ling. Umr yo'ldoshingiz va oila a'zolaringiz ziddiyatga borsa, hech bir tomonda turmang. Ular o'z kurashlarida g'olib chiqish uchun, sizdan foydalanmoqchi bo'ladilar. Siz esa betaraf qoling, toki ular o'zaro kuch sinashib bo'lgach, bu ziddiyatdan hammaga zarar ekanini o'zlari anglab yetsinlar. Ular sizni o'z izmiga solish uchun "meni desang, men taraf turasan" degan kabi usullardan foydalanadi. Lekin bularning bari o'yin va ojizlik onlari – hech tarafga og'masdan, sergak tursangiz, bular o'tib ketadi.

Ayolingiz ota-onasi yoki qarindoshlari muammolariga aralashmang, ular yuzasidan sizning fikringizni ularning o'zi so'ramaguncha, bu haqida gapirmang. Xuddi shunday o'z muammolaringiz bilan ularni ham bezovta qilmang. Ularning o'zi sizga yordam taklif qilsa va bu yordamni olish asosli bo'lsagina, ularning ko'magidan foydalaning.

Kuyovlarning qaynona va qaynota oldida yagona burchlari bor – o'z bekalarini baxtli bo'lishiga imkon berish. Qizi baxtli bo'lsa, har qanday ota-ona kuyovidan rozi bo'laveradi.

Kelinlarga ham xuddi shu tamoyil amal qiladi – beginizni baxtli bo'lishiga qo'yib bera olsangiz, qaynona-qaynota sizdan rozi bo'laveradi. Bundan ortiq narsani kutgan qaynona-qaynotaga har qancha qurbanlik keltirsangiz ham, ularning ko'ngli to'lmaydi.

Albatta, bularning bari yaxshi maslahatlar. Ammo hayotda ular ishlashi juda qiyin. Chunki qudalar har xil bo'ladi. Insoniylikni yo'qotmagan qudalar bor, farzandi turmushi ortidan bir nimalarga ega chiqishni o'ylaydigan qudalar bor.

Shuning uchun biz har doim "yaxshi" odamlar bilan quda bo'lishni istaymiz. Shu bois bo'lg'usi qudalarimizning "yaxshilik" darajasini aniqlashga intilamiz. Eng katta xato ham ana shunda – qudaning yaxshisi ham, yomoni ham sizga hech narsa qilib bermaydi. Ammo farzandingizni ojiz insonga umr yo'ldosh qilsangiz – mana buning azobi

ko'pga yetadi. Shunday ekan, quda tanlashni emas – farzandingizga kuchli odamlarni ko'ra bilishni o'rgatishni o'ylagan ma'qul.

Shu orada yana bir gap: yaqin qarindoshlar quda bo'lishi ikki jihatdan juda zararli odat. Birinchidan, yaqin qarindoshlarning qoni (genetik kodi) yaqin bo'ladi va bu nasl buzilishiga olib keladi.

Ikkinci va eng katta xavf – quda bo'lgan yaqin qarindoshlar begonalashishga mahkumlar. Chunki qudachilik, men avval ta'kidlagandek, begonalik. Buni tan olasizmi-yo'qmi – yaqin jigaringiz bilan quda tutinib, siz uni bir umrga yo'qtasiz. Chunki men bob boshida aytgan "qudadan bir nima kutish" odati qarindosh bilan quda bo'lganda kuchliroq namoyon bo'ladi. "Ha, o'zimning jigarim-ku – quda bo'lsak, u bo'ladi va bu bo'ladi" degan umidlar hali o'rnatilmagan qudachilik rishtalarini oldindan buzib bo'ladi. Qarindosh-qudadan biz ko'proq narsa kutamiz, tabiiyki, oqlanmagan umidlar ham ko'proq bo'ladi. Va ikki qarindosh oila o'zaro ginalar sabab begonalashadi (afsuski, ba'zida begonalardan ham battar uzoqlashadi).

Qudali bo'lism – begona oila bilan ikki yosh baxtli bo'lishi uchun muhit yaratib berish haqida bitim tuzishdir. Bu bitimning ikkitagina sharti bor: birinchisi, ikki quda oila bir biriga begonadir va bir birining oldida hech bir burchga ega emas; ikkinchisi, yosh oila ikki quda oila oldida faqat baxtli bo'lism burchiga ega, xolos. Tamom.

SHANBA

Bunyodkor kuch

Azaliy muvozanat

Shu paytgacha men o'z bayonlarimda din masalasini chetlab o'tishga uringanman. Bunga ko'plab sabablar bor. Ammo inson – ijtimoiy mavjudot, din esa jamiyatning ajralmas qismi. Inson shaxsiyati shakllanishiga din ta'sir qilmasdan qolmaydi. Din ko'pchiligidizning shaxsiyatimizda kattagina rol o'ynaydi. Ba'zi odamlar dinga noto'g'ri yondashish oqibatida, uni odamlarni yaxshi-yomonga ajratish uchun ko'rsatmalar deb qabul qilishadi. Shunday ekan, men qancha buni chetlab o'tishga urinsam ham, suhbatimiz din mavzusiga yetib keldi.

Bu bob insonning shaxsiy rivojlanishida dinding tutgan o'rni haqidagi mening fikrlarimga bag'ishlangan. Ushbu mulohazalar hech bir din tamoyillari muhokamasi emas va ular aynan bir din haqida aytilmagan. Ularning maqsadi u yoki bu dinni yoqlash yoki qoralash, birining boshqasidan ustun ekanini ta'kidlash, qaysidir dinni targ'ib qilish emas. Shuningdek, ushbu fikrlar umumiy din tushunchasini qadrsizlantirishni, dinsizlikni targ'ib qilishni ko'zda tutmaydi. Bu mulohazalar, shunchaki, din va uning inson hayotiga bo'lган ta'siriga sof falsafiy va amaliy jihatdan baho berishga qaratilgan. Ular bilan tanishar ekansiz, ular muallifning shaxsiy nuqtayi nazari ekani, muallif hech bir diniy ta'llimga ega emasligini va din tushunchasiga dunyoviy yondashishini unutmang.

Muhokamani ko'pchiligidiz bir narsa deb biladigan ikki tushunchani aniq farqlab olishdan boshlasak. E'tiqod va din – boshqa-boshqa narsalar. Ikkisining farqini yaxshiroq anglash uchun, keling, ularning yaralish tarixiga ko'z tashlaymiz.

Juda qadim zamonlarda odamlarning dunyo haqidagi bilimi juda cheklangan bo'lган. Ularning dunyosi yashash joyi bilan chegaralangan. Ular o'zlari yashab ov qiladigan o'rmondan tashqarida nimalar borligini bilishmagan.

Qadimgi odamlar ularni o'rabi turgan olam haqida kam narsani bilishgan. Ular uchun juda ko'p narsa sirli va tushunarsiz bo'lган. Atrofdagi ko'p jarayonlar ularda hayrat va qo'rquv uyg'otgan. Hamma narsani ong bilan

qamrab ola olmagan odamzod o'zi tushunmagan ba'zi narsalarga shunchaki ishonish bilan qanoatlanishga majbur bo'lgan.

Masalan, o'rmon aholisi ularning hayoti o'rmondagi turli jonzotlar va o'simliklarga bog'liq ekanini yaxshi bilgan. Bu jonzotlar va o'simliklar yashashi uchun suv kerakligini ham ular bilgan. Bu suvni ularga daryo va yomg'irlar olib kelishini ham ular tushunib yetishgan. Ammo daryo va yomg'irlar qayerdan kelishini anglashga ularning ongi halicha ojizlik qilgan. Buni tushuntirib bera olmagach, ular hayot uchun daryo va yomg'irlar qayerdandir suv olib kelishiga ishonish bilan cheklanishga majbur bo'lishgan. Ana shunday qilib odamda e'tiqod paydo bo'lgan.

E'tiqod odamlarga bunyodkor bo'lishga, atrof-muhit bilan muvozanatda yashashga yordam bergen. E'tiqod sabab qadimgi odamlar boshqa o'simlik va hayvonlarni hurmat qilishgan, daryo va yomg'irga hayot uchun rahmat aytib yashagan.

Ammo ba'zida yomg'irlar kam yog'ib, daryolar qurib turgan. Bu qadimgi odamlarda vahima uyg'otgan – ularning tirik qolishi shubha ostida qolgan. Shunda odamzodda uning hayotini belgilaydigan, ammo uning o'ziga noma'lum bo'lgan kuchlarni nazorat qilish ilinji paydo bo'lgan. Qurg'oqchilik mavsumida yomg'ir chaqirish, daryoni suvga va baliqqa to'ldirish istagi odamzodga bosim o'tkazgan. Avval yomg'ir shunchaki osmondan yog'ishi, daryo tog'dan oqishiga ishonib yashagan odamzod, endi buning ortida turgan kuchlarni tanishga intila boshlagan. Bunda uning tasavvuri juda qo'l kelgan. Aynan tasavvur yordamida odamzod o'ziga osmondan suv yog'diruvchi xudolarni yaratgan va ular bilan aloqaga chiqishga intilgan. Din ana shunday paydo bo'lgan.

Farqini sezyapsizmi? E'tiqod – bor narsani boricha qabul qilib, buning uchun bor narsalarni bor qilgan kuchga shukr aytib yashash. E'tiqod – odamzod dunyoda hamma narsani anglay olmasligini tan olib, o'zi bilgan ilmlardan samarali foydalanish va yangi ilmlarga intilish. Din – anglab va tasavvur qilib bo'lmaydigan kuchlarga tasavvur yordamida qiyofa berishga, ular bilan oldi-berdiga kirishishga intilishdan kelib chiqqan moddiy harakatlar.

Turli tarixiy davrlarda inson turli narsalarga ixlos qilgan. Bugungi kunda insoniyat din evolyutsiyasining uchinchi bosqichida. Din tarixi boshida odamzod **tabiat kuchlariga** sig'ingan. Buning sababi juda oddiy –

qadimgi odam o'z hayoti kimga yoki nimaga bog'liq bo'lsa, ana shu kuch oldida bosh eggan. Turli hayvonlar, tabiiy hodisalar, o'simliklarga sig'inish ana shundan kelib chiqqan.

Vaqt o'tishi bilan insonning dunyo haqidagi bilimlari ortib borgan. Endi u tabiiy hodisalar ortida nima turishini anglab yetgan. Va bu bilimlar yerdagи jarayonlarni samoviy jismlar boshqarishini ko'rsatgan. Odamzod endi **samoviy kuchlarga** (oy, quyosh va yulduzlarga) sig'ina boshlagan. Bunda atonizm (ya'ni quyoshga sig'inish) eng keng tarqalgan din bo'lган. Chunki odamzod o'z hayoti quyoshga bog'liq ekanini yaxshi bilgan. Oy va yulduzlar ahamiyati kamroq bo'lган, chunki ular tunda yoritgich yoki kompas vazifasini o'tagan, xolos.

Vaqti kelib, odamlar quyosh, oy va yulduzlar ham aslida nima ekanini anglab yetishgan. Ularning shu paytgacha xudo deb bilgan kuchlari aslida moddiy dunyo tarkibi ekani fosh bo'lган. Shunda odamzod shu borliqni yaratgan **ilohiy kuchga** yuz tutgan. Bugungi kundagi eng katta dinlar asosida turgan e'tiqod yolg'iz yaratuvchiga ishonishdir.

Yuqoridagi jarayonni men bejiz din evolyutsiyasi deb atamadim. O'z xususiyatiga ko'ra, e'tiqod tarix boshida qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan: biz bugun ham bizning hayotimiz biz anglay bilmaydigan ilohiy kuch qo'lida ekanini tan olib yashaymiz. Bu jihatdan ibtidoiy odamlardan hech bir farqimiz yo'q.

Shunday qilib, e'tiqod – yaratuvchi kuch borligiga, bizning hayotimiz unga bog'liq ekaniga shartsiz va so'zsiz ishonish (ya'ni buni bilish), hayotimiz mavjudligi uchun ana shu qudratga shukr keltirish, dunyo va uning tarkibiy qismlarini yaxshi-yomon bo'yog'iga botirmay o'rganish, ilm izlash demakdir. Din esa – biz anglay olmaydigan qudratga xayolan shakl va xislat berishga, ana shu shakl va xislatlar orqali uni tanib olishga, u bilan muloqotga kirishishga, uni hayotimizni biz istagan o'zanga solishga ko'ndirishga intilishdir. Ana shu ilinj sabab buyuk piramidalar va panteonlar qurilgan, ana shu ilinj sabab hashamatli cherkov va masjidlar barpo qilingan.

Ibtidoiy din vakillari qurbanliklar keltirib, olov atrofida raqsga tushib, yomg'ir doim o'z vaqtida yog'ishini, daryo hech qachon qurimasligini ta'minlamoqchi bo'lishgan. Ular qurg'oqchilik ham, shunchaki, buyuk azaliy muvozanatning bir qismi ekanini tan olishni istashmagan va bu

holatni o'zgartirib bo'lsa ham o'z tirikliklarini **kafolatlamoqchi** bo'lishgan. Bugungi din vakillari ham o'z dinlari tamoyillariga to'liq amal qilgan holda, xato qilmasdan yashashga intilib, o'zlariga jannatni kafolatlamoqchilar. Bunda ular o'zlari qilgan xatoni ham, boshqalar qilgan xatoni ham kechira olmaydilar – insonni nomukammal qilib yaratish ham buyuk azaliy muvozanatning bir qismi ekaniga ko'na bilmaydilar.

Din – aslida juda bunyodkor kuch. Agar uning tamoyillariga to'g'ri yondashsa – din insonni buyuklikka yetkazishi, ko'p bunyodkor ishlar qilishi mumkin. Ammo insonda eng avvalo e'tiqod mustahkam bo'lishi lozim. Kishi dinning hamma tamoyillariga amal qilgani bilan, qalbida e'tiqodi zaif bo'lsa – dinning u uchun hech bir nafi yo'q. Ana shunday e'tiqodi zaiflar dinni vosita qilib, boshqalarga zulm qiladi. Ana shunday e'tiqodi zaiflar nasroniyi musulmonga, musulmonni yahudiyga dushman deb biladi, o'zini boshqalardan haqroq yo'lidan borayotganini ta'kidlaydi.

Dini bor, ammo e'tiqodi zaif odam o'z dini tamoyillarini boshqalarni qoralash, gunohkor deb bilish – odamlarni yaxshi va yomonga ajratish uchun ishlatadi. Bunday odam dinni bahona qilib, o'zini kimgadir qahr qilishga haqli deb biladi. Bunday odam din yo'lida kimnidir o'ldirish – haq ish ekaniga ishonadi. Boshqa jonzot yoki insonni qoralash, jazolash yoki o'ldirish haq ish ekaniga ishonishning o'zi – zaif e'tiqod belgisidir.

Din – xuddi fan kabi bilimlar majmuyidir. Har qanday bilimlar bunyodkor ishlarga safarbar qilinishi mumkin bo'lganidek, vayronkor maqsadlarga qaratilishi ham mumkin. Bir xil bilimdan kimdir insonlar hayotini farovon qilish uchun foydalansa, kimdir ko'pchilikka ofat keltiruvchi qurol yasashda foydalanadi. O'z-o'zicha bilimlar ezgu yoki yovuz bo'lmaydi – odamlar ularni u yoki bu yo'nalishda ishlatadi.

Agar diniy tuyg'ularingiz sizni kimnidir qoralash, kimdandir nafratlanish, kimgadir qahr qilishga undayotgan bo'lsa – menimcha, siz dinni yetarlicha to'g'ri tushunmagansiz. Hech bir e'tiqod va uning asosida yaralgan din odamni buzg'unchi ishga undamaydi. Siz o'sha qoralamoqchi bo'lgan narsa yoki shaxs ham shu dunyoning bo'lagi – uni ham e'tiqodingiz ulug'laydigan buyuk qudrat yaratgan. Xudo yaratgan dunyoning qismini qoralash, tanqid qilish, undan nafratlanish to'g'rimikan?

Umuman, nafrat – dinga xos bo'limgan tuyg'u. E'tiqodi butun odam nafratdan nari yuradi. Faqat mehr yaratuvchi kuchga ega. Nafrat – shaytoniy tuyg'u. U faqat vayron qilishni biladi. Shuning uchun qahrga berilganda biz nimalarnidir sindirgimiz, buzgimiz keladi.

Dinning asl mohiyatini yaxshi anglamaganlar boshqacha hayot tarzini tanlaganlarga nafrat bilan qarashga odatlangan. Buning sababi ularning o'zları yagona to'g'ri yo'lidan borayotganliklariga ishonishidir. Ammo haqiqatga borish yo'llari cheksiz ko'p – **din ulardan biri, xolos**.

Dunyoda dinlar qadrini tushirayotgan va dinga nisbatan ishonchszilik, hadiksirash hisini paydo qilayotgan voqealar ortida dinga noto'g'ri munosabat turadi. Dinni o'z shaxsiy manfaatlariga erishish, boshqa odamlarni o'z izmiga solish uchun ishlatajigan odamlar va guruhlar faoliyati natijasida ommada din haqida asossiz salbiy tasavvur uyg'onmoqda. Yana qaytaraman - din o'z-o'zicha buzg'unchi narsa emas, undan alohida odamlar va guruhlar buzg'unchi maqsadlariga erishishda foydalanadilar, xolos.

E'tiqod haqiqatga erishish uchun nima qilish kerakligini aytadi: "ilm izla, shukr keltir, bunyodkor ishlar qil". Din shularni qanday qilish kerakligini aytadi: "falon kitobni falon marta o'qib chiq, boyligingdan sadaqa ber, ibodatxona qur". Asrlar davomida din ana shunday ko'rsatmalarning eng sara va samaralilarini jamlab keladi. Natijada bu ko'rsatmalar inson hayotining deyarli hamma jihatlarini qamrab olgan va ularning barchasiga amal qilishga bitta odam umri davomida ham ulgurmasligi mumkin. Ba'zida bir dinning ichida turli xil ko'rsatmalar paydo bo'ladi va alohida yo'nalish, mazhab va oqimlar kelib chiqadi.

Biznikidan boshqacha yo'lidan borayotganlarni hurmat qilishni o'rgansak – ana shunda bunyodkor shaxs bo'lamiz. Ana shunda dinimiz bizga ato etgan bilimlardan o'zimiz bilmay boshqalarni ayplashda foydalanmagan, bu bilimlarni o'zimiz va yaqinlarimiz hayotini baxtliroq va mazmunliroq qilishga safarbar qilgan bo'lamiz.

Bu bobda men bildirgan fikrlar ba'zi o'quvchilarda norozilik hisini uyg'otishi mumkin. Balki, kimlarningdir mendan ko'ngli ham qolar. Nailoj – diniy tuyg'ularingiz men va men bildirgan fikrlarni qoralayotgan bo'lsa, bu sizning tanlovingiz. Mening e'tiqodim har bir inson o'z nuqtayi nazarini erkin aytishi, tabiat va jamiyatni anglashga intilishi, boshqacha

hayot tarzini yuritadiganlardan ham ilm olish mumkinligini ta'kidlaydi. Men bilgan va tushungan e'tiqod man qilish usulidan emas – ruxsat berish usulidan borib meni tarbiyalaydi. U qaysidir ishni qilishni man qilmaydi – u vayronkor ishlarni tanish, ularning oqibatini bilish va ulardan tiyilishga ruxsat beradi. U odamlarni yaxshi-yomonga ajratmaslikni, Xudoning har qanday mavjudotiga mehr bilan qarashni, kim bu dunyoda bo'lishga haqli-yu, kim haqli emasligini Xudoning o'rniga hal qilishga urinmaslikni o'rgatadi.

Mening din va uning mohiyati haqida aytishim mumkin bo'lgan gaplarim shular. Vaqt o'tib, ilmim oshsa, yana bir nimalarni aytishim mumkin bo'lar. Ammo bir narsani o'ylab ko'rishingizni istardim: bu fikrlarni bildirishdan mening maqsadim qanday? Dinni muhokama qilishdek qaltis mavzuga men bunyodkor maqsadda murojaat qildimmikan?

Bu savolga javobni har bir o'quvchi o'zicha – o'z shaxsiy kuchidan kelib chiqib beradi. Kimdir men aytgan fikrlarni hayotini ayirmachilik va nafratdan tozalashga taklif deb bilsa, kimdir bu bilimlarni ham kimnidir qoralash va o'zini oqlash uchun ishlatadi. Meni o'zim anglamagan narsalar haqida cheklangan savodimga tayanib bilib-bilmay bir nimalar yozganlikda ayblovchilar ham bo'ladi. Nima bo'lganda ham, so'ngi tanlov o'zingizda.

Qudratning to'rt pog'onasi

Bizga berilgan hayotiy quvvatni biz turli xil maqsadda va usulda ishlatamiz. Ana shu quvvatimizni nimaga va qanday sarflashimiz hayotimiz asosini belgilaydi. Hayotiy quvvatni aniq bir maqsadga qaratishning to'rt bosqichi bor. Bu bobda biz ana shu to'rt bosqich bilan tanishamiz.

Birinchi pog'ona – fikr. Deyarli hamma xatti-harakat boshida fikr turadi. Uning moddiy dunyoga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri juda kam – u faqat odamning o'ziga ta'sir qiladi, xolos. Falsafani moddiy manfaat quroliga aylantirishga intilgan odamlarga juda yoqib tushgan "Sir" ("Secret") hujjatli filmida targ'ib qilingan "fikr kuchi" haqiqatdan ancha yiroq. Fikr faqat odamning o'ziga – uning jismoniy va ruhiy holatigagina ta'sir qiladi. Masalan, fikr odamni jismoniy yoki ruhiy azob chekishga majbur qilishi

mumkin. Yomon xotiralarni eslash tanamizning ma'lum qismida zo'riqish va og'riq hisini uyg'otadi.

Ammo, avval aytganimdek, fikr ko'pchilik amallar asosida turadi. Shuning uchun u quvvat taqsimlanishida hal qiluvchi o'rinni tutadi. Odam aynan o'zining fikriga asoslanib u yoki bu ishni qiladi, u yoki bu gapni gapiradi. Agar fikr noxolis bo'lsa, undan kelib chiqqan amal ham noxolis va zararli bo'ladi.

Bir odamning fikrini bir guruh odamlar qabul qilsa – bu fikr ijtimoiy fikr yoki g'oyaga aylanadi. Aytaylik, bir guruh talabalar orasida kimdir jamoa bo'lib tog' sayohatiga borishni o'yladi va bu fikrini hamma bilan o'rtoqlashdi. Agar bu fikrni guruhning boshqa a'zolari qabul qilsa – bu endi g'oya. Endi tog' sayohatiga borish fikrini amalga oshirishga ko'pchilik kirishadi. Bunda ko'pchilikning hayotiy quvvati bir o'zanga solinadi va natija shunga yarasha bo'ladi. G'oya o'z kelib chiqishiga ko'ra fikr bo'lgani uchun, u noxolis bo'lsa – uning asosida qilingan ish ham noxolis va zararli bo'ladi. Do'stlarini kaltaklagan bolani bir to'da bo'lib borib, jazosini berib kelish g'oyasi bir guruh yigitlarni buzg'unchi ishga boshlaydi.

U yoki bu g'oyani butun jamiyat qabul qilsa – bu g'oya mafkuraga aylanadi. Mafkura ham ijtimoiy fikr, faqat uni butun jamiyat yoki uning aksari qismi qabul qilgan. Natijada uni amalga oshirishga juda ko'p odamning hayotiy quvvati safarbar qilinadi. Mafkura ham noxolis fikrga asoslanishi mumkin. Bunday holatda uning ergashuvchilari juda buzg'unchi ishlar qilishi mumkin. Natsizm mafkurasi dunyoda hali-hanuz juda xunuk ishlarga sabab bo'lmoqda.

Bu ta'riflar sizga matabdagi milliy istiqlol g'oyasi darsini eslatmayaptimi? To'g'ri – bu bilimlar o'sha darsliklarda berilgan. Ammo biz bugun fikrga shaxsiy o'sish nuqtayi nazaridan qarayapmiz. Biz inson hayotiy quvvati fikrga qanday sarflanishini bilmoqchimiz. Fikrning ijtimoiy jarayonlarda tutgan o'rni esa jamiyatshunoslarning bosh og'rig'i.

Fikr hayotiy quvvat qaysi tomonga qaratilishini belgilab beradi. Shuning uchun u iloji boricha xolis va sergak bo'lishi lozim. Keraksiz fikrlarga quvvat sarflashdan esa umuman tiyilgan ma'qul.

Ikkinchı pog'ona – bu so'z. Inson o'z aqli yordamida ma'lumot almashish usulini o'ylab topgan. Nutq – bizning eng katta kashfiyotlarimizdan biri. Muloqotsiz jamiyat paydo bo'lmas edi. So'z – fikrni boshqalar bilan ulashish usuli. Aynan so'z yordamida fikr g'oyaga, g'oya mafkuraga aylanadi. So'zning hayotiy quvvat taqsimlanishidagi vazifasi – fikrni boshqalarga yetkazish va shu fikrga ko'pchilikning hayotiy quvvatini jalb qilish. Gitlerning butun nemis xalqi miyasiga natsistik fikrlarni quyib qo'yishida uning tengsiz notiq ekani katta rol o'ynagan.

Fikr so'zga aylangandagina tashqi dunyoga ta'sir qila oladi. Siz kim haqidadir yomon o'ylashingiz mumkin – ammo buni uning o'ziga borib aytsangizgina unga ta'sir qilasiz. So'z bilan odamlarning dardini yengillashtirish yoki aksincha – azobini oshirish mumkin. Albatta, agar siz borib so'zlayotgan odam kuchli shaxs bo'lса, u sizning gaplaringiz ta'siriga tushmaydi va sergakligini saqlab qoladi. Ammo so'z qudratli qurol – shu bois so'zning ta'sir kuchidan yozuvchi va jurnalistlar, reklamachilar, psixologlar, siyosatchi notiqlar, ustoz va tarbiyachilar katta mahorat bilan foydalanishadi.

U yoki bu fikrga sarflangan hayotiy quvvat so'z yordamida boshqalarga o'tishi mumkin. Kuchli hayotiy quvvat yuklangan nutq tinglovchilarga hayotiy quvvat beradi va ular nutqdan zavq oladilar. Katta quvvatga ega nutq bilan tinglovchini ruhlantirish, unga g'ayrat va shijoat berish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish mumkin. Bunda, tabiiyki, notiqning o'zi katta quvvat yo'qotadi va holsizlanadi.

So'z – hayotiy quvvat sarflanishidan kelib chiqadi. Shuning uchun uni oqar suvdek oqizib qo'yish – katta isrofgarchilik. Mahmadona odam kerakli-keraksiz gaplarni gapirib, o'z hayotiy quvvatini sovuradi. Soqov odamlar bekorga jismonan baquvvat va sog'lom bo'lismaydi – ular nutqqa sarflaydigan quvvatni tejab qoladilar. Donolarga ham kamgaplik xos – ular ham keraksiz aytilgan so'z bekorga sarflangan quvvat ekanini yaxshi bilishadi.

Uchinchi pog'ona – amal. Fikrning moddiy ko'rinishda namoyon bo'lish usullaridan yana biri – bu amal. Biz o'z fikrimizga ergashib, u yoki bu ishga qo'l uramiz. Bunda ham fikrga ajratilgan hayotiy quvvat amal yordamida moddiy dunyoga ta'sir qilishga qaratiladi. Masalan, men

o'zimdan bog' qoldirishni o'yladim. Bu fikrim bog' uchun yer maydon tayyorlash, mevali daraxtlarni ekish tarzida amalga oshdi. Men bu amalga qancha ko'p hayotiy quvvat sarflasam – bog'im shuncha katta va ko'rkar bo'ladi.

Amalga so'zga yoki fikrga nisbatan ko'proq hayotiy quvvat sarflanadi desangiz, adashasiz. Albatta, amal bizdan jismoniy faollik talab qiladi – ammo unga ham kam yoki ko'p hayotiy quvvat sarflash mumkin. Ba'zida biz u yoki bu ishni e'tiborsiz va ishtivoqsiz qilamiz. Bunda amalga kam hayotiy quvvat sarflanadi va u epsiz chiqadi. Bunday ish natijasi ham shunga yarasha samarasiz bo'ladi. Shuning uchun ba'zida "yurakdan" aytilgan so'zga odam "qo'l uchida" qilingan ishga nisbatan ko'proq hayotiy quvvat sarflaydi.

Fikrga sarflangan quvvat atrof dunyoga kam ta'sir ko'rsatadi. Xuddi shu quvvat so'zga sarflansa – ta'sir kuchliroq bo'ladi. Agar shu quvvat amalga aylansa – natija yana ham kattaroq bo'ladi. Qudratning bu uch pog'onasida quvvat ta'siri oshib boradi.

To'rtinchi pog'ona – ahd. Eng kam quvvat bilan eng kuchli ta'sirga ega qudrat bu ahddir. Fikr ahdga aylanganda unga sarflangan quvvat to'g'ridan-to'g'ri moddiy dunyoga ta'sir qiladi. Bunda ishonch, taxmin, gumon, ilinj bo'lmaydi – bunda bilim bo'ladi. Odam o'ylagan fikri amalga oshishini biladi, buni oddiy holat deb qabul qiladi.

Fikrga ajratilgan hayotiy quvvat amal va so'z holatida jismoniy quvvatga aylanib tashqi dunyoga ta'sir qilsa, ahdga aylangan fikr hayotiy quvvatni to'g'ridan-to'g'ri tashqi dunyoga yo'naltiradi. Aslida amal va so'z ortida ham ahd turadi – fikr aynan ahd orqali amal yoki so'zga aylanadi. Bu narsaga shunchalik ko'nikkanmizki, buni hatto payqamaymiz ham.

Shubha va qo'rquvlardan holi bo'lgan sof ahd juda qudratli kuch. Bunday ahdga ega odamning hayotiy quvvati atrofdagi odamlar va moddiy jismlarga ta'sir qila oladi. Bu hayotiy quvvat uning ahdini amalga oshirish uchun atrof-dunyoga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Sof ahd egasining gapiga odamlar oson ko'nadi, kerakli narsa doim tayyor bo'ladi, qurolvositalar benuqson ishlaydi, muammolar chiqmaydi.

Ammo sof ahd bilan ham hamma narsaga erishib bo'lmaydi. Masalan, men uchishni ahd qildim. Bu ahdimni amalga oshirish uchun juda kuchli

fizika qonunlarini yengib o'tadigan quvvat kerak. Mening hayotiy quvvatim bunga yetmaydi va bu ahdim amalga oshmaydi.

Ahd – tushuntirish juda qiyin bo'lgan kuch. Buning nima ekanini faqat amalda ishlatibgina bilish mumkin. Niyatlarining ahdga aylanishi uchun shubha va qo'rquvlardan xalos bo'lish zarur. Ana shunda qudratning eng yuqori pog'onasi – ahd aslida nimalarga qodir ekanini bilib olasiz.

Ilm chirog'i

Tasavvur qiling, zim-zijo o'rmonda ketyapsiz. Har bir qadamingizni juda ehtiyoj bo'lib tashlaysiz. Har bir qadam qo'rquvnini yengish uchun katta quvvat sarflash evaziga amalga oshadi. Zulmat sizga oldinda nima borligini bilishga to'sqinlik qiladi – ana shu oldinda nima borligini *bilmaslik* sizni qo'rquv va gumanlar orasida qoldiradi.

Endi qo'lingizga chiroq tutqazildi deylik. Qadamlaringiz darrov dadillashadi – endi hadiksiz ildam yurasiz. Nega? Nega bo'lardi – chunki endi siz yo'lingizda nima borligini *bilasiz*. Ana shu bilim sizdagi qo'rquv va shubhalarni yo'qqa chiqaradi. Ana shu bilim tufayli endi siz qo'rquvnini yengishga quvvat sarflamaysiz.

Yuqoridagi misolda hal qiluvchi omil chiroq va u bergen yorug'lik emas. Sizga chiroq o'rniga o'rmonni yaxshi biladigan yo'lboshchi yoki qorong'ida ko'rishga imkon beradigan maxsus qurilma taklif qilinsa ham – natija xuddi o'sha bo'ladi. Bunda hal qiluvchi omil – bilimdir.

Bilim – ajoyib narsa, qudratli kuch. U sizga qo'rquvnini yengishga yordam beradi. Aytaylik, Ali va Vali tubsiz jar yoqasida turishibdi. Ali qo'rquvdan dag'-dag' titrayapti (ya'ni juda katta miqdorda hayotiy quvvat yo'qotyapti). Vali bo'lsa mutlaqo xotirjam. Qanday qilib? U hayotdan to'yanmikan? Bo'lsa bor. Balki, u uchishni bilar. Shubhali. U bir nimani biladiki, shunchalik xotirjam. Qo'rquvgaga bir chimdim ham quvvat bermayapti.

Vali Ali bilmagan bir nimani biladi. Nimaligi ahamiyatsiz – **bilishi** ahamiyatli. Ana shu bilim uni qo'rquv oldida yengilmas qilib qo'ygan. Ana

shu bilim tufayli u qonida sergak fikrlashga xalal beradigan adrenalin ko'payishiga yo'l qo'y mayapti. Valining bilgan narsasi juda oddiy – ammo natijasi ulkan.

Mana siz hozir Vali nimani bilar ekan deb o'ylayapsiz. Yetarlicha qiziqtirsam, bu narsa haqida ancha o'ylab yurasiz. Bizga hamma narsani o'rgatgan qiziquvchanlik bunday hollarda darrov ishga tushadi. Aql o'zi shunaqa – bir nimani bilishiga yaqin borsa-yu, bila olmay qolsa, shuni bilmaguncha (yoki bu haqida unutmaguncha) odamni ezib yuboradi. Aqlning bu odati bo'limganda – seriallar bunchalik odamlarni "ilintir"magan bo'lardi.

Ali va Vali misolidan nima xulosa chiqardingiz? "Vali nimani bilishini tagiga yetish kerak" degan xulosa chiqargan bo'lsangiz – aqlning tuzog'iga tushibsiz. Asl xulosa shundaki, Valiga o'z hayotiy quvvati ustidan nazoratni to'liq saqlab qolishga imkon bergen narsa – bilim.

Aytaylik, Valining bilgan narsasi haqidagi taxminga qiyidagi javoblar bor:
a) u o'lim haq ekanini biladi (shunchaki buni ko'p eshitgan emas – buni biladi), har kim bir kun kelib bu dunyoni tark etishini biladi; **b)** u o'lim bu boshqa hayotning boshlanishi ekanini biladi (bunga ishonadi emas – buni biladi); va **c)** u jar aslida jar emas – shuchaki yerga mohirona chizib qo'yilgan surat ekanini, qorong'ida u haqiqiy jarga o'xshab ko'rinyotganini biladi.

Xo'sh, Valining siri nimada ekan? **C** javob juda o'ziga tortadi, shunday emasmi? Lekin gap A, B yoki C javobda emas – gap Valida javob varianti borligida. Ali bunda shunchaki "shpargalka"siz, xolos.

Bu shunchalik oddiy narsalarki, bu haqida yozib o'tirish ortiqchadek. Ammo gap shundaki, odamlar bilim aslida nimaga kerak ekanini ko'p hollarda unutib qo'yishadi. Bir nimani bilishga intilmaydiganlar o'zlarini qanday ojizlikka mahkum etayotganliklarini o'ylab ham ko'rmaydilar.

"Men tilchiman, kimiyoni bilishim shart emas", "Men doktorman, huquqiy masalalar bilan boshimni qotirib nima qildim", "Men duradgorman, odamni buyragi qayerda joylashganini bilib qayga borardim"...

Shu o'rinda bir savol: o'zlikni bilish – o'zini anglash odamga nima beradi? Bu turkum kitoblarning hammasi ana shu savolga javob berishga bag'ishlangan.

Bilimning ukasi bor – taxmin. U ham bizga ba'zida yordam beradi. Oliygohga kirish imtihonlarida taxminiy javoblari ham to'g'ri chiqqan talabalar buni yaxshi biladi (taxminlar ham ba'zida to'g'ri chiqishini bilish ham – bilim, u ham odamga nazorat beradi). Ammo, nimagadir, ko'pincha taxminlar o'zini oqlamaydi. Kimdir taxminiy javoblar berib, imtihondan yiqiladi.

Gap nimada ekan-a? Balki, kimdir omadliroq, kimdir toledan bir oz qisilgandir? Bu – o'zini oqlamaydigan taxminlardan biri. Gap omadda emas. Gap hayotiy quvvatda.

Hayotiy quvvati ko'proq odamning taxminlari ko'proq to'g'ri chiqadi. Chunki bunday odamning **intuitsiyasi** kuchli bo'ladi. Intuitsiya – hayotiy quvvatdan kuch oladi. Odamning hayotiy quvvat darajasi qancha yuqori bo'lsa, uning to'g'ri taxmin qilish qobiliyati shuncha kuchli bo'ladi.

Biz oladigan ko'pchilik bilimlar bilvosita olinadi. Ya'ni biz u yoki bu narsani qandaydir vosita orqali o'rganamiz (ko'rib, eshitib, harakat qilib yoki fikrlab). Bilim olishda hayotiy quvvat avval jismoniy kuchga aylanadi, keyin bilim olish vositalariga sarflanadi. Bunda, anglab turganingizdek, fikrlashga eng katta kuch ketadi.

Biroq intuitiv bilim – bevosita olinadi. Bunday bilimni tanamiz (ongimiz, ruhimiz – shunchaki, biz) to'g'ridan-to'g'ri atrof-dunyodan olamiz. Intuitsiya hayotiy quvvatni boshqa tur quvvatga aylantirmay, uni sofligicha bilimni olib kelishga qaratadi. Bunday olingan bilim haqida "Qayerdan bilasan?" degan savolga odam javob bera olmaydi (yoki o'z-o'zini rad etadigan juda kulgili javob beradi: "Bilmadim, bilaman-da").

Odam kundalik hayotida intuitiv bilimni faqat kichik holatlarda o'zi bilmagan holda ishlatadi. Ertalab sababsiz qalin kiyinadi va kechga borib ayoz tushganda bundan xursand bo'ladi. Rejasiz yo'lga chiqadi, ammo manzilni oson topib boradi. Hozir soat necha ekanini soatga qaramay aniq topadi. Agar odam hayotiy quvvatini oshirsa, intuitsiya ham shunga monand kuchayib boradi. U endi kattaroq va kengroq narsalarni shunchaki biladigan bo'ladi.

Intuitsiya kuchayishining bir ajoyib foydasi bor: bu aql faoliyatini kamaytiradi. Bilamizki, aqliy jarayonlarga katta quvvat sarflanadi.

Intuitsiya kuchaysa, aqldan kundalik fikrlarning bir qismini yechadi va ularning vazifasini juda oz quvvat sarflab o'zi bajaradi.

Masalan, shaxsiy kuchi kam odam notanish shaharda ketyapti. U har burilishda qiyin fikrlash jarayonidan o'tadi: "Bu yoqqa burilsam, u bo'ladi bu bo'ladi. Sharqqa yursam-chi? Yo'lning oxiri berk bo'lsa-chi? Qaytib chiqib keyin bu yoqqa yurishimga to'g'ri keladi".

Kuchli shaxsga bunday holatda uning kuchli intuitsiyasi yordam beradi. Uning aqliga intuitsiya aytib turgan tomonga yurishni nazorat qilish qoladi, xolos.

Demak, bilim – odamga hayotiy quvvat ustidan nazorat beradi. Buning natijasida hayotiy quvvat qo'rquv va shubha kabi zararli odatlarga sarflanmaydi. Natijada hayotiy quvvat tejaladi va ortadi. Natijada odamning intuitsiyasi kuchayadi va kam quvvat sarflab yangi bilimlar orttiradi. Va jarayon yana takrorlanadi: bilim quvvatni oshiradi, quvvat – bilimni...

Ilm oviga chiqing. Bu xuddi kuch ovlashday gap. U atrofimizda cheklanmagan miqdorda yastanib yotibdi – gap uni ko'rishda va olishda, xolos. U hammaga va har doim yetadi. Uni olish uchun imtihondan o'tish yoki kimgadir pul berish kerak emas. U eng tekin narsa. Eng buyuk qudratlar suv va havo singari tekin bo'ladi.

Zulmat o'rmonda borar ekanmiz, yo'limizda qanchalik erkin ketishimiz qo'limizdagi chiroqqa bog'liq. U qancha yorqin bo'lsa – yo'limiz shuncha nurafshon bo'ladi. U chiroqning nuri – bilim, moyi – izlanuvchanlik. Bilimni rad etadigan johillar esa – quyoshli kunda ham o'rmonda ko'zlarini ataylab yumib yurishni tanlagan odamlardir.

Yana bir yolg'on

Bu galgi suhbatimizni yaxshi va yomon haqidagi buyuk yolg'oni fosh qilishdan boshlagan edik. Suhbat yakuni ham yana bir yolg'oni fosh qilishga bag'ishlanadi. Bu yolg'on odamlar hayotini behuda sarflanishiga sabab bo'ladigan va bizni doimiy va asossiz aldaydigan yolg'ondir.

Umid – odam o'zini aldash uchun ishlataidan eng katta yolg'on. Umidni ulug'laydigan, uni yaxshi narsa deydigan, usiz hayot mazmunsiz deydigan har qanday ta'kidni kallangizdan chiqarib tashlang. Umid – aql sizning ahdingiz sari boradigan yo'lingizni to'sish uchun qo'ygan soqchisi.

Biz juda ko'p narsaga, juda ko'p narsadan, juda ko'p odamdan umid qilamiz. Umiq bizni mudom bir nimani kutishga, harakat qilishni, maqsadlar sari intilishni ortga surishga – hayotimiz va baxtimiz uchun javobgarlikni yelkamizdan soqit qilishga undaydi.

Umid – shaxsiyati ojiz odamning odati. Shaxsiy kuchi o'z niyatlarini ahd darajasiga olib chiqishga yetmagan odam umid qiladi. Hamma narsa u istagandek bo'lismeni, bunda unga tobe bo'limgan qandaydir kuchlar va vaziyatlar hammasini uning foydasiga hal qilishini kutadi. Kutadi va kutaveradi.

Mana men bir nimani istadim deylik. Shu istagimga erishish uchun, bu niyatim ahdga aylanishi va harakat tarzida namoyon bo'lishi kerak. Keling, bunda menga juda yoqadigan muzqaymoq misolini ishlatakim. Men salqin joyda o'tirib, muzqaymoq yegim kelib qoldi. Bu istagim ahdga aylansa, ko'cha issiqligiga qaramay, men muzqaymoq olgani darhol boraman va ko'nglim tusagan muzqaymoqni olib yeyman. Lekin ana shu niyatim ahdga aylanish yo'lida bir to'siqqa – umidga urilib to'xtaydi. Men opamga qo'ng'iroq qilsam, u ishdan qaytayotganda menga men istagan muzqaymoqni olib kelishi mumkin. Muzqaymoq yeyish istagimni amalga oshirishda men endi opamdan umidvor bo'laman va niyatim ahdga aylanmay, umid shaklida qotib qoladi. Endi men opamning ish vaqtin tugab, u mening umidimni oqlashi va menga muzqaymoq olib kelishini kutaman.

Bu juda oddiy misol – ko'nglim tusab qolgan muzqaymoqni umid qilib kutish katta zarar keltirmaydi. Ammo biz kattaroq va dolzarbroq niyatlarimizni ham umid qafasiga solib qo'yib, bir nimani kutamiz. O'qishga yoki ishga kirishga, farovon turmush qurishga, mukammal umr yo'ldoshini topishga, baxtli bo'lishga umid qilamiz. Umid qilaveramiz – bir kun baxtli bo'lishni kutaveramiz.

Umid aytgan har qanday gap – yolg'on. Ularning hech biri kafolatlanmagan. Kun oxirida ishdan horib kelayotgan opam men

istagan muzqaymoqni olib kelishni unutmasligiga umid va'da bera olmaydi. Siz kutgan baxt kelishini ham umidingiz hech qachon kafolatlay olmaydi. Biz umidimiz yolg'oniga ishonib kutgan narsalar kelguncha o'zimiz omon bo'lishimizga ham hech kim kafolat bermaydi.

Bugunni qadrini bilib, hozirgi lahzadan samarali foydalanishimiz, niyatlarimizni ahd darajasiga yetkazib, ularga erishish uchun harakatni boshlashimizga xalal beruvchi – bizni ojiz va tobe shaxs qiluvchi, o'z baxtimizni bunyod qilishga qodir shaxsiy kuchimiz noma'lum va kafolatsiz narsani kutishga sarflanib isrof bo'lishiga sabab bo'luvchi narsa umiddir.

Men umid ojiz odamning ovunchog'i deb bekorga aytmadim. Ojiz odam o'z hayoti va baxti uchun mas'uliyatni o'z bo'yniga olishni istamaydi. Ubu javobgarlikni boshqa odamlar va hayotiy vaziyatlar gardaniga tashlashga intiladi. Mening ko'nglim istagan muzqaymoqni menga yetkazishga kun bo'yи ishlab toliqqan opam mas'ul emas (axir, tan oling – siz kimdir umidvor bo'lib, o'sha odamni o'z istaklaringizni amalga oshirishga mas'ul qilasiz). Mening istagim – bu menin mas'uliyatim. Shuni anglab yetsam, men o'z istagimni o'zim amalga oshirishga ahd qilaman va harakatga tushaman. Muzqaymoqni o'zim borib olaman. Baxtimni o'zim yarataman.

Ko'ngil – baxtingiz posboni. Odam ko'ngli xotirjam bo'lsagina, chindan baxtli. Ko'ngil o'z istaklari ahd tarzida harakatga aylanishini istaydi. Agar istak yarim yo'lda umidga aylanib, qotib qolsa – umidvorlik bilan kutish jarayoni odamni ko'ngil xotirjamligidan ayiradi. Yoki bir nimadan umidvor bo'lib kutib o'tirganda sizning dilingiz yayraydimi? Yo'q. Ko'ngil o'z istagi ahdga aylanib, unga sari intilayotganda xursand bo'ladi. Men ko'nglim tusagan muzqaymoqni opam olib kelishini kutib, ko'ngil xotirjamligidan ayrilaman. O'sha muzqaymoqni olgani o'zim borsam, ko'nglim istagi tomon ketayotganidan juda sevinadi, bu baxtimga ko'chadagi jazirama ham, muzqaymoqqa ketadigan pul ham raxna sola olmaydi.

Afsuski, siz kabi suhbatdosh do'stlarimdan oladigan xatlarning ko'pchiligi umidga to'la bo'ladi. Kitoblarimni o'qib, undagi bilimlardan hayratlangan odamlar hayotlarini tartibga solish uchun ana shu bilimlar, kitob yoki mendan umidvor bo'ladilar.

Lekin men kitoblarim orqali sizga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy fikr – shaxsiy erkinlik. Men sizga faqat shaxsiy erkinlikni ravo ko'raman, bilgan narsalarimni baham ko'rib, siz ham shaxsiy erkinlikka intilishingizni istayman.

Men sizga aytayotgan fikrlarni umidingizni kuchaytirish yoki oqlash uchun ishlatmang. Ularni o'zingizga ochiq va achchiq gapishtirishni, o'zingiz bilan rostgo'y bo'lishni, shaxsiy kuchingiz nimalarga sarflanayotganini nazoratga olishni o'rganish uchun ishlating. Ana shunda bu kitoblar sizni umidvorlik botqog'iga botishingiz uchun emas – erkinlik maydoniga chiqishingiz uchun xizmat qiladi.

Kimdir yaxshi narsalarga umid qilib yashashdan hech bir zarar yo'q deyishi mumkin. Yaxshilikka umid qilib yashash, chindan ham, bir qarashda "yaxshi" odatdek tuyiladi. Lekin endi siz yaxshi va yomon narsalar yolg'on ekanini bilasiz. Demak, yaxshilikka umid qilib yashash ham yolg'ondan boshqa narsa emas. Optimist odam ham kutadi – yaxshilikni kutadimi, mo'jizanimi – farqi yo'q, u ham umrini va kuchini kutishga sarflaydi. Bu bizga berilgan bunyodkor kuchni foydasiz isrof qilish degani.

Men siz bilan kitob orqali suhbatga kirishib, sizni kuchliroq shaxs qilishga umid qilmaganman. Men, umuman, o'quvchilardan hech narsa kutmaganman. Men avval boshidan shaxsiy kuchi katta kitobxon ulashilgan bilimlarni o'z shaxsiy erkinligini mustahkamlash uchun ishlatishini, shaxsiy kuchi kam kitobxonlar esa ularga aytilgan bilimlarni ham umidlarini kuchaytirish uchun sarflashlarini bilganman. Shu bois sizga aytayotgan fikrlarimni qanday va qay darajada ishlatishni men har doim o'zingizga qoldiraman.

Sizni kuchli qilish umidim yo'q – sizni kuchli qilish ahdim bor. Agar ahdim kuchi yetarlicha katta bo'lsa, kitob sizga oz bo'lsa-da naf keltira oladi. Aks holda suhbatdan kamida maroq olishingizga umid qilaman. Yana bir yolg'on umid...

YAKSHANBA

Baxt

Mana, yaxshi va yomon haqidagi ertagimiz ham nihoyasiga yetdi. Har birimiz bu ertakdan o'zimizga yarasha xulosalar chiqardik.

Bu gal aqlimiz yolg'onlarni qanchalik yaxshi ko'rishini, haqiqiy baxt o'rniga bizga soxta baxtni "o'tkazmoqchi" bo'lishini bilib oldik. Hayotimizni ilohiylashtirish va nafrat kabi muhimlik yuklaridan tozalashga urinib ko'rdik. Bunda, balki, qanchadir samaraga ham erishdik.

Shaxsiyatimizni ba'zi kemtiklar siquvidan holi qilishni o'rgandik. Yaxshi va yomon haqidagi yolg'on ta'sirida jamiyat bizga o'tkazadigan bosimi yukini yengillatdik. Ba'zi qo'rquvlarimizni savol ostiga qo'yishdan qo'rqedik.

Bularning bari kichik yutuqlar, o'zlik sari dadil qadamlar. Siz bilan suhbatlashib, ko'nglim to'ldi, sergakligim oshdi, fikrlarim yana-da oydinlashdi.

Bu suhbatimiz ancha og'ir va keskin mavzularga tegib o'tdi. Bu ham bizning sergakligimiz oshishiga, shaxsiyatimiz o'sishiga, muhimligimiz pasayishiga turki bo'ldi. Suhbatimiz yomon bo'lmasdi, har holda. Bularning barchasi uchun men, albatta, sizdan minnatdorman.

Yana bir bor rahmat sizga.

Muallif haqida

Ismi-sharifim – Javlon Juraev

Mutaxassisligim – iqtisodchi

Qiziqishlarim – falsafa, amaliy psixologiya, jamiyatshunoslik, axborot texnologiyalari, adabiyot, tillar, musiqa, tasviriylar san'at

Internet sahifam – www.juraev.uz

Email manzilim – dilpora@gmail.com

Agar kitob sizning shaxsiy o'sishingizga oz bo'lsa-da hissa qo'shgan bo'lsa – uni ma'qul topgan do'stlaringizga tavsiya eting. Bu kabi bilimlar har kimga daxldor va ulardan foyda topishga har kim haqli. Ishoning – atrofimizda kuchli shaxslar qancha ko'p bo'lsa, hayotimiz shuncha yorqin bo'ladi.